Ta’limni tashkil etishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta’limning darsdan tashqari formalarini qanday o‘tkazish?. O quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o‘tkazish kerak?. O‘quv prosessida ta’limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?).

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. Nafasova. Boslang‘ich singlarda matematika fanini o‘qitish metodikasi.



OILADA FARZAND IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH

*Abdullayeva Kibriyo
Ravshanbekovna-NamDU doktoranti
Muhibdinova Umida-Namangan viloyati
Uchi tumani XTBga qarashli 2-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada farzandni tarbiyalash jarayonida, uni ijtimoiy faolligini oshirishda Sharq mutafakkirlari merosidan, asarlaridan foydalanan yoritib berilgan bo'lib, ijobiy natijaga erishishda tavsiyalar ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: E'tiqod, urf-odat, an'ana, qadriyat, ijtimoiy, faollik.

O'rta Osiyoda ta'limning barcha masalalariga Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Az-Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy singari ko'plab daholar ilm-fan, adabiyot va san'at, ta'lim-tarbiya, umuman, farzand ijtimoiy faolligini va ma'naviyatni rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shganlar.

Xalqimizning mard qahramon farzandlaridan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurning hayoti, ularning bosib o'tgan yo'li, butun faoliyat yo'li, butun faoliyati bugungi va kelgusi avlod uchun ibratli ekanini hamisha yodda tutish lozim. Chunki, o'sha fan arboblari-yu xalq qahramonlarining faoliyati har tomonlama tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

VII-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan beqiyos rivojlanan bordi. O'sha tarixiy davrda yuqorida zikr etilgan buyuk allomalar dunyoga keldilar. Bu ulug' mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy va oilani mustahkamlashga qaratilgan qarashlarini o'stirishda asosiy rol o'yndilar.

Ushbu allomalarimiz asarlari darsliklarda o'z aksini topgan. Hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasi, istiqlol mafkurasi ana shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'yan maqsad- vazifalari sharaf bilan bajarishi mumkin. Chunki ular odobnomasi, ibratnomasi oilada bolalarni har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, ma'naviyatimizning ustivor iymon- e'tiqodlarimizning butun bo'lishligini, qadrli qadriyatlarimizning qadrlanishi garovidir. Bu borada biz albatta, madaniy me'rosimizga o'zlarining beqiyos ulushlarini qo'shgan buyuk allomalarimiz Beruniy, Farobi, ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy va boshqalar ijodini o'rganish, ularning milliy tarbiyamizga urg'u bergen asarlarini o'rganish kelajak avlod uchun katta ma'rifiy- tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Bu silsilada Yusuf Xos Hojibning nomini ham faxr vaiftixor bilan tilga olish mumkin. Ularning har biri nafaqat o'zbek milliy ta'lim- tarbiyasiga, jahon sivilizatsiyasining rivojiga tegishli hissasini qo'shgan o'z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi bo'lган. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari shu yo'lda yaratilgan durdonalardan biridir. Shoir aytganiday, asar:

Boshdan oxirigacha donolar so'zi,
Go'yoki tizilgan marjondek o'zi.

Bizning xalqimiz shunday axloqiy- didaktik, adabiy- qomusiy asari borligidan har ancha faxrlansa arziydi. "Qutadg'u bilig" -baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasixatlari, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk ma'rifiy asar ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi.

"Qutadg'u bilig" — XI asr so'z san'atining nodir namunasi bo'lib, unda o'z davrining ilg'or ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma'lumot berilgan. Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlarni sanab o'tish olimning ta'lim-tarbiya, axloq masalalarini qay darajada chuqur bilganligiadolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirin so'zlik, saxovat, mardlik, xurmat va ehtirom, tadbirkorlik, aql-zakovat, xalollik, ezgulik kabi, xislatlar ulug'lanadi.

"Qutadg'u bilig"da bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Yusuf Xos Hojib bu asari orqali o'z tasavvurida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday ko'rgan bo'lsa, shu asosda o'z prinsiplarini bayon etadi. Mana shunday axloqiy masalalardan biri oila va farzand tarbiyasi masalasidir. Bu umuminsoniy axloqiy normaga Sharq



etikasiga ahamiyat berib kelgan. Sharq xalqining ulug‘ an’anasini, oilaviy hayotini, turmush tarzi va tarbiya usullarini chuqr bilgan shoir mazkur muhim axloqiy muammoni o‘ziga xos falsafiy talqin qiladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun, u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina ularning noo‘rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishning barcha masalalari o‘zining badiiy ifodasini topgan yirik ta’limiy-axloqiy dostondir. Olim insonni kamolga yetishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Aqliy kamolot-bilim va zakovat. O‘quvli bo‘lish.
2. Axloqiy kamolot.
3. Jismoniy kamolot.

Yusuf Xos Hojib insonning kamolga yetishining yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Shuning uchun ham bu asar o‘zining ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyati bilan beqiyosdir. Shuning uchun ham Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni turkiy xalqlar adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallagan durdona asarlardan biri deb e’tirof etiladi

Yuqorida zikr etilgan buyuk va suyuk allomalarining merosi ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganildi. Hayotning mazmuni to‘g‘ri tushuntirish, farzandlarga to‘gri odob- axloqni o‘rgatish , ezgu ishlarga odatlantirish qayd etilgan. Asarda barkamol avlod tarbiyasi, uning kamolotiga doir barcha masalalarni o‘zida mujassam etish bilan birga o‘quvchi yoshlar tarbiyasiga ijobiyl fazilatlarni singdirish va turli yomon illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo‘yicha qator tarbiya metodlari, usul va vositalari mavjud.

Azal-azaldan bizgacha ota-bobolarimizdan qolgan o‘lmas yodgorliklar zamirida bir qancha ma’nolar borligi,bular ,albatta, oila va oilada bolalarni milliy tarbiyalashda va ularning ijtimoiy hayotga tayyorlashda,faolligini oshirishda katta dastur-ul amal vazifasini o‘tayotgani faxrlanarli xol.



BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA GRAFIKLI ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

*Abulqosimova Asila Sa'dullayevna
Jizzax viloyati, G'allaorol tumani,
24-umumi o'rta ta'lim maktabi
boslang'ich sinf o'qituvchisi
+9989475746907
asilaabulqosimova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boslang'ich sinflarga turli fanlardan dars berish jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar sirasiga kiruvchi grafik organayzer (shaklli chizma)larning turlari va ularning ta'lif berishdagi afzallikkleri to'g'risida so'z boradi. Shuningdek, grafik organayzer asosida ayrim mavzular olib beriladi.

Kalit so'zlar: Grafik organayzer, interfaol usul, "Yumaloq xarita", "Muzqaymoq", "T" chizmasi, "Gamburg" metodi.

"Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi. Shunday farzandlarimiz borki, ular umumi o'rta ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalinish, uni to'g'ri yo'naltirish lozim"

O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lif tizimida alohida o'rinn tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'lifi tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boslang'ich ta'lif darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boslang'ich sinflardanoq « dars » degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlar, interfaol metodlardan foydalishmoqda. Ana shunday interfaol metodlardan biri grafik organayzerlar bo'lib, bu o'qitish va o'rganishning samarali usuli ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Ulardan foydalinish o'quvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham juda foydali bo'lishi mumkin, chunki ular darslarni yanada qiziqarli, oson va tushunarli qiladi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: Garafik organayzerlar o'zi nima?

Grafik organayzer (inglizcha, "graphic organizer" so'zidan olingan) - bu ma'lumot va g'oyalarni osonlik bilan tartibga solish uchun ishlataladigan o'qitish vositasidir. Soddaroq qilib aytganda, grafik organayzerlar turli hajmdagi matnlarni chizmalar yordamida tushuntirish demakdir.

Grafik organayzerlarni dars jarayonida qo'llashning bir qancha afzallikkleri mavjud bo'lib, ular:

- Kattaroq yoki murakkab tushunchalarni yoki g'oyalarni kichikroq va sodda qismlarga ajratish orqali ma'lumotni tasavvur qilish uchun osonroq tasavvur qilish yoki taqdim etishga yordam beradi;
- O'quvchilarga dars jarayonida faol ishtirok etish va mavzuni mukammal tushunish imkoniyatini beradi;
- Aqliy hujum, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tarkibni tasniflash va birinchi o'ringa qo'yish, mulohaza yuritish va hokazo kabi bilim qobiliyatlarini rivojlanirishga yordam beradi;
- Mavzuga oid oldingi bilimlarni eslab qolishga va uni tezda yangi ma'lumotlar bilan boyitish hamda bilimlar zanjirini davom ettirishga ko'maklashadi;
- O'z ustida ishslash, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi tuyg'ularni shakllantirish imkoniyatini beradi;
- Dars jarayoni orqali o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi;
- O'quvchilar yozuvlarni yozish, tahlil qilish, o'rganish va hokazolarda grafik organayzerlardan foydalangan holda dars bilan osonroq tanishishlari mumkin.

Hozirgi vaqtida ta'lif jarayoni mukammallikni, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro do'stona munosabatni, dars o'tishning innovatsion texnologiyalar yordamida olib borilishini talab qilayotgan bir davrda grafik organayzerlardan unumli foydalinish dars mashg'ulotlarining



samaradorligini oshiradi. Grafik organayzerlarning bir qancha usullari mavjud bo‘lib, ular ichida “Ven diagrammasi” va “Klaster” metodlari juda ommabop hisoblanadi. Bu metodlar haqida yetarli ma’lumotga ega ekanligingizga ishonchim komil bo‘lganligi uchun boshqa bir nechta grafik organayzerlar haqida ma’lumot berishni joiz deb topdim. Ular haqida batafsil to‘xtatib o‘tsak:




“Yumaloq xarita” (inglizcha Circle map) - tegishli ma’lumotlardan foydalangan holda g’oya yoki mavzuga hujum qilishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan ushbu metod doira shakldagi chizma orqali o‘quvchilarga taqdim etiladi. O‘quvchilar asosiy mavzuni doira markaziga yozadilar va uning atrofini mavzuga oid tushunchalar bilan to‘ldiradilar. Bunda o‘quvchi kichik aylanalarni o‘z xohishiga ko‘ra joylashtirishlari mumkin.



“Muzqaymoq” (inglizcha Ice-cream) grafik organayzeri orqali o‘quvchilarni darsga jalb qilish va ularning faol ishtirot etishlarini ta’minlash mumkin. Bunda muzqaymoq shaklidagi chizma orqali mavzuni tushuntirish kifoya, muzqaymoqning nonli bo‘lagiga asosiy mavzu beriladi, qaymoqli qismlariga esa mavzuni yanada to‘liqroq ochib berish uchun yordamchi g‘oyalar beriladi. O‘quvchilarga topshiriq sifatida berilganda esa, kimning muzqaymog‘i qaymoqliroq bo‘lsa, g‘olib sifatida rag‘batlantirilishi mumkin. “Muzqaymoq” metodi barcha mavzular uchun samarali usul hisoblanadi.

“T” chizmasi – o‘tilayotgan yoki o‘tilgan mavzuning ikki tomonini ochib berishda keng qo‘llaniladi. Bu usul eng sodda chizmada tashkil etiladi, ya’ni T shakldagi chizma berilib, uning har ikki tomoni o‘quvchilar bilan birgalikda to‘ldirish, ikki o‘quvchini doskada musobaqa qildirish, yoki guruhni ikkiga bo‘lib, ulardan shaklning tomonlarini mavzu asosida shakllantirib berishni ham so‘rash mumkin. Bu usulni qanday holatda qo‘llash o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq. Quyidagi chizma orqali “T” metodi haqida yanada aniqroq ma’lumot olish mumkin.



“Gamburger” (inglizcha Hamburger) metodi ham grafik organayzerlar ichida eng samarali usul hisoblanib, bunda o‘quvchilar mavzu doirasida o‘z bilimlarini mustahkamlay oladi. O‘quvchilarga hamburger shaklidagi chizma orqali yangi mavzuni tushuntirish ham, ulardan o‘tilgan mavzuni shakl orqali tushuntirib berishlarini so‘rash ham mumkin. Misol uchun, “Arifmetik amallar” mavzusini quyidagicha yoritib berish mumkin.

Yuqorida berilgan grafik organayzerlardan tashqari yana “O‘rgimchak to‘ri”, “Shajara daraxti”, “Monopoliya”, “Zinamazinga”, “Bulut” kabi usullar ham bo‘lib, ularni ta‘lim berishning



interfaol usullaridan deya nomlash mumkin.

Ma'lumki, interfaol metodlarning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratishdir. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda biron ta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ldi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, grafik organayzerlar interfaol usullardan bo'lib, ularni dars jarayonida qo'llash o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof –muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yhati:

1. I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi". Toshkent. 2000.



PEDAGOGIKALIQ TEKNIKA HÁM SHEBERLIKTIÍ OQITIWSHILAR USHIN ÁHIMIYETI

*Alimova Dámetken
Qaraqalpaqstan Respublikası
Kegeyli rayoni 55-sanlı qánigelestirilgen
mektepiň biologiya pánı oqitiwshısı*

Anotaciya: Bul jumisimda pedagogikalıq texnika hám sheberliktií muğallimlerdiń sabaqtıń maqsetine jetiw, onıń durıs shólkemlestiriliwindegi áhimiyeti haqqında tolıq jarıtılıwga hárket ettim. Oqiwshılardıń aldında sabaqtı sheberlik penen jetkerip bergen muğallim haqiyqıy dóretiwshi.

Gilt sózler: pedagogikalıq sanat, novernal, pantomimika, diksiya, sóylew tempi, psixofizikalıq shınıǵıwlar.

Pedagogikalıq (san'at) dóretiwshilik jaǵday menen baylanıslı. Bul jerde hár dayım bárshe nárse birinshi ret júz berip atırǵanday bolıp seziledi. Biraq, insan óziniń hár bir adimin aldınnan kóriwi, rejelestiriw ámelde mümkin bolmaydı. Pedagogtiń miyneti- bul tıńimsız izleniw hám azaplı keshirmeler, ilqxamlanıw, kópten-kóp úy jumısları, kútken nátiyjege erise almwaw hám balalar menen basınan keshirilgen quwanıshqa qanat qılıp jasaw. Pedagogikalıq sańat- bul qol menen uslap bolmaytuǵın, aqıl-parasat penen ámlege asırılatuǵın nárse, degen kóz qaras payda boladı.

Hár qanday dóretiwshilik, bunıń ústine pedagogikalıq dóretiwshilik ápiwayı jerde, tek óana sezimlik reaktsiyalar tiykarında baslanıwı mümkin emes. Pedagog kadırlardı tayarlaw hám olardıń tájriybesin asırıwdıń pútin sisteması mine usı bilim alıwǵa qaratılıwı kerek. Biraq ele hesh kim joqarı oqıw ornında oqıp, ýáki oqitiwshılardıń tájriybesin asırıw kursların tamamlágannan keyin usta pedagog bolıp qalmaǵan. Pedagogikalıq miynet ustalar mektebinde júzege keledi, balalar menen qarım-qatnasta tárbiyalanadi.

Pedagogikalıq sheberlik degenimiz ne hám ol nelerden quraladı? Bul aqıl-parasat hám bilimlerdiń, haqiyqıy ilimiý, tárbiyalıq qıyıñshılıqlardı jenip shıǵıw qábiletine iye bolǵan abroylı basshılıqtıń, balalar qálbiniń qandaylıgın seze biliw sheberligi, ishki dúnıyası názik hám ázzi bolǵan bala shaxsına sheberlik penen abaylap jandasıw, danalıq hám dóretiwshilik, ilimiý analiz, qıyal hám fantaziyaǵa bolǵan qábileterdi óz ishine jámleydi.

Pedagogikalıq sheberlik pedagogikalıq bilimler, aqıl-parasat penen bir qatarda pedagogikalıq texnika boyinsha kónlikpelerde kiredi, olar tárbiyada azıraq kúsh sarıplap, kóbirek nátiyjelerge erisiw imkaniyatın beredi. Álbette, pedagogikalıq sheberlik erisilgen nárseler shegarasınan tısqarı shıǵıwǵa hár dayım umtılıwdı názerde tutadı. Biz pedagogikalıq hádiyseniń eń áhimiyetli, yaǵníy hár dayım tákırıralanıp turatuǵın tárepleri menen is kórgen jaǵdayda anıq usınıs boliwı mümkin.

Maqset ózine tán ishki jol kórsetiwshi bolıp esaplanadı, ol pútin pedagogikalıq jámááttiń, hár bir ayırım pedagogtiń xızmetin baǵdarlap turadı.

Házirgi zaman pán hám texnikaniń rawajlanıwı oqitiwshını dóretiwshi boliwın, pánnıń áhimiyetli másseleleri boyinsha erkin pikir júrite alıwı, pán jetiskenliklerin oqiwshılarǵa jetkere alıwı hám nátiyjede oqiwshılardı erkin pikirlewge, izertlewge úyrete alıwdı talap etedi. Sonıń ushın oqitiwshi eń dáslep izertlewshilik tájriybelerin iyelewı zárür. Oqitiwshınıń xızmetinde eń áhimiyetli nárse bul onıń sóyelewı hám oqiwshılar menen qarım-qatnasi. Qıyın temalardı da sóylew mádeniyati, pedagogikalıq sheberlik penen jetkersek maqsetke muwapiq boladı.

Sózsiz kommunikatsiya qurallarına noverbal yaǵníy qol, barmaq hám bet hárketleri, imaishara, ton, pauza, juz-kelbet, kúlgi, kóz jas qılıw hám usı sıyaqlılar kiredi.

Awız-eki sóylesiw kommunikatsiyası verba bolıp, onıń tásırın kúsheytirıwde múnásibetke kirisiwshilerdiń keńislikte jaylasıwı úlken áhmiyetke iye boladı. Hesh oylanbastan aytılǵan gáp kommunikatordıń repinentge múnásibetin anıq kórsetip beredi. Tálımnıń ayrim túrlerinde oqitiwshı oqiwshılardı klassta qabil qılǵanınday bir-biriniń arqasında emes, bálkım sheńber formasında, bir-birine júzbe-júz otrıwların abzal ko'redi.

Sózsiz kommunikatsiyada qollanılıp atırǵan qurallardıń xabardı sóz benen jetkeriw maqsetlerine hám mazmunına muwapiqlıǵı múnásibet mádeniyatiń quram bólimlerinen bolıp esaplanadı. Bunday muwapiqlıq hám awızekı, hám sózsiz kommunikatsiya usıllarınan kásıplıq xızmettiń



quralı esaplanğan pedagog ushın júdá zárúrli. Usı menen bir waqıtta sózsiz kommunikatsiya ima-ishara, pantamimika sózsiz túrdegi hárqıylılıqta rawajlanıp baradı.

Pedagogikalıq texnika muğallim iskerliginiň ishki mazmuni hám onıń sırtqı sáwleleniwiniň birligin támiedyinleytuğın oǵada áhmiyetli pedagogikalıq sheberlik.

Solay etip, texnika bul-usıllar jiynaǵı. Onıń quralları-sóz hám qıymıl háreket arqalı qatnas jasaw. Pedagogikalıq texnika elementlerin biliw hám iyelew muğallimge alda turǵan wazıypalardı sheshiwdiń kerekli quralı bolıp xızmet etedi. «Pedagogikalıq texnika» túsiniği eki topar komponenttin óz ishine aladi.

1. Muğallimniń óz minez-qulqın basqara alıw uqıbı menen baylanıslı komponentler: óz organizmin basqarıw(mimika, pantomimika); emotsiyasin, kewil xoshın basqara alıw, social-pertseptiv uqıplılıq(dıqqat, baqlawshılıq, ańlaw); sóylew texnikası (dem alıw, dawısı, diktsiya, sóylew tempi).

2) Muğallimniń jeke adamǵa hám kollektivke tásir etiw uqıbı hám oqıtıl-tárbiyalaw processiniń texnologiyalıq täreplerin ashıp kórsetedi. Olar didaktikalıq, shólkemlestiriwshılık, konstruktivlik, kommunikativlik uqıpların, talap etiwdiń texnologiyalıq usılları h.t.b.

2. Muğallimniń klass aldında turıp sóylewi onda ózine isenimsizlik, qorqınış, tartınıw, atanalardıń, óz kásiplesleriniň «kóz aldında» háreket etiwi muğallimniń pikiriniń düzilisinde, dawısında, fizikalıq halatında (ayaǵı dirildeydi, qoli qaltırayıdı), psixikalıq jaǵdayında (ersi kóriniw, ebeteysiz bolıp kóriniw) ayqın kórinedi. Bunday jaǵdaylarga túspew ushın muğallim hár bir saat aldınan ózi-ózine psicho-fizikalıq tayarlıq jumisların ótkeriw muğallimge óz emocional jaǵdayın basqarıwǵa járdem berip, qorqıw, albırıw, tutlıǵıw halatların jeńiwe alıp keledi. Bunday kemshilikler álbette hár bir jas muğallimniń basınan ótedi, lekin qorqıw shárt emes. Qáteshilik nuqsan emes, degen menen onı saplastırıwdı ózin-ózi basqarıwdı úyreniw arqalı dúzetsel boladı. Muğallimniń jumis barısındaǵı emocional jaǵdayın basqarıwda V.A. Suxomlinsky-diń paydalı keńeslerin yadta tutiwımız júdá zárür. Ol ruwxıy jay paraxatshılıq, aqlı, estiń turaqlılıǵın tárbiyalaw ushın: qabaǵı uyılıp, túnerip júrmew, basqalarıń kemshiliklerin asıra bermew, házillesip turıw, haq kewilli bolıp, hár nárseni jaqsılıqqa joriy biliw(optimist boliw). Bunday sıpatlardı rawajlandırıw ushın muğallim óz kásibiniń jámiyetlik áhmiyetin biliw, minnetin seziwi, pedagogikalıq sezgirliği, óz-ózine analiz beriwig hám bahalawı júdá zárür boladı. Ózin-ózi basqarıwdıń bunday psicho-fizikalıq usılları muğallimniń maqsetke baǵdarlanıwshılığı menen baylanıslı. Olardı bárhá bir qıylı usılda qollanıwda durıs emes. Mazmuni jaǵinan hámme usıllar ózgertirilgen halda qollanılıp turılsa gana bul usıllar jaqsı nátiyjege erisip turıwǵa járdem beredi. Ulıwma qay nárseni qalay, qaysı jerde qollanıwdı muğallimniń kewli seziwi kerek.Ózin psixikalıq tayarlaw-bul deneni bosastırıw, tınişlanǵannan keyin ózin baǵdarlap májbürlew arqalı iske asadı. Ózin isendiriw tómendegi formula arqalı iske asırılıwı múmkın. Men sabaqqa tayarman, sabır taqaatlı hám arqayınman, meniń kewli xoshım jaqsı. Sabaqı isenimli óte alaman. Sabaqtıń hár bir etabına tayarman. Sabaq qızıqlı meniń ushın. Ózimdi jaqsı sezemen. Oqıtıl qızıqlı. Oqıwshılar meni siylaydı, meniń talaplarımıń orınlaydı. Meniń sabaq ótkim keledi. Men-muğallimmen.Úyreniw qıyın jumis, basqanı úyretiw onnan da qıyın. Dáslepki sátsızlıklerge renjimey turaqlı túrde psixofizikalıq shınıǵıwlар álbette pedagogikalıq jetiskenlikler shıńına shıǵıwǵa járdem beredi.

3. Tárbiyashınıń sırtqı kórinisı estetikalıq tásirsheń boliwı tiyis. Óziniń sırtqı kórinisine itibarsız qaraw, yamasa hádden tıs diqqat awdariwǵa da bolmaydı.

Muğallimniń shash túrmegi, kiyimi, ondaǵı bezekler bárhamma balalardıń tárbiyasına durıs tásir etiwge qaratılǵan boliwı kerek. Muğallim ózin bezew kosmetikadan paydalaniw huqıqına iye, lekin muğallimshilik kásibi muğallimnen bezeniwdıń ólshemin biliwdi, onı seziniwdı talap etedi. Onıń sırtqı kórinisiniń tásirsheń boliwına bet álpetiniń jaydarlılıǵı, kewilliliǵı, qol háreketleri, júzháreketleri, jumistiń saldamlılıǵı, uluwma háreketleriniń orınlı qollanılıwı úlken tásir jasaydı. Muğallimniń bet álpetinde qapashılıq, asıw, qaraw, sálemlesiw, klass ishinde júriwi bári-bári balalarga tásir etiwi kúshi ekenligin muğallim jaqsı túsiniwi hám durıs paydalana biliwı shárt. Muğallimniń barlıq háreketlerinde, kóz qaraslarında, sózinde, iseniminde balalar ózindegı jasırın kúshı, tereń isenimdi sezinetuğın boliwı tiyis.

Muğallim ózin arqayın, erkin, sabır-taqaatlı uslap bilse, óziniń sırtqı kórinisine eń hasıl bezewdi qostım dep bilse boladı.

Pantomimika. Pantomimika -bul deneniń, qoldıń, ayaqtıń háreketi. Bul müşhelerdiń háreketi muğallimniń baslı maqsetlerin ashıp kórsetiwge, maqsettiń súwretin salıwǵa járdem beredi.



Sabaqtı qızıǵıp ótip atırǵan muǵallimniń is-háreketin bir baqlap kóriń. Onıń bası, moyını, qolları, uluwma denesi bir pútin halda oqıw materialların túsindiriwge baǵdarlanǵan. Muǵallimniń tik suliw sin-sınbatı, onıń ishki qádir-qımbatın kórsetedi, jiynaqlılığı, aniq qádemeleri óziniń bilimi hám kúshli isenimdi bildiredi. Kerisinshe salbirágan bas, salpawsıǵan qollar, súmireygen bet álpet muǵallimniń ruwxıy ázzılıgi menen ózine isenimsizliktiń, sawatsızlıqtıń aynası. Muǵallim balalar aldında durıs turiwdı úyreniwi shárt: (ayaqlar arası 12-15 sm ashıq, bir ayaǵı aldına azǵantay halda iyilgen). Barlıq háreketter hám poza (deneni qalay uslawı) óziniń shiraylılıǵı, jaǵımlılıǵı hám ápiwayılılıǵı menen oqıwshıldarı ózine tartıwi lazım. Deneni durıs uslaw estetikası-shayqatılıp turiwdı, ayaqların orınsız almastıra beriwdi, orınlıqtıń arqasına súyenip turıw ádetlerin, kerek emes nárseni qolda aylandırıw, basın uslawdı, murnın sıpırıwdı, qulaqların qasıwdı biykarlaydı. Muǵallimniń bası, qolı h.t.b dene járdeminde kórsetpeleri júdá shiraylı isleniwi kerek. Olardı orınlı qollanıwǵa úyreniwi kerek. Bul búgingi kúnniń ustazlarǵa qoyılatuǵın talaplarınıń eń tiykarǵılarınan biri.

Paydalanylǵan ádebiyatlar:

1. I.A .Karimov Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch. Toshkent 2008 y.
2. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T-1997 y
3. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi. Toshkent-1997 y
4. O'zbekiston Respublikasi " Ta"lim haqidagi qonuni". T-1997 y
5. Rubinskiy.V. Ta'rbiyaviy ish metodikasi. T-1991y
6. N.N.Azizzodjaeva "Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat" Toshkent 2003 y.
7. R.J. Ishmuha'medov «Innovatsion texnologiya yordamida tálım samaradorligini oshirish ýóllari» Toshkent 2004 y
8. U.Seytjanova , T. Esemuratova, A. Dosxodjaeva, G. Matmuratova «Pedagogikalıq sheberlik» No'kis 2005 j.
9. U. Tolipov, M.Usmonboeva «Pedagogik texnologiyaning tadbiqiy asoslari» Toshkent 2006 y.
10. Z.Kurbaniyazova, T.T. Utebaev, J.S. Utepbergenov Pedagogik mahorat.No'kis 2008 j



INGLIZ TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

*Allabergenova Intizor Kadamovna
Xiva shahar 1-sonli
umumi o'rta ta'lif maktabining
ingliz tili fani o'qituvchisi
Xiva, Xorazm, O'zbekiston*

Annotatsiya: Umumiy o'rta ta'lif maktablarida Interfaol usullardan foydalangan holdan ingliz tili fanlarini tashkil etishda samara beradigan g'oyalar yaratish.

Kalit so'zlar: interfaol usul, ingliz tili, innovatsiya, texnologiya, ilm-fan, maktab.

So'nggi yillarda chet tillarini o'rganish inson hayot omiliga aylanib ulgurdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu esa yangi texnologiya va uslublarni umumiy o'rta ta'lif maktablarida, ayniqsa, ingliz tili fani o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida tinimsiz izlanishlar olib borishlarini talab etadi. Odatiy uslubda biz maktab o'quvchilariga oddiy shaklda shunchaki og'zaki bo'lgan misollar orqali o'z fikrimizni bayon etib uni o'quvchilar ongiga singdirishimiz odatiy an'analarga aylanib ulgurgan. Bugungi kunda aynan o'sha eski ish uslublaridan foydalanmasdan yangi davr talabi bo'lgan texnikalardan foydalangan holda, turli slaydlar, video mashg'ulotlar, qiziqarli boshqotirmalar va yana bir qancha yangi g'oyalar asosida o'quvchilar bilan ish olib borishimiz ularni bu fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otibgina qolmay, ularni ko'z va qulqoq orqali qabul qilgan ma'lumotlarini o'z hotirasida mustahkam saqlab qolinishiga yordam beradi. Darslarda turli inglizcha krossvordlar, qiziqarli mashqlar va yana bir qator interfaol usullardan foydalansak, ta'lif oluvchilar kelajakda o'z olgan bilimlarini hayotga tatbiq etishlari mumkin.

Interfaol usullarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning ta'lif mazmuni xususiyatiga mos kelishdir. Usul mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu bousdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir usul yordamida mavzu mazmuni to'laroq oshib berilsa, boshqasi uni ijobjiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi. Interfaol usullarni tanlashning yana bir mezoni ularning o'quvchilar o'quv imkoniyatlariiga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta'minlashdir.

Interfaol o'qitish usullaridan foydalanish pedagogning xususiy imkoniyatlariiga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish usullari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayonining qonuniyatları bilan bilish nazariyalari ta'lif mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi. Interfaol usullarni tanlash mezonlaridan keyingisi - ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishdir. Darvoqe, o'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha usullarni talab etadi. Misol uchun debat usuli ikki o'quvchi o'rtasidagi bahs hisoblansa, "aqliy hujumda" guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtiroi zarur bo'ladi

Reja bo'yicha mavzuni oldindan tayyorlangan videomaterial (slayd, qisqa videorolik, multfilm) larni videoproektor yoki elektron doskalardan foydalanish orqali o'quvchilarga ko'rsatib, o'sha paytning o'zida ularni ushbu o'quv darsiga bo'lgan diqqatlarini oshirib, yanada qiziqarli ravishda dars olib borish imkoniyatiga ega bo'lamic. So'ng esa o'quvchilarni turli rag'batlantirish usullari bilan ularning keyingi mashg'ulotgacha bo'lgan davrda ushbu darsning hotirada saqlanib qolishini ta'minlashga va shunga o'xshagan yana bir qancha interfaol usullar orqali yuksak natijalarga erishishimiz mumkin.

Yurtimizda bugungi kunda ta'lif tizimiga e'tibor qaratilayotgan bir paytda ingliz tilini o'qitish uslubi va dars mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida o'qituvchilar zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g'oyalar, turli maktablar yo'nalishlarining har xil uslublarini o'rganishi, allaqachon ma'lum bo'lgan uslublardan emas, balki bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanib ulgurgan interfaol usullardan foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodning yangicha fikrlash va bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishga hizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoev Sh.M. ““ERKINVAFAROVON, DEMOKRATIK O‘ZBEKISTON DAVLATINI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ” - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq”” – T., 2016
2. Mirziyoev Sh.M. ““QONUN USTUVORLIGI VA INSON MANFAATLARINI TA’MINLASH – YURT TARAQQIYOTI VA XALQ FAROVONLIGINING GAROVI” – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza 2016 yil 7 – dekabr” – T., 2016
3. Internet manbalari: www.google.uz, www.library.ziyonet.uz



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.

*Ashurova Dilrabo Davronovna
Samarqand viloyati Paxtachi tuman 24-maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llaniladigan metodlar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, interfaol metod, baliq metodi, venn diogrammasi.

Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e’tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas’uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas’uliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo‘zg‘otish asosida maq sadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir.

Yoshlarni barkamol qilib yetishtirish jarayonida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishini ta’minalashga e’tiborni kuchaytirish va ta’lim sohasida shaxsning tarbiyasi va har tomonlam a rivojlanishida ustunlikka erishishni ta’minalashdan iborat. Ta’lim-tarbiya jarayonining uch tarkibiy birligi - tarbiya, ta’lim, shaxsni rivojlantirish to‘liq darajada amalga oshirilishiga erishish lozim. Ta’lim-tarbiya ishida rasmiyatçilik va beparvolik kabi illatlardan voz kechish kerak. Bu maqsadda mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan yangi uslub va vositalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur. Bugungi kunda pedagogikada o‘quvchi-yoshlarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o‘qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o‘qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o‘yinlar, rolli o‘yinlar, mavzuli o‘qitish va boshqalar. Buning uchun har bir mashg‘ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko‘zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishda ijodiy yondashuv va ko‘p vaqt ni sarflashni talab qiladi. Chunki har bir o‘tiladigan mashg‘ulot ishlanmasi o‘ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchilarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, fikrini teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Dars jarayonida “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Charxpalak”, “Insert”, “Venn diagrammasi” kabi interfaol metodlardan o‘rinli foydalanish, dars samaradorligini oshiradi.

“Venn diagrammasi” metodi.

ushbu texnologiya o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishslash, o‘rganilgan materialni yodda saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin bayon etish, hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

“Baliq skeleti “metodi: Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil , keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar.bu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammonihar tomonlama ochib berishga harakat qiladilar.



Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalananib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tarbiya va ta'lim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyos. Darslarni shunday texnologiyalar asosida olib borish dars samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. "Barkamol avlod yili" davlat dasturi. T. O'zbekiston. 2010.
2. Pedagogika o'qitish metodikasi T- 2008



REPRODUKTIV FIKRLASH VA UNING TAFAKKUR OLAMIDAGI O'RNI.

*Bekchanova Kuvonch Roximovna
UrDu Pedagogika va psixologiya kafederasi o'qituvchisi
Bekchanova Laylo Raximovna
Urganch tumani 7 son o'rta maktab o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada reproduktiv fikrlashning inson hayotidagi ahamiyati va roli haqida, shaxning fikriy tahlil qilish mahorati masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tafakkur, ijodiylik, shaxs, fikrlash, V.A.Kruteskiy, muammo, isbot, yechim, izlanish.

Insonning reproduktiv fikrlash jarayonlari yetarli darajada rang -barang va murakkab bo'lib, tor ma'noda, uni barcha xossalarni va qonuniyatlarini aniq tavsiflash qiyin. To'g'ri, ijodiy fikrlashning boshqa fikrlash turlari bilan umumiylilik va o'xshashlik tomonlari anchagini, lekin bu, bizningcha, ular orasiga tenglik belgisini qo'yish uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Holbuki «ijodiy fikrlash» atamasining o'ziyoq fikrlashni bu turini alohida xususiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi. Ijodiy (reproduktiv) tafakkur - murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi, dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani echish va savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala bu bajarilishi yoki hat qilinishi zarur bo'lgan vazifa ko'pincha ifodalanishi shart bo'lgan maqsadni ham aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma'lum voqelikni topishga guman va hayajon, shubha hislaridan xalos etishga qaratilgan maylidir.

Ijodiy tafakkurning navbatdagi tarkibiy qismlari quvidagicha aks ettiriladi:

- qo'yiladigan savollarga javob berish, masalani yechishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko'nikmalami qidirish,
- ularni tanlash hamda mazkur faoliyatda ulami tadbiq qilish va boshqalar.

Ijodiy fikrlashni ta'minlovchi omillar:

1. Fikr yuritish faoliyatida eng avval hal qilinishi zarur bo'lgan masala inson tomonidan aniqlab olinishi kerak.

2. Muammo yoki masalani hal qilish zarur bo'lgan barcha bilimlarni tadbiq qilish uchun intilish.

3. Masalaga, muammoga taalluqli gipoteza olg'a suriladi, bosqichlar taxmin qilinadi, yechim to'g'risida farazlar ishlab chiqiladi, turli variantlar hamda variasiyalar haqidagi mulohaza yuritiladi, o'zaro xayolan solishtinb, eng samarali alomatlar ajratiladi va hokazo.

4. Muammo oldiga qo'yilgan farazni tekshirish zararati tug'iladi. Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza adekvat emasligi, noto'g'ri ekariligi ardqlansa, u fikr yuritish ob'ektidan siqib chiqariladi va yangi faraziar, o'ylar taxmin qillnadi yoki o'ylab topiadi.

5. Muammo va masalani hal qilish, yechish, olingan natijalarni to'g'riliqiga qanoat hosil qilish uchun echuvchi, ini tekshirish bilan tafakkur harakatlarini yakunlaydi.

Psixolog V.A.Kruteskiy ijodiy tafakkurni taraqqiy ettirish maqsadida masalalar tipologiyasini ishlab chiqib, turli yoshdagi o'quvchilar o'quv faoliyatida sinab ko'rgan. Tipologiyaga kiritilgan masalalarni V.A.Kruteskiy turlicha nom bilan ataydi:

1. Savol aniq qilib qo'yilmagan masalalar.
2. Berilganlari yetishmaydigan masalalar
3. Ortiqcha ma'lumotlari bo'lgan masalalar
4. Bir necha yo'1 bilan yechiladigan masalalar.
5. Mazmuni o'zgarib turadigan masalalar.
6. Isbotlashga doir masalalar.
7. Fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga doir masalalar [17, b. 204].

Ijodiy tafakkur turi o'zining samaradorligi va dolzarbligi, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o'ylab chiqish jarayoni bo'lib, insonning bilish faoliyatida yetakchi rol o'ynaydi. Taniqli psixolog I.S.Yakimanskiya ijodiy tafakkurni uzluksiz ravishda ijodiy masalalarni hal qilishi va ijod mahsulotlarini yaratishga



qaratilgan tafakkur turi deb hisoblaydi. Lekin biz qaysi ta'rifni tanlab olmaylik, baribir barchamiz ijodiy tafakkurga ehtiyoj sezamiz va u yoki bu darajada ijodiy tafakkur qilamiz. Ijodiy tafakkur bizning kundalik hayotimizni mazmunli qiladi:

1. Fan va san'atsohasini ijodiy tafakkursiz tasavvur qilib bo'lmaydi;
2. Ijodiy tafakkursiz matematika va boshqa fanlar taraqqiyotini tasavvur qilish mumkin emas.

Ijodiy tafakkur qilish jarayonda biz ko'p ham biror narsani isbot qilishga harakat qilavermaymiz, balki barcha imkoniyatlardan foydalanib, muammoning yechimini ilgarilatishga urinamiz va faqat yangi g'oyaga kelgandan so'ng uni haqiqiyligini va ahamiyatliligini isbotlashga kirishamiz. Ijodiy fikrlash "sakrab" birorta yangi holatni egallashga va keyin tanlab olingan natijani anglashga imkon beradi. Gipotezalar, farazlar va g'oyalardan foydalanib, keskin ijodiy sakrashni amalgalash mumkin. Ayrim hollarda axborot taqchilligida biz yetishmayotgan tafsilotlarni o'ylab topishga majburmiz. Ijodiy fikrlash jarayonida farazlar va taxminlarni ilgari surish axborotlar olishga va g'oyalarni paydo bo'lishiga yangi yo'llar ochadi. Ijodiy fikrlash eng avvalo bu, tanqidiy fikrlash kabi mustaqil fikrlashdir. Fikrlash mustaqil bo'lgandagina u ijodiy fikrlash bo'la oladi. Hech kim birov uchun ijodiy fikrlab bera olmaydi. O'quv jarayonida talabalar uchun mustaqil fikrlash va o'ta murakkab masalalarni ham mustaqil hal qilishga imkoniyat yaratish zarur.

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yhati

1. E.G'oziev Umumiypsixologiya T 2002 1-kitob 93 bet
2. N. Baymuratov Amaliypsixologiya T 2008 321-bet
3. E.G'oziev Talim jarayonida o'quvchilar tafakkurining o'sishi T O'qit 1980



BOSHLANG'ISH SINFLARDA MANTIQIY TOPSHIRIQLAR ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

*Sirdaryo VXTHQTMOHM "Maktabgacha, boshlang'ich va
maxsus ta'lif metodikalari" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Nishonboyeva Aqida

*Sirdaryo viloyat Mirzaobod tuman 12-umumtalim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy topshiriqlar orqali tafakkurini o'stirishlar yo'llari haqida ma'lumot berilgan

Kalit so'zlar. mantiq, tafakkur, o'yin, jarayon, faoliyat

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va o'nga talim –tarbiya berish sifatiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning bilish faoliyatini shakllantirish va uzlusiz rivojlantirib borishning maqsad vazifalari, mazmuni va metodlarini o'rganib borish, ilmiy pedagogik asoslarga tayangan holda olib borilishi, muammoning yeshilishi, o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, ularda bilimni egallash faolligi, mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish masalalariga boqliq. Bunda kichik yoshdagagi maktab o'quvchilari bilan ularning bilish faoliyatini rivojlantirib borish, amaliy ko'nikma hosil etish vazifalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ish sinflarda o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirib, rivojlantirib borichda o'qituvchilarimiz ta'lifning innovatsion texnologiyalaridan foydalanib, o'z darslarini qiziqarli etib tashkillashtirib o'tishlari zarur. Yosh avlodning shakllanish jarayonini ularning aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi va tafakkur qobiliyatini bilmasdan turib, ta lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mushkul.

«Abdulla Avloniy» Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalashni xohlar ekan, unda insonni har tomonlama o'rganishi zarur» deb bejiz aytmagan.

Bugungi kunda birimiz darslar jarayonida o'quvchilarga innovatsiyon usullardan foydalanib, fanlararo boqliklik elementlaridan foydalanib, ekologik gigienik bilimlarni o'zaro bog'lab olib borish ularda bu sohada muayyan ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Biz ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tish amaliy ko'nikmasini boyitib borishga yordam beradigan interfaol usullardan foydalanib borishimiz zarur. Darslarimiz jarayonida interfaol usullardan foydalanib darslar o'tish farzandlarimizning bilimli, zukko, talabchan va aqliy bo'lib, erkin fikrlovchi shaxs bo'lib kamol topishiga yordam beradi desak shubhasiz to'g'ri deb o'ylayman.

O'yinga asoslangan texnologiyalarning talimdagи o'rni, avvalo o'yin elementlarining funksiyalarini o'qituvchi o'quvchilarga oldindan tushuntirib borishlari kerak.

Bugungi kunda matematika darslarimiz juda ko'p mantiqiy topshiriqlar bilan boyitilgan, bu esa o'quvchilarimizni fikrlash qobiliyatlarini yanada oshiradi deb o'ylayman. Shuning uchun darsliklardan tashqari yana qo'shimcha topshiriqlardan foydalanish darsni samarali va qiziqarli bo'lishiga olib keladi.

Masalan:

6 ta stakan turibdi: 3 tasi bo'sh, 3 tasida suv bor, Shunday qilish kerakki, suvli va bo'sh stakanlar тўмифеъф-тўмифе turishsin. Faqat bitta stakanni harakatlantirishga ruhsat beriladi.

Yoki,

Sen va men, sen bilan biz,

Hammamiz nechtamiz?

Yoki,

Ko 'tarib keldi to'rva

Echki pishirdi sho'rva

Suzib ikki tovoqqa

Ularning har birini

Berdi ikki uloqqa

Uloqlar to'yishmadi

Onasin qo'yishmadi



Taqqillatib tovoqni,

Teshay dedi quloqni

Nechta uloq qilmay toqat

Kutayapti yana ovqat

kabi topshiriqlar bolalarni yanada qiziqishlarini oshirishga sabab bo‘ladi.

Bunday topshiriqlardan dars jarayonida foydalanish mashg‘ulotlarni qiziqarli qilibgina qolmay o‘quvchilarda matematika va uning tadbiqlariga qiziqish uyg‘otish; matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash; dastur bo‘yicha bilimlarni boyitish; mustahkamlash, kengaytirish; ilmiy tekshirish xarakteridagi malakalarni hosil qiiish, topqirlik, ziyraklik, xushyorlik, ijodkorlik, tirishqoqlik, mustaqillik kabi xususiyatlarni tarbiyalash va ilmiy qiziquvchanlikni o‘stirish kabi vazifalarni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Matematika darslarida qiziqarrii materiallardan foydalanish o‘quvchilar faolligini oshiradi, ularning aqlini charxlab, mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi, diqqatini bir joyga to‘playdi, o‘rganilayotgan materialni yaxshiroq o‘zlashtirish imkonini beradi, o‘quv jarayonini boshqarish uchun puxta zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, masala va topshiriqlar ustida ijodiy ishlash va asosli xulosalar chiqarish uchun o‘qituvchi darsda o‘quvchilarga turli xildagi fikrlashga undaydigan mantiqiy topshiriqlar, masalalar berish, krossvord, rebuslar, yechishga o‘rgatishi lozim.

Adabiyotlar

1. Bolangiz maktabga tayyormi. O‘quv qollanma.
2. . <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta’lim portal.



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI O'QUV JARAYONINI TASHKIL
ETISHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Djumanqulov Azamat Abdurahimovich
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Pedagogika va umumiy psihologiya kafedrasi doktoranti,
telefon: +998 97 753-33-42
azamat.jumanqulov@mail.ru

Rezume: Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ham ko'rish mumkinki ta'lism mamlakat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Mamlakatimizda ham mustaqillik tufayli shaxs manfaati va ta'lism ustuvorligiga e'tibor ortdi. Ushbu maqolada oliv ta'lism muassasalarida o'qitish sifatini xorijiy tajribalar asosida monitoring qilish haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: oily ta'lism, kredit-modul tizimi, xorijiy tajribalar, kadrlar tayyorlash tizimi, ta'lism sifati, o'quv dasturlari,

Yurtimizdagi ilg'or oliv ta'lism muassasalarida an'anaviy o'qitish tizimidan voz kechilib, dunyo tajribasidan o'tgan usul va uslublardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. 2013-yildan buyon mamlakatimizdagi tibbiyat oliv ta'lism muassasalari, 2016–2017-o'quv yilidan Toshkent davlat yuridik universitetida talabalar o'qitishning modul tizimi asosida ta'lism olayotgan bo'lsa, 2018–2019-o'quv yilidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetid kredit tizimiga o'tildi. "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmonida ta'lism sifati zamонавиу yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, ta'lism sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish, oliv ta'lism muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish kabilar ko'zda tutilgan edi[1].

Kredit-modul tizimi 1989-yili bir qancha Yevropa universitetlarida sinovdan muvaffaqiyatl o'tgan. Dastlab, ECTS kreditlash tizimi SOCRATES / ERASMUS dasturi (1988-1995) asosida ishlab chiqilgan. Ushbu tizim tajriba sxemasi bo'yicha 6 yil davomida sinov davrida bo'lib, unda Evropa Ittifoqidagi 145 ta universitet ishtirok etib, 5 ta ta'lism yo'nalishini qamrab oldi: MBA (biznes boshqaruvi), kimyo, tarix, texnik-mexanika va tibbiyat. 1996-97 yillarda ECTS tizimi 38 ta yangi universitetlarda (shu jumladan 348 ta fakultetda) va 36 ta nostandard universitetlarda (shu jumladan 206 ta fakultetda) qo'llanila boshlandi[2].

ECTS (Evropa kredit tizimiga o'tkazish)dan foydalanish ayniqsa quyidagi mamlakatlarda keng tarqalgan: Gretsya va Shvetsiya (80%), Finlyandiya va Polsha (81,5%), Avstriya (84%), Ruminiya (87%), Norvegiya (90%), Irlandiya va Daniya (93%). ECTS dan tashqari tizimlar Buyuk Britaniya (45,5%) va Turkiyada (58%) eng ko'p qo'llaniladi. Ba'zi mamlakatlarda nisbatan katta foiz na ECTS tizimidan va na boshqa shunga o'xshash tizimdan foydalanmaydi: masalan, Portugaliyada (34%), Bolgariyada (38,5%) va Vengriyada (44%). Janubi-Sharqiy Evropa[3].

Modul va kredit tizimlari bir-birini to'ldiradi. Modul alohida o'quv fani bo'lib, o'zida tegishli bilim hamda kasbiy jihatlarga doir ma'lumotlarni qamrab oldi. "Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqaqlash orqali, o'qitishni tabaqaqlashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi" [4].

"Modulli ta'lism- o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o'zlashtirish tizimiga yahshi moslashgandir. Modulli o'qitish asosi inson bosh miyasi to'qimalarining modulli tashkil etilganiga tayanadi" [5]. Kredit-modul o'qitish tizimi esa, har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lism oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan uzluksiz pedagogik ta'limgning ustuvor yo'nalishlari «Ta'lism to'g'risida»gi Qonunda belgilangan qoidalar asosida hayotga tatbiq etib borilmoqda. Dunyo kasbiy ta'lismi o'rganmay turib, bu sohada yangi islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Bu borada bizga uzluksiz ta'lism tizimini olib boruvchi davlatlar tajribasi,



ularning ishlab chiqqan ta'lim standartlarini o'rganish juda zarurdir. O'zbekistonda 11 yillik bepul majburiy ta'lim mavjud bulib, ta'limning bu shakli xorijiy davlatlarda turlichadir. Xususan, Xitoy va Yaponiyada 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 9 yillik, Germaniyada 6 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan 13 yillik majburiy ta'lim mavjud. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ham ko'rish mumkinki ta'lim mamlakat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Mamlakatimizda ham mustaqillik tufayli shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligiga e'tibor ortdi. Yosh avlodda mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, iymon-e'tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, bilimlilik, onglilik, baynalmilallik kabi insoniy fazilatlar asosida zamonaviy bilim va xorijiy ta'lim tajribalarini rivojlantirish uchun yetarli sharoitlar yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://www.lex.uz>. 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. Обзор зарубежных кредит-систем(по материалам научных исследований, выполненных МГУ им. М.В. Ломоносова в рамках проекта ФПРО 2005 года и национального проекта 2006 года)5-bet
3. Обзор зарубежных кредит-систем(по материалам научных исследований, выполненных МГУ им. М.В. Ломоносова в рамках проекта ФПРО 2005 года и национального проекта 2006 года)10-5bet
4. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N, Pedagogik texnologiya. T.2012. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti.130-bet
5. Xudouqulov X.J.. Allayarova S.H. Oliy ta'limdamodulli o'qitish va unda innovatsion tehnologiyalardan foydalanish". T.2019. "Mumtoz so'z". 9-bet



BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA
MIQDORLARNI O'LHASH MALAKALARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

*Ergashova Maxfuza Yarashovna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
13-umumi o'rta ta'lif maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
(+99891 247 95 86)*
*Tuychiyeva Dilfuza Dilmurodovna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
13-umumi o'rta ta'lif maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
(+99893 142 72 40)*

Annotatsiya : Boshlang'ich sinf o'quvchilariga miqdor mavzusini o'rgatish , miqdorlarni hisoblashni o'rgatish usullari.

Kalit so'zlar: Miqdorlar, o'lchov birliklari, massa , og'irlik, uzunlik , hajm , vaqt, narx, tezlik, tushunchalar, km, m, sm, dm, mm .

Hozirda har bir maktabda ta'lim–tarbiya saramadorligini oshirish jiddiy vazifa bo'lib turibdi. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borishi orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi.

Bizga ma'lumki, turli xil o'lchov birliklari mavjud. Bular km, m, sm, dm va eng kichik o'lchov birligi mm dir. O'quvchilarni millimetr bilan tanishtirish o'quvchilarni uzunlik o'lchovlari bilan tanishtirish ishining eng murakkab bo'g'ini hisoblanadi. 1-4 sinflarda o'quvchilar uzunlik, massa, hajm, vaqt haqida va ularning o'lchov birliklari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Misollarni yechish jarayonida ular baho, qiymat, miqdor, narx, tezlik, masofa, unumtdorlik tushunchalari bilan tanishadilar.U yoki bu miqdor haqida tasavvurni shakllantirish va ularni o'lhash usullari o'ziga xoslikka ega bo'lsa ham, har bir miqdorni o'rganishda umumi bosqichlarni alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'qituvchi har bir miqdorlarni o'rganish jarayonida ana shularga tayanib, o'quvchilar faoliyatini quyidagicha tashkil etishi mumkin.

Miqdorlarni o'rgatish bo'yicha metodik sxema:

1. Bolalarda mavjud mazkur miqdorlar haqidagi tushunchalarni aniqlash (bolalarning hayotiy tajribasiga murojaat etish).
2. Bir xil nomli miqdorlarni solishtirish (chamalab ko'rinish, solishtirish, taqqoslash, o'lhash va boshqa xil usullar bilan).
3. Mazkur miqdorning o'lchov birligi va o'lchov asboblari bilan tanishtirish.
4. O'quvchilarda o'lhash ko'nikmalari hosil qilish.
5. Bir xil nomdag'i miqdorlarni qo'shish va ayirish (Masalalarni yechish jarayonida).
6. Miqdorlarning yangi o'lchov birliklari bilan tanishtirish, bir nomdag'i miqdorlarni boshqa o'lchov birliklariga aylantirish. Ikki bir xil nomli o'lchov birliklarini bitta ikki nomli o'lchov birligiga aylantirish va aksincha.
7. Ikki xil nomli miqdorni qo'shish va ayirish.
8. Miqdorlarni sonlarga ko'paytirish va bo'lish.

Turli miqdorlar haqida tasavvurlarni shakllantirish maqsadida turli amaliy mashqlar va misollar bajariladi, namoyish etiluvchi va alohida ko'nikmali vositalardagi foydalilaniladi. Bu ish barcha o'quvchilar ishtirokida, alohida -alohida har bir o'quvchi bilan va guruh usulida amalgalashiriladi. O'quvchilar "Miqdor" tushunchasining asosiy belgilarini turli xil amaliy mashq'ulotlar davomida va turli xil muammoli sharoitlar tufayli o'zlashtirib oladilar. Miqdorlar va ularning o'lchov birliklari bilan tanishuv nafaqat amaliy ahamiyatga mashq, ayni vaqtida u o'quvchilarda hayotiy muammolarni ko'ra bilish imkoniyatini shakllantirish va shu bilan ularning bilishga qiziqish ishtiyoqini rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jumayev M. E., Tadjieva Z. G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi T.: 2005 yil
2. Internet ma'lumotlari



MAKTABDA ONA TILI DARSLARIDA MUAMMOLI MAVZULARNING O'QITILISH METODIKASI

*Ermatova Shaxnoza
Hakimova Feruza
Namangan viloyati Yangiyo'rg'on tumani
14-maktab ona tili fani o'qituvchilari
Ermatova_scholl14@gmail.com
Khakimova_school14@gmail.com*

Annotatsiya: mazkur tezisda biz maktab o'quvchilari orasida o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan va oliv o'quv yurtlariga imtihon topshirish jarayonida ayrim kamchiliklarga yo'q qo'yilayotgan mavzularni oson o'qitish metodikalari bilan tanishtirib o'tmoqchimiz.

Kalit so'zlar: tirening ishlatalish o'rni, ega, kesim, kesimlik so'zları, takidlash ma'nosi.

Bugungi kunda maktabda ona tili darslarini o'qitishda ayrim mavzularni o'qitishda o'quvchilarga mavzu uchun ajratilgan vaqt yetarli bo'lmay qoladi, yoki mavzularni tushunishga qynalishadi. Bu muammolar ularga oliv o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida va keying o'qish jarayonlarida ko'plab noqulayliklar keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni darslar jarayonida hal qilish va mavzularni o'quvchilarga oson o'zlashtirishlariga yordam berish uchun biz quyida ayrim mavzularni oson o'qitishj metodikalari bilan tanishtirib o'tamiz:

1. Ega bilan kesimningb orasida tirening ishlatalishi:

Quyidagi holatlarda ega bilan kesim orasiga tire qo'yiladi: Gapning kesimi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanib, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *Toshkent – go'zal shahar*. Gapning egasi yoki kesimi yoxud ularning har ikkalasi harakat nomi bilan ifodalansa va bog'lama bo'lmasa, egadan so'ng tire qo'yiladi: *Kulish – umrni uzaytirish vositasi*. Gapning egasi yoki kesimi birikmalar bilan ifodalanib, tenglik, o'xshatish, kabi ma'nolarni bildirsa va bog'lama bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *Yaxshi qiz – yohadagi qunduz*.

Ega yoki kesim ko'rsatish olmoshi yoxud miqdor son bilan ifodalanib, alohida ajratib ko'rsatilsa, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *Ana shu – mening uyim. Uch karra uch – to'qqiz*. Ega bilan kesim ***bu, u, mana bu*** so'zları bilan ajratilgan holatlarda tire shu so'zlardan oldin qo'yiladi: *Istihlol – bu o'zbek xalqining azaliy orzusi*. II. Quyidagi holatlarda ega bilan kesim orasiga tire qo'yilmaydi: Ega kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, bog'lama bo'lmasa ham, tire qo'yilmaydi: *U tajribali iqtisodchi*.

Kesim kelishik qo'shimchasini olgan bo'lsa: *Butun umidimiz sendan*.

Ega bilan kesim o'rtasida ***ham*** yordamchi so'zi bo'lsa: *Men ham kichik paxtakor*.

Kesim sifat, son (miqdor sondan tashhari), ravish bilan ifodalansa: *Shahrimiz go'zal. Kitoblar soni beshta. Mening orzularim ko'p*.

Ba'zan ta'kidlash ma'nosini kuchaytirish uchun kesimlik qo'shimchasi bo'lishiga qaramay, egadan keyin tire qo'yilishi mumkin: *Adabiyot – hayotning in'ikosidir*.

2. Kesimlik so'zları:

Ayrim mustaqil so'z turkumiga mansub bo'lган so'zlar *-moq, -sh(-ish)* qo'shimchali harakat nomlari bilan kelib kesim tarkibida qatnashadi. O'z mustaqil ma'nosidan uzoqlashib, gapning fikriy markazi vazifasida kelgan bunday so'zlar **kesimlik so'zları** deb ataladi. Ular ot (*shart*), sifat (*kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin, muhim*) turkumlariga tegishli bo'lishi mumkin: *Bu ishni bajarish kerak (lozim, zarur...)*.

3. Qaratqich aniqlovchi:

biror narsa tegishli, qarashli bo'lган shaxs yoki predmetni bildiradi va *kimning?, nimaning?, qayerning?* so'roqlariga javob bo'ladi. Qaratqich-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak **qa-ralmish** deb yuritiladi. Qaratqich va qaralmish **moslashuv** orqali birikib, shaxs va sonda albatta moslashgan bo'ladi: *Odamning (3-shaxs) qo'li (3-shaxs) gul*. Qaratqich-aniqlovchi, odatda, quyidagicha ifodalananadi: Qaratqich kelishigidagi ot, olmosh bilan: *Gulnor yigitning so'zlarini diqqat bilan tingladi*. Qaratqich kelishigidagi otlashgan so'zlar bilan: *O'nning yarmi - besh*. Ibora bilan: *Og'zi bo'shning ichida gap yotmas*. Qaratqich-aniqlovchi **-ning** qo'shimchasisiz (belgisiz) ham qo'llanadi: *Bolalar xonasi ozoda edi*.



Ushbu mavzularni o‘qitish metodikasi: yuqoridagi mavzular o‘quvchilarda anglashmovchilik tug‘diradi. Oq‘uvchilar bu mavzularni o‘zlashtirishlari uchun bu mavzular ustida mashq qilishlari lozim. Pedagoglarga qo‘yiladigan talab shu mavzudagi DTM tomonidan chiqarilgan testlarni o‘quvchilar bilan chuqur tahlil qilgan holda bajarish. Bu mavzularga doir maxsus testla va mashqlar tuzib berib maktabda darslar jarayonida o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilib boorish usuli ham ancha qulay hisoblanadi. Yana bir jihat borki o‘quvchilarga muayyan bir asarni olib shu asar ustida ishlab shu mavzularga dori gaplar va so‘zlarni topishlarini talab qilish orqali o‘quvchilarni bilimlarini oishirish mumkun.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Ona tili o‘qitish metodikasi. NamDu 2007 ma’ruzalar matni
2. O‘zbek tilidan Ma’ruzalar majmuasi. Hamroyev M. A. 2005
3. N. Erkaboyeva Ona tilidan ma’ruzalar to‘plami
4. DTM 1996-2019 Oliy o‘quv yurtlariga kirish testlari to‘plami
5. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. (Eski nshr)



ЁШ-АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА АЖДОДЛАРИМИЗ МАЊНАВИЙ МЕРОСИННИГ ЎРНИ

Хамроева Ситора Орзиевна
Бухоро шаҳар 19-MTT тардиячиси
Тел:+998913104536

Аннотация: Ушбу мақолада ёш-авлодни тарбиялашда аждодларимиз моддий мањнавий меросини аҳамияти ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: Ҳужжатлар фондси, қўлёзма, умр, мањнавий мерос

Мамлакат тараққиётини, ҳалқнинг мањнавий салоҳиятини юксалтириш, уларнинг ҳаётини яхшилаш йўлида ҳамиша илм олувчи инсонларга оғарину тасаннолар бўлсинки, улар эзгу ишлар йўлида ҳамиша ҳаракатдадирлар деб, илмли инсонларнинг мавқедаражалари нечоғлик юксак эканлигини очиб беришга ҳаракат қилганлар. Бундан биз аждодларимиздан бизларга қолдирилган ушбу мањнавий мерослар бизларни йўлимизни ёритиб, ақлимиизни теран бўлиб, ҳаётда ўз йўлимизни топишимизда ёрдам берадиган йўлчи юлдуз эканлигини англаб етмоғимиз керак.

Бугунги юритмоқчи бўлган мақоламиз мавзуси “Ёш-авлодни тарбиялашда аждодларимиз мањнавий меросининг ўрни”. Бунда Бухоро музей қўриқхонаси олтин фондларида сакланаётган аждодларимиз томонидан ёзилган қўлёзма манбаларимизга мурожаат этдик.

“Ҳужжатлар фонд” дида сакланаётга бир чорбайтда қуйидагилар битилган: “**Жавони гуфт бо пир дили огоҳ, че гум кардике, хам кашти да ин роҳ, жавобаш дод пиру хуштакаллум, ке айёми жавони кардеам гум**” Бир ўсмир йигит доно (қалби огоҳ) кексадан сўради: нимани йўқотдингизки, бу йўлда буқчайиб (қидириб) турибсиз? Хушсуҳбат пир: “Мен ўз ёшлигимни йўқотган эдим шуни қидиряпман” деб, жавоб берди.

Бу қитъадаги битиклардан ёшлик инсонга умрида бир марта бериладиган имкониятлар фурсати эканлиги, бу берилган фурсатдан унумли фойдаланиб, кераксиз нарсаларга овора бўлмасдан, умрни мазмунли ўтказишга ундаш мањносини англаш мумкин. Ҳаётда қанчадан-қанча инсонлар борки, ўзларини хурсанд қиласидиган, қалбларини қувонтирадиган нарсаларни қўйиб, ўзларига заарли ва фойдасиз ишлар билан овора бўлиб юрганларини жуда кўплаб гувоҳи бўламиш.

Яна бир манбада форс тилида “**Умрат гузашт Ҳайдар бовар намикуни, Фикри баройи ту шайъи уқбо намикуни, Хандон машавки, косаи чешм пур хок мешавад, охир кафани ту атлас-и, кимхо намикуни**” яъни: Умринг ўтди, умрдан унумли фойдаланмай молу-дунёга берилиб, худони зикридан фафлатда қолдинг, Сенда дунё севинчи шунчалик даражада юқорики, бошингда охират ғами йўқ. Сен хандон отиб, хурсанд бўлиб, ҳаволаниб юрмагинки, қўзингни косаси тупрокқа тўлади ва умрингни охири ҳарқанча бой-бадавлат, симу-зар соҳиби бўлсангда кафанингни атласу-кимходан қилмайдилар. (яъни, ҳар қанча бой бўлсангда охири бир парча кафан-суф билан кўмадилар)

Кейинги манбамизда шундай баён қилинган: “**Жавонон тоати эмрузи кун, ке, фардо жавони наёбад зе пир, ман он руз қадр нашноҳтам, бидонистам акнун бо хастам**”. Мазмуни: “Эй ёшлар бу кунни қадрига етиб тоату ибодатни ўз вақтида бажо келтиринг, эртага қариганда бу ёшликни топаолмайсиз, кейин кеч бўлади, мен ўша (ёшликтаги) кунларни қадрига етмаган эканман, энди-энди буни тушунганимда танам ожиз, касалманд бўлиб қолибман”. Шунинг учун ёшликтаги ҳар бир лаҳзадан унумли фойдаланиб, уни қадрига етинг! Демоқчи. Бу нодир қўлёзмаларда битилган ҳар бир мисралар заминида улкан мањно мужассамдир.

Ақлли инсон вақтини қанчалик қадр-қимматга эга эканлигини яхши англаш, берилган умрни ғанимат билиб, илм ўрганади, ўзига ёққан, манфаатли касбни ўрганади. Билим олиш-миллий ғурурни шакллантириш йўналишларидан бири. Чунки инсон камолотида билим эгаллаш улкан вазифалардан бири ҳисобланади. Билим олган киши ҳар томонлама ривожланган одобли, ахлоқли, камтарин, комил инсон бўлади. Ўша комил инсон, унинг олган билими ҳаёт йўлларида таянч, ёлғиз дамларида йўлдош, бахтиёр дақиқаларида раҳбар, қайғули дамларида мададкор бўлади. Билим инсонни ақл-идрокли, билимдон, хунарманд, иродали, эътиқотли қиласиди.



Ота-боболаримиздан қолган маънавий-маданий меросни чуқур ўрганиш, уларни ҳар томонлама тадқиқ этиш, илфор тажрибаларини қайта тиклаш ва ўтмиш меросини келажак авлодга етказиш, ёшларнинг қалбида маънавиятимизга муҳаббат уйғотишга кўмаклашишимиз лозим. Хулоса қилиб айтганда “Ўтмишдаги алломаларнинг бебаҳо мероси қанчадан-қанча авлодларнинг маънавий-руҳий онгини ва турмуш тарзини шакллантирган эди ва у ҳамон ўзининг ижобий таъсирини кўрсатмокда”.

Фойдаланаётган адабиётлар рўйхати

1. Идрок (адабий маърифий китоб) 2009-2010 тақвим. Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси” Тошкент 2010й
2. Бухоро Давлат музей қўриқхонаси “Хужжатлар фонди”



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DAVLAT TILI NUFUZINI OSHIRISH- VATANPARVARLIKNING ENG MUHIM SHARTLARIDAN BIRI

*Jo‘rayeva Hilola Bo‘riboevna
Namangan viloyati Norin tumani
16- muktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon:+998994766972
s.haydarova2903@mail.ru*

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda ona tilimizga nisbatan hurmatni oshirish va undan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgata borish davr talabidir, chunki hech qaysi davlat o‘z tiliga bepisand munosabatda bo‘lmaydi. Zero ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o‘z atrofida birlashtiradi. Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma’naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir.

Kalit so‘zlar: Millat ruhi, o‘zbek tili, davlat tili maqomi, muloqot vositasi, vatanzarvarlik, ma’naviy boylik, mllat ko‘zgusi, ma’naviy-madaniy meros.

Boshlang‘ich sinflarda ona tiliga nisbatan o‘quvchilarning hurmatini oshirish farzandlarimizni vatanni yanada sevishga, uni ardoqlashga, o‘z davlat tilidan faxr tuyishga xizmat qilibgina qolmay, ularni kelajakda davlat tilining nufuzini oshirishga harakat qiladigan avlod bo‘lib yetishishga undaydi. Chunki ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma’naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o‘z atrofida birlashtiradi va dunyoda borliqni ta’min etadi. Har bir millatning o‘z Vatani, oilasi bo‘lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo‘ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo‘lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo‘ladi. Hattoki, go‘dak ham o‘z vatanini, ota-onasini, dunyoni o‘z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o‘rni beqiyos bo‘lganidek, insonning hayotda o‘z o‘rnini topishida, kamolotga erishuviga tilning o‘rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebafo jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg‘u, mehr-muhabbat alanga oladi. Shu sababdan bolalarimizning ongida ularning maktabdagagi ilk yillaridayoq davlat tiliga nisbatan hurmatni yanada yuksaltirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining eng dolzarb vazifasidir. Zero, turk dunyosining buyuk ma’rifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek : “Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidur. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug‘urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur”.

Turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tili bizning bebafo boyligimizdir. So‘z mulkining sultonini, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Hamsa” kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi. Til millatning buyuk boyligi, bebafo xazinasi, tunganmas mulkidir. Chunki millatning tarixi, uning madaniy, ma’naviy merosi, urf-odatlari va an’alari unda mujassam bo‘ladi. Shu sababli ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitishimiz va avlodlarga to‘liqligicha yetkazishimiz kerak. Birinchi Prezidentimizning ta’biri bilan aytganda “O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-milliy bog‘liqlik til orqali vujudga keladi”. Bu fikrlarni doimo yodimizda tutishimiz kerak. Darhaqiqat, tilsiz millat rivojlanmaydi, taraqqiy etmaydi.

1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. O‘zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so‘ng barcha davlat hujjatlari o‘zbek tilida yuritiladi, gazeta va jurnallar o‘zbek tilida chop etila boshlandi. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma’no va jozibadorligidan darak beradi. Negaki, ona tilni ulug‘lash, asrab-avaylash o‘scha tilda so‘zlashadigan har bir insonning burchidir.

Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma’lumki, mashhur bo‘lgan A. Navoiy bobomizga tegishli “Ko‘ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so‘z bil”. Inson qalbining xazinasi til, bu qalb xazinasining kaliti so‘zdir.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan biri bo‘lgan edi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbek tilining xalqaro



miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Til – millat qiyofasining bir bo'lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Mutaxassislarining so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xtaftada bitta til yo'qolib bormoqda. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlarito'g'risida"gi PF-5850-sون Farmoni ta'lim tizimidagi barcha javhalar ,ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ulkan vazifa yuklaydi.Ular jajji qalblarda o'zbek tiliga nisbatan hurmatni eng chiroyli she'rlarni va kitoblarni o'qishni targ'ibot qilish orqali ham yanada mustahkamlaydilar.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yhati:

1. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlarito'g'risida"gi PF-5850-sон Farmoni
2. Karimov I.A."Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"
3. Alisher Navoiy asarlaridan



WAYS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

*Khotamqulova Sanobar Rustambekovna
English teacher of 36-secondary school in Toshkent region,
Zangiota district*

Annotation : This article discusses the important features of language learning. One of the important features of language learning is to understand and comprehend the language. Today, language is a unique method of learning and is widely used in the learning process.

Key words:method, teaching method, teory, research,

Every few years, new foreign language teaching methods arrive on the scene. New textbooks appear far more frequently. They are usually proclaimed to be more effective than those that have gone before, and, in many cases, these methods or textbooks are promoted or even prescribed for immediate use. New methods and textbooks may reflect current developments in linguistic/applied linguistic theory or recent pedagogical trends. Sometimes they are said to be based on recent developments in language acquisition theory and research. For example, one approach to teaching may emphasize the value of having students imitate and practice a set of correct sentences while another emphasizes the importance of encouraging ‘natural’ communication between learners. How is a teacher to evaluate the potential effectiveness of new methods? One important basis for evaluating is, of course, the teacher’s own experience with previous successes or disappointments. In addition, teachers who are informed about some of the findings of recent research are better prepared to judge whether the new proposals for language teaching are likely to bring about positive changes in students’ learning.

Our graduation paper is about how English language can be learned at classrooms on the bases of new pedagogical technologies with having taking into consideration the national aspect, i.e. influencing native Uzbek language and typical mistakes and difficulties in learning English by Uzbek speaking students. First of all we have written it for English language teachers who teach this language to Uzbek students at schools at 5-6 grades, but it could also be useful for adult learners who are only going to learn a wonderful world of English. We believe that information about findings and theoretical views in second language acquisition research can make you a better judge of claims made by textbook writers and proponents of various language teaching methods. Such information, combined with insights gained from your experience as a language teacher or learner, can help you evaluate proposed changes in classroom methodology

Most people would agree that learning a second language in a natural acquisition context or ‘on the street’ is not the same as learning in the classroom. Many believe that learning ‘on the street’ is more effective. This belief may be based on the fact that most successful learners have had exposure to the language outside the classroom. What is special about natural language learning? Can we create the same environment in the classroom? Should we? Or are there essential contributions that only instruction—and not natural exposure—can provide?

In this chapter, we will look at five proposals which theorists have made for how second languages should be taught. We will review research on second language learning which has been carried out in classroom settings. This will permit us to explore further the way in which second language research and theory contribute to our understanding of the advantages and the limitations of different approaches to second language teaching.

Before we go further, let us take a moment to reflect on the differences between natural and instructional language learning settings. We will then look at transcripts from two classrooms and try to understand what principles guide the teacher in each case

Classroom data from a number of studies offer support for the view that form-focused instruction and corrective feedback provided within the context of a communicative program are more effective in promoting second language learning than programs which are limited to an exclusive emphasis on accuracy on the one hand or an exclusive emphasis on fluency on the other. Thus, we would argue that second language teachers can (and should) provide guided, form-based instruction and correction in specific circumstances. For example, teachers should not hesitate to correct persistent errors which learners seem not to notice without focused attention. Teachers should be especially aware of errors that the majority of learners in a class



are making when they share the same first language background. Nor should they hesitate to point out how a particular structure in a learner's first language differs from the target language. Teachers might also try to become more aware of those structures which they sense are just beginning to emerge in the second language development of their students and provide some guided instruction in the use of these forms at precisely that moment to see if any gains are made. It may be useful to encourage learners to take part in the process by creating activities which draw the learners' attention to forms they use in communicative practice, by developing contexts in which they can provide each other with feedback and by encouraging them to ask questions about language forms.

immigrant who cannot read and write his or her own language, and an adolescent learning a foreign language at school.

Bibliography

1. Lightbown P., Spada N. How Languages are learned Oxford University Press Oxford 1993 p.69-111
2. Savignon, S. 1972. Communicative Competence: An Experiment in Foreign-language Teaching. Philadelphia, Pa.: Center for Curriculum Development.
3. Montgomery, C. and M. Eisenstein. 1985. 'Reality revisited: An experimental communicative course in ESL.' TESOL Quarterly 19: 317—34.
4. Long, M. H., L. Adams, M. McLean, and F. Castanos. 1976. 'Doing things with words—verbal interaction in lockstep and small group classroom situations' in J. Fanselow and R. Crymes (eds.): On TESOL 76. Washington, D.C.: TESOL. pp. 137-53.
5. Long, M. and P. Porter. 1985. 'Group work, interlanguage talk, and second



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH

*Mamatkulova Nigora Sherbekovna
Sirdaryo VXTHQTMOHM "Maktabgacha, boshlang‘ich va
maxsus ta’lim metodikalari" kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. texnologiya, axborot, metod, algebra.

Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilar bilan ishslashda o‘qituvchidan ular shaxsiga katta ma’suliyat bilan yondoshish talab etiladi. Yangilikka boy, izlanuvchan, ijodiy va mustaqil kasbiy faoliyat ko‘rsatish, o‘z navbatida o‘qituvchidan onglilik va faollikni talab etadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amalga joriy etish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Biz boshlang‘ich sinflarda algebra elementlarini o‘rgatishda foydalanish mumkin bo‘lgan yangi pedagogik texnologiyalardan namunalar keltiramiz.

«Davra suhbati» metodi:

Davra suhbati - o‘quvchilar o‘rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

«Davra suhbati» metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o‘quvchining bir-biri bilan «ko‘z aloqasi»ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbati og‘zaki va yozma shakllari mavjud. So‘zlayotgan o‘quvchini barcha qiziqish bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o‘quvchiga konvert qog‘obi beriladi. Har bir o‘quvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi.

Konvertni o‘lган о‘quvchi о‘z javobini qog‘ozga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismida barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

Davra suhbati metodining afzalliklari:

O‘tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi; «barcha o‘quvchilar o‘zaro muloqotda bo‘ladilar;

Har bir o‘quvchi o‘zining ishtirok etish mas’uliyatini his etadi;

O‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

Davra suhbati metodining kamchiliklari:

Ko‘p vaqt talab etiladi;

O‘qituvchi o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;

O‘quvchilar bilim darajasiga mos va qiziqarli mavzu tanlash talab etiladi.

«T – sxemasi»T-sxema qonun-qoidalari bilan tanishib chiqadi. Yakka tarkibda yoki juft-juft bo‘lib T-sxemani to‘ldiradi O‘z g‘oyalarini yozma ravishda o‘ng va chap taraflarida yozib chiqadilar. G‘oyalar qarama-qarshi bo‘lishi mumkin. Sxemadagi g‘oyalar taqqoslanishi va yakka tartibda, juft-juft holda yoki kichik guruhlarda to‘ldirilishi mumkin - bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan; bunda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, bir g‘oyaning ikki tomoni, foyda va zararlari;- tanqidiy, tahliliy, aniq, mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma vao g‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkon yaratadi;- ma’ruza yakunida qo‘llaniladi;



Uzunlik o‘lchov birligi	og‘irlik o‘lchov birligi
Metr	Kilogramm
Santimetr	Tonna
Millimetrr	Gramm
kilometr	sentner

“Loyihalash” metodi

Loyihalash metodi - bu o‘quvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metoddan o‘quvchilar rejashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish hamda natijalarni baholash jarayonlarida ishtirot etadilar. Loyihalash metodi yakka tartibda yoki guruhiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda o‘quvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iboratdir. O‘quvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u o‘quvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qilgan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlami amaliyatga tadbiq etishi, o‘quvchilar tomonidan mustaqil rejashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi loyihalash metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi; loyiha ishini dars rejasiga kiritishi; topshiriq o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi; loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlari ta’minlanishi lozim. Loyihalash metodidan nazariy bilimlami berishda hamda o‘quv amaliyoti darslarini o‘tkazishda foydalanish mumkin.

«Loyihalash» metodining afzallik tomonlari:

O‘quvchilarning mustaqil fikr lash qobiliyatlarini oshishiga yordam beradi mustaqil o‘rganishning eng faol yo‘li;

O‘quvchilarda birgarlikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Loyihalash» metodining kamchiliklari:

Ko‘p vaqt talab qiladi;

Tanlangan mavzu o‘quvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?..> “Ta’lim texnologiyalari”



PEDAGOGIKADA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Matrasulova Rahimajon Odambayevna
Urganch shahar 19-son IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Tel: +998907381911 Email: matrasulovarohima@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lif berishning vositalari va yo'nalishlari haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, innovatsiya, multimedya, axborot, dars, ta'lif.

Pedagogikada kompyuter o'qitish vositasi sifatida boshqa texnika vositalariga qaraganda aqliy faoliyatni boshqarish sohasida yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Axborotni saqlash va qayta ishlashni amalga oshiradigan yangidan yangi texnika vositalari paydo bo'lib, ular məktəb ta'lifini amalga oshirishda, o'quvchilarni tegishli axborot olishga tayyorlashda məktəb ishining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. O'quvchilarni kompyuter bilan muloqotga kirishish ilmiga o'rgatish bilangina kifoyalanib qolmasdan, shu bilan birga ularni kino va televide niye tilini tushunishga, bunday ommaviy axborot vositalaridan o'zi uchun ham foydali ma'lumotlarni ajratib ola bilish mahoratiga ham o'rgatib borish kerak.

Dars jarayonida multimedya vositalari o'qituvchi uchun birmuncha qulayliklar yaratadi. O'qituvchi tushuntiradi, o'quvchi kuzatadi, bilimlarni an'anaviy idrok etadi, natijada o'quv ma'lumotlarining har bir o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi nazorat qilinadi. Test, nazorat ishlari interfaol usulda tez va qulay usulda o'tkaziladi. Dars uchun tarqatma materiallar tayyor holda chop etiladi, turli pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash imkoniyati tug'iladi. Dars jarayonida multimediyadan foydalanish o'quvchilar tomonidan fanlarning o'zlashtirilishini osonlashtiradi va quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: fanga qiziqish uyg'otish; o'z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash; mavzuni o'rganishda o'quvchiga o'zi uchun qulay bo'lgan tezlik va o'zlashtirish darajasini ta'minlash. O'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalariga jalb qilish, ularni egallash va unda doimiy ishslash ehtiyojini shakllantirish va h.k.

Hayotimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib rivojlanishini taqozo etadi. Bu esa uzlusiz ta'lifning asosi hisoblangan boshlang'ich ta'lif sohasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lif jarayonida kompyuter savodxonligining dastlabki elementlari va undan foydalanishning o'ziga xos malakalarini hosil qilish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuter savodxonligini oshirish bo'yicha darslar quyidagicha tashkil etilishi mumkin: birinchi darsda o'quvchilar yangi fan bilan tanishadilar va kompyuter haqidagi tasavvurlarini so'zlab beradilar. O'qituvchi chirolyi mashinaga rebusli topshiriqlarni joylashtirishi mumkin. Masalan, matematika faniga oid quyidagi rebuslar "Tushib qolgan raqamni toping", deb nomlanadi va bunda yulduzchlar o'rniiga kerakli raqam qo'yish talab qilinadi. ***+*6=36 *9-21=18 ***-11=89

Har bir rebusga kompyuter raqamlari yashiringan bo'ladi. O'quvchi rebusni yechadi va o'zining kompyuter raqamini bilib oladi. Shundan so'ng, har bir o'quvchi o'z kompyuterida mashq bajaradi.

"Kompyuter-oilam yordamchisi" mavzusidagi darsda o'quvchilar qurilmaning jamiyatdagi o'rni, qo'llanish sohalari bilan tanishadilar. O'z fikrlarini bildiradilar. O'quvchilar o'z oilalari haqida gapirishadi va kompyuterda "Oila daraxtini chizishadi. O'quvchilar tuzgan "Oila daraxti" ga qarab "Nima uchun kompyuter menga opam va akam, otam va onamga kerak?" mavzusida hikoya tuzadilar. Hikoya mazmuniga alohida e'tibor qaratish kerakki, u har bir o'quvchida kompyuter faqat menga emas, balki har xil kasb egalariga yordamchi, shu qatori oilam yordamchisi, degan tasavvurni shakllantirsin.

Shunday qilib, o'quvchilarning kompyuter savodxonligini rivojlantirish orqali ularning darslarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish, aqlini charxlash va mantiqiy fikrlashga o'rgatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A., Pedagogik texnologiya asoslari.
2. Boshlang'ich ta'lif jurnali. 2013-yil 6-7-son.



BOSHLANG'ISH SINFLARDA TEKNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI, MAQSAD VA VAZIFASI

*Mahkamova Yodgoroy Nishonovna
Jizzax viloyati Jizzax shahari
19-sonli umum talim maktabining
texnologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Tarbiyaning bo'g'ini boshlang'ich ta'limdan boshlanadi. Ta'lim sohasida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari oldiga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida ma'lum mazmunni fan va texnikaning eng yaxshi yutiqlar bilan boyitishga ta'lim-tarbiya jarayonida mehnat ta'limining rolini oshirish va bolalarni tarbiyalashga ajratilgan.

Kalit so'zi: Tarbiya, boshlang'ich ta'lim, qiziqtirish, ko'nikmalar, qobiliyatlar, istaklar, ijodiy, mehnatga moyillik.

Tarbiyaning bo'g'ini boshlang'ich ta'limdan boshlanadi. Ta'lim sohasida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari oldiga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida ma'lum mazmunni fan va texnikaning eng yaxshi yutiqlar bilan boyitishga ta'lim-tarbiya jarayonida mehnat ta'limining rolini oshirish va bolalarni tarbiyalashga ajratilgan. Bu o'z navbatida mehnat ta'limi oldiga murakkab va mas'uliyatlari vazifalar qo'yadi. Vujudga kelgan imkoniyatlardan mehnat o'qituvchisi shaxsini har tomonlama rivojlanishi uchun to'liq imkoniyat beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshligidanoq bu jamiyat insonlarning o'zaro birikuvi yordamida insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga kelishi, ayniqsa, boshlang'ich sinflar faoliyati ham ijodiy tanqid ostiga olingan edi. Bunda asosiy jihat matab boshlang'ich sinflarda kasbga qiziqtirish va matab ko'nikmalari shakllanmay qolayotganliklari yigit va qizlarning o'z qobiliyatlarini, istaklarini ijodiy mehnat moyilliklariga monand holda hayot yo'llarini belgilab olishda qiyinchiliklar sezayotganliklariga ta'kidlangan va shu bilan birgalikda umumiyligi o'rta ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq vazifalar belgilab olingan edi.

Boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'lim-tarbiyasi va ma'lumoti, maktabdan mehnat ta'limini namoyon bo'lishi va uning o'zagi bo'lib u bolalarning bilimi, ishlab chiqarish faoliyati o'z -o'ziga xizmat qilishi, o'zaro yordam ko'rsatish estetika va jismoniy rivojlanish j arayonidagi mehnat kuchi harakatlarini qamrab oladi.

Boshlang'ich ta'limi mehnat ma'lumoti buning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida yigit va qizlar mehnatning nazariy va amaliy hamda samarali, eng oddiy asosiy negizlari va tarbiyaviy qismlarni, umumlashgan mehnat malakalarini bilish va amalaiy faoliyatni usullarini egallashga qaratilgan.

Forobiyning insoni fazilatlari to'g'risidagi ta'limidan quyidagi ma'lum xulosalariga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshligidanoq bu jamiyat insonlarning o'zaro birikuvi yordamida insonlarning o'z moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga kelishi va jamiyatdan tashqarida insondan, jamiyatdan ajralgan holda o'zaro yordamsiz o'z ehtiyojini qondira olmasligini tushuntirib berish.

2. O'quvchilarning barcha tug'ma qobiliyatlarini yuksak kamolotga hamda mukammallikka erishishi uchun sarf qiladi va bu yo'lda o'zini qurshagan tabiatni hodisalaridan foydalanadi, ularni o'ziga xos bo'ysindiradi, buning uchun ilm-fanni turli hunarlarni o'rganadi

Ibn Sinoning tavsiya qilgan asarida tarbiya va ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Aqliy tarbiya.
2. Jismoniy tarbiya.
3. Estetik tarbiya .
4. Axloqiy tarbiya .
5. Mehnat tarbiyasi.

Ibn sino fikricha bolaga ma'lum bir kasb-hanar o'rgatish zarur. O'quvchi kasb-hunarni ma'lum darajada o'rganib bo'lgandan so'ng uni hunaridan foydalanishi va mustaqil hayot kechirishini



o'rganish lozim.

Mehnat ta'limi o'qituvchilar rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikmalarini egallashlariga ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligin beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyatidir1.

Mehnat ta'limi mazmuni shu vazifalarga to'la bog'liqdir, ya'ni shu vazifalarga ko'ra belgilanadi. Masalan: ta'limi unumli mehnat bilan birga qo'shishni ta'minlash zarurligi boshlang'ich sinfdagi o'qitish mazmuniga, jumladan, mehnat ta'limi mazmuniga qator talab qo'yadi:

1.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari imkoniyatiga qarab unumli mehnatni o'z ichiga olishi kerak.

2.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining unumli mehnati ularning o'quv faoliyatlariga tartiban qo'shilib ketishi kerak.

3.Unumli mehnat mazmunida bolalarning yosh imkoniyatlari, mehnat ta'limi vazifalari, ishlab chiqarish muhitining xarakteri hisobga olinishi kerak.

4.Maktab boshlang'ch sinflarga ta'limning ishlab chiqarish malakasini berish bilan tugallanishi kerak.

Boshlang'ish sinflarda o'quvchilarning amaliy faoliyatlariga alohida e'tibor beriladi, bunga o'quv vaqtining 80-85% i ajratiladi. Mehnat topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar ko'rsatmali qo'llanmalar, materiallar, o'yinchoqlar, tabiiy materiallardan buyumlar tikadilar va yasaydilar. I-IV –sinflarda ustaxona amaliy mashg'ulotlari bilan mehnat darslarining bog'lanishi va harakteriga ko'ra bir tomonlamadir ya'ni, V-VII-sinflardagi mehnat ta'limi mazmunini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Mehnat ta'limining metodlaridan biri suhbat bo'lib odatda mehnat ta'limi shartlarida o'quv ko'rgazmasi bilan birga amalga oshiradigan tushuntirish tez –tez qo'llanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Egamov X "O'zingiz quring va yasang", O"qituvchi nashriyoti Toshkent:1998-yil
2. Mavlanova R."Pedagogika" Toshkent. O"qituvchi nashriyoti 1996-yil 68- bet.
3. Mavlanova R (1-2-3-4 sinflar uchun),O"qituvchi nashriyoti 1996-yil 68-bet.



O'QUVCHILARNING KITOBOXONLIK VOSITASIDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

*Mingbaeva Barno Ubaydullaevna
TShXTXQTUMOXM Boshlang'ich
ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: "O'quvchilarning kitobxonlik vositasida badiiy asarni tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish" mavzusidagi maqlada boshlang'ich sinflarda kitobxonlik vositasida badiiy asarni tahlil qilishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan bo'lib badiiy asarni tahlil qilish turlari, badiiy asar matni ustida ishlash ish tajribasi bayon qilingan. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish yuzasidan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, asar tahlili, nutq o'stirish, adabiy nutq, badiiy asar, obrazlar, janrlar, emotsiyal munosabat, kitobxonlik madaniyati.

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarda bolalikdan badiiy adabiyotga havas uyg'otish, ularning obrazli tafakkurini o'stirish va kitobxonlikka o'rgatish ko'p jihatdan ta'lim tamoyillari va metodlarining to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq. Ilmiy asosda to'g'ri tanlangan metod bola shaxsini rivojlantirish, aqliy faoliyatini faollashtirish va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda asosiy o'rinn egallaydi.

O'qish darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida o'rganiladigan badiiy asarlarni bir-biridan farqlash, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday vositalar yordamida aks ettirgani, qanday adabiy qahramonlar yaratganini tushunish, asar qahramonlarining xatti-harakatiga o'z munosabatini bildirish, ularni baholay olish va tegishli xulosa chiqarish ko'nkmalarini shakllantiradi. O'qituvchi adabiy tushunchalarini o'rgatish jarayonida kitobxonlik vositasida ifodali o'qish, matnni yod olish, qayta hikoya qilish, savol-topshiriqlar ustida ishlash, ijodiy yozma ishlar yozdirish usullaridan foydalanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 yanvar kuni "**Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida**"gi farmoyishni imzoladilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z farmoyishida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish lozimligiga alohida urg'u bergen.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq adabiy tushunchalar yuzasidan hosil qilinadigan elementar bilimlar orqali o'quvchilar kishilarning fikrlari, his-tuyg'ulari va ichki dunyosini ifodalashda badiiy nutqning ahamiyatini anglab boradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini malakali kitobxon sifatida tarbiyalash o'qish darslari oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir. Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarda bolalikdan badiiy adabiyotga havas uyg'otish, ularning obrazli tafakkurini o'stirish, ko'p jihatdan ta'lim tamoyillari va metodlarining to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq. Ilmiy asosda to'g'ri tanlangan metod bola shaxsini rivojlantirish, aqliy faoliyatini faollashtirish va mustaqil ijodiy fikrlash qibiliyatini shakllantirishda asosiy o'rinn egallaydi.

Badiiy asarning o'quvchilar tomonidan idrok etilish darajasi kitobxonlik faoliyati natijalari tahlili (matn mazmuniga oid savollarga javobi, savol qo'ya olishi, o'z fikrini bayon qila olishi va h.k.) asosida belgilanadi. Adabiy ta'limning keyingi bosqichlarida asarni to'liq idrok etish adabiy tushunchalarning chuqur egallanganligidan dalolat beradi.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar uchun badiiy asarni idrok etishning to'rtta darajasini ajratishni lozim topdik.

Birinchi daraja. Bu guruhga mansub o'quvchilar asarlarni yaxlit idrok eta olmaydi, ularning diqqati alohida hodisalarga qaratilib, epizodlar orasidagi bog'liqlikni tushunib yetmaydilar. Ularda matnni o'qish va eshitishda bevosita hissiy ta'sir bo'lishi mumkin, lekin o'z his-tuyg'ularilarini so'z bilan ifodalash mushkullik tug'diradi

Ikkinci daraja. Bu guruhga mansub o'quvchilar asarni to'g'ri qabul qilishi bilan ajralib turadi. Ammo ular ham his-tuyg'ularini ifodalashda qiynaladilar, chunki tasavvur har kimda har xil bo'ladi. Bu guruh o'quvchilarini asar voqealarining ketma-ketligini xotiralarida oson tiklashadi, lekin ular bir-biri bilan qanday bog'langanligini har doim ham tushunishmaydi.

Uchinchi darajaga mansub o'quvchilar asarda bayon qilingan voqealarning ichki



bog'lanishini bilishi bilan ajralib turadi. Ular muayyan tasavvurga ega bo'lishi tufayli asarning tafsilotlari asosida obrazlarni qayta yaratish qobiliyatiga ega. Asarda ularni, birinchi navbatda, asar qahramonlari qiziqtiradi, asardagi asosiy fikrni, qatnashuvchilarning xatti-harakatlari sababini to'g'ri aniqlay olishadi, qahramonlarga baho berishadi. O'qituvchining maxsus savollaridan muallif fikrini aniqlashadi. Umumlashtirish yaqqol timsollar doirasidan chiqmaydi.

To'rtinchi darajaga mansub o'quvchilar nafaqat asar voqealaridan, balki uning badiiy ifodasidan ham ta'sirlanadi. Ularning tasavvuri rivojlangan bo'lib, badiiy asar tafsilotlari asosida obrazni qayta yaratishadi. Matnni qayta o'qishni, o'qiganlari yuzasidan fikr-mulohaza yuritishni yoqtirishadi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, o'quvchilarda adabiy tushunchalarning shakllanishini asarni idrok etish darajasiga qarab belgilash mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni badiiy asarni tahli qilish va idrok qilishga o'rgatishning metodik asosini quyidagilar tashkil etadi:

Kitobxonlik vositasida asar tahlili ustida ishlash o'qituvchidan ta'lim jarayonining har bir bosqichida o'quvchilarning shaxsi, intellektual imkoniyatlari, ruhiyati, intilishlari, qiziqishlarini hisobga olishni talab etadi.

Shunga ko'ra o'qish darslari tizimida o'quvchilarni badiiy asarni idrok qilishga tayyorlash asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun o'quvchilarni so'z musavvirining o'y-fikrlarini to'liq va chuqur tushunishga yo'naltirilgan savol-topshiriqlar tavsiya etilishi juda muhimdir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 23 b.

2. "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyish. 2017 yil. 12 yanvar.

3. Abdullayeva Q va boshq. 2-sinfda o'qish darslari. – T.: «O'qituvchi», 2009.



O'QITUVCHINING NUTQ TEXNIKASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Yo'Idosheva Xamida Irmatovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 24-maktabning

O'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari

Telefon: +99897-738-80-06

Po'latova Zamira Xamdamovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi

24-maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Telefon: +99899-895-27-05

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonida o'qituvchilarning nutq texnikasini qo'llash usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, notiq, humor, pedagogik, mahorat, imo-ishora, mimika.

Nutq - tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikr bo'lib ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) ichki nutq; 2) tashqi nutq.

O'qituvchi ongida hosil bo'ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og'iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'ylashi ichki nutqdir.

O'qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga ta'siri va harakati bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq - tashqi nutq bo'lib, u ijtimoiy hodisadir.

O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi to'g'rilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga ta'sir etish uchun yo'naltirilgan bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, o'qituvchining og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo bo'ladigan ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi. Ya'ni notiq-o'qituvchi o'quvchilarini hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlari gacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, o'z nutqining o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jo'n, sodda tilda gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik ma'lumotiga ega bo'lмаган yosh o'qituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq-o'qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan har qanday fikrini to'laligicha o'quvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo'yiladi.

O'qituvchining notiqlik texnikasi so'zlarni aniq, to'g'ri, tiniq eshitilarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqorida organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur, ushbu jarayon alohida bir faslda ko'rib chiqiladi.

O'quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish o'qituvchi oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o'qituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, o'quvchilarini avvalo nutq rejasi bilan tanishtirib, so'zni boshlash lozim. Vaqtini hisobga olish, notiqlik fazilatlaridan biridir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, o'quvchilar zerikishmaydi.

Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma'lum ma'noda nutq sifatlari haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchravdigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o'quvchilarga mazmunli yetkazishning xilmal-xil yo'llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, humor yoki biror hikoyatni olaylik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommabop fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi o'quvchini ham, har qanday tinglovchini ham zeriktirib qo'yishi mumkin. Shunday paytda, humor, hikoyat, qiziqarli voqealar haqida gapirish o'qituvchiga juda qo'l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos holda keltirilishi yana ham yaxshidir. Shunday



qilinsa, o'quvchi ham dam oladi, ham o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Nutqda mavzu doirasida ba'zi fikr va mulohazalarni keltirish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday fikrlar notiq fikrining to'g'rilingini, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun foydalaniladi, faqat ulardan foydalanishni suiste'mol qilmaslik kerak. Badiiy adabiyot namunalariidan, hikmatli so'zlardan, tildagi ifoda - tasvir vositalaridan nutqda o'rni bilan foydalanish ham ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Nutqning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida o'qituvchining nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, imo-ishoralar, hatto kiyinishi kabi omillarning ham o'rni bor. Samimiylig, xushmuomalalik, odoblilik, o'quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o'quvchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi.

Mukammal notiqlik san'atiga ega bo'lish - o'qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o'tkirligi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o'quvchilarda his-tuyg'u va qiziqish uyg'otishi, uning e'tiborini qaratishi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir.

Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatic jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o'rganilayotgan bilim o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o'qituvchilardan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishslash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridan biri o'qituvchining nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chirolyi va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini egallashdan iborat.

O'qituvchining nutq madaniyatiga ega bo'lishi, to'g'ri nafas olishni ishlab chiqishi eng katta - eng asosiy qiymatdir. Og'zaki nutq mahoratini yuksaltirish, nafaqat hikoya va tushuntirish, balki urg'u berilgan so'z ham pedagogik ta'sir usullaridan yaxshiroq foydalanishga imkon yaratadi.

O'qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo'lishi - o'quv materiallarining o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlash garoqidir. O'quvchilar o'qituvchi nutqiga alohida e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovush noto'g'ri aytilishi kulgiga sababchi bo'ladi. Bir xil ohangdag'i nutq o'quvchilarni tez charchatadi.

Ayrim mutaxassislar tovush va uning tembri tug'ma xususiyat, deydilar, lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatining o'zgarishi mumkinligini tasdiqlaydi. Nutqning ifodali, sof bo'lishi ustida ishslash fikrlarning ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Nutq imo - ishora, mimika, harakat bilan birga sodir bo'ladi, uzuksiz o'zini tuta bilish ta'sirchan vositalarini tanlashga muvaffaqiyatli ravishda tuzatish kiritib borish imkonini beradi.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir necha mashq komplekslari ishlab chiqilgan. Ular, asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtiradi, bu esa o'qituvchiga o'z so'zi mazmunini o'quvchilarga yanadi to'laqonli qilib yetkazishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika. Toshkent 2017-yil
2. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2005-yil
3. Abdaliyeva P. Pedagogika nazariyasi va tarixi fanidan ma'ruza matni. Nukus 2014-yil



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKSIS ELEMENTLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI

*Qahhorova Aziza G‘afforovna
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani
4-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
(+998919217608)*

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ona tili darslarida bir qator sintaktik va morfologik elementlar bilan tanishadilar. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan sintaktik material kam bo‘lsa ham, ular butun o‘quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

Kalit so‘zlar: Gap, yozma nutq, orfografiya, sintaksis, fonetika, leksika, so‘z gap, gap qurilishi.

Farzandlarimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon ham-jamiyatidagi obro-e tibori avvalambor farzandlarimizning salohiyatiga bog‘liqdir. Biz unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishga bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov

Boshlang‘ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o‘rganiladigan va nazariy o‘rganiladigan bilimlarga bo‘linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o‘rganish savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang‘ich sinfda “Gap”, “Darak gap”, “So‘roq gap”, “Buyruq gap”, “His-hayajon gap”, “Sodda gap”, “Gap bo‘laklari”, “Gapning uyushiq bo‘laklari”, “Undalmali gaplar” mavzulari nazariy o‘rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi.

Metodist olima T.G.Ramzayeva boshlang‘ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo‘nalishga bo‘ladi.

1. Gap haqidagi Grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo‘lgan gapning muhim belgilarini o‘rgatish).

2. Gap qurilishini o‘rgatish(so‘z birikmasida so‘zlarning bog‘lanishinustida ishslash, gapning gramatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning xususiyatlari,yoyiq va yig‘iq gaplar ustida ishslash).

3. O‘quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko‘ra turlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so‘zlarni aniq qo‘llash ko‘nikmasini o‘stirish.

5. Yozma nutqda gapni to‘g‘ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo‘yish) ko‘nikmasini shakllantirish.

“Gap” mavzusi Barcha sinflarda o‘rganiladi. Gapning belgilari haqidagilibimlar chuqurlashtirilib boriladi. O‘quvchilar fikr ifodalovchinutq birligi-gap haqidagi elementlar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gapda so‘zlarning bog‘lanishi, gapning uyushiq bo‘laklarini o‘rganishga o‘tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang‘ich bosqichi savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilar gapning muhim xususiyatlari(fikr ifodalashi,tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar.

Boshlang‘ich sinflarning 4-sinfida gapning uyushiq bo‘laklarini o‘rganish bilan gap bo‘laklari haqidagi bilim kengaytiriladi.

Xulosa:

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham bosqichma-bosqich sintaktik elementlar bilan tanishib boradilar. Buning uchun ular faqatgina bir mavzu bilan chegaralanib qolmay, balki har bir dars davomida, mashqlarni bajarish jarayonida tushunchalarga ega bolib boraveradilar.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov va boshqalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” Tosh 2009
2. Internet ma’lumotlari .
3. “Mana buyuklar” kanali



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Qaxxorova Mavluda Sattorboevna
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman
22-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

Annotatsiya: ushu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yosh bolalar, psixologiya, maktab, odob, tarbiya, dars.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgan, siyosiy, iqtisodiy, manaviy-marifiy sohalarda juda katta o'zgarishlar, yangilanishlar yuz byerdi. Istiqlol tufayli rivojlanib borayotgan ryespublikamiz psixologiya fani oldida ham qilinishi lozim bo'lgan bir qancha muhim vazifa va muammolar paydo bo'ldi. Ana shulardan biri o'sib borayotgan yosh avlodni faol ijtimoiy shaxslar qilib tarbiyalash, boshqaruv idoralari, xalq xo'jaligi, talim va madaniyatning barcha sohalari uchun yyetuk, manaviy jihatdan barkamol mutaxassilar tayyorlash, boshqaruv, xalq millat taqdiri hamda istiqbolini byelgilash kabi muammolarni yyechishning amaliy yo'llari va ilmiy asoslarini yaratishda buyuk ajdodlarimiz, sharq mutafakkirlari, pedagog va psixologlarning ijodiy faoliyatlarini chuqur o'rganib, ular ilgari surgan pyedagogik-psixologik tadqiqotlarni ijtimoiy-siyosiy qadriyatlар mohiyati, mazmuni, ta'limotlarini ijtimoiy turmushga tadbiq yetish vazifasini kiritish mumkin.

Yosh inson ongi moslashuvchan, ko'nikuvchan, ta'sirchan, ko'plab axborotni o'zlashtrish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu davrda siyosiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi xamda egallanadi, kasbiy qiziqishlar yuzaga keladi, o'zligini anglash rivoj topadi, yangi turmush tarzi shakllanadi, uning xulq-atvor uslubi, jamiyatdagi holati o'zgaradi. Shu bilan birga, ilk yoshlikning dastlabki bosqichlarida o'smirlilik davriga xos bo'lgan ayrim odatlar hamda xatti-harakatlar amal qilishda davom etadi. O'tmisning bu tajribasini yetarlicha baholamaslik va hayot yoshlikdan boshlanadi, deb xisoblash noto'g'ri.

Ilk yoshlikda turli-tuman qiziqishlar ko'p bo'ladi. Bu davrda ta'lim qiziqishlar doirasini kengaytiradi, professional faoliyat esa uni hali toraytirmagan bo'ladi. Tanqidiy fikrlash, hodisani o'zicha baholash, mavqyeni dalilisbotlar bilan asoslashni talab qilish, hyech bir narsani e'tiqod sifatida qabul qilmaslik, masalani muammo sifatida qo'yishga qiziqish, original yechimni izlash rivoj topadi. Yoshlar muhitida ko'pincha turli mavzudagi munozaralar ochilib ketadi, tor amaliy muammolargina emas, balki hayot mazmuni, erkinlik va mas'uliyat, baxt va burch bilan bog'liq masalalar xam muhokama etiladi. Shunday ekan, bu davrni «muboxasalar davri», deb atash mumkin. Eksperimental psixologiya soxasidagi ayrim tadqiqotchilar bu jarayonda «fikrlashning falsafiy usuli xususiyatlarini shakllantirish uchun shartsharoit sifatida qaralishi mumkin bo'lgan «oldindan kura bilish, ziddiyatlari vaziyatlarning yechimini topish qobiliyati, narsa va hodisalarning muhim jihatlarini ajrata bilish mahorati, masalalarni hal etishda odatdan tashqari ish qilish qobiliyati», ya'ni fikrlashning moslashuvchanligi, harakatchanligi, ziddiyatli, muammoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, ularni hal qila olish qobiliyati» mavjudligini ta'kidlashadi. Yoshlar psixologiyasi va ongingin bu xususiyatlarini yoshlar ongini rivojlantirishga rahbarlik qilish bo'yicha ilmiy faoliyatda ham, amaliy faoliyatda ham hisobga olish darkor. Shu bilan birga, yoshlar e'tiqodining yetarlicha barqaror emasligi, ziddiyatli axborotdan foydalanish, hayotiy tajribaning kamligi o'ta negativizm, nigelizm, nufuzli narsalarga bepisandlik bilan qarash, boshqalar fikriga toqatsizlik, qatiylik, talabchanlikning oshirib yuborilishi yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shaxsning qaror topishida muhit, tengqurlar doirasi, ularning qiziqishlari, manfaatlari katta rol o'ynaydi. Yoshlikda o'rtoqlik, do'stlik, ishq-muhabbat alohida ahamiyat kasb etadi, ko'plab har xil kechinmalarni yuzaga keltiradi, tuyg'ular olamini o'zgartiradi, shaxsning o'zligini anglashi shakllanishi jarayonini o'zgartiradi. Boshqalarning ichki dunyosiga qiziqish, kishilarni tushunishga intilish, o'zini boshqarish, o'zini nazorat qilish, o'z xattixarakatini baqolash qobiliyati quchayadi. Uy muhitidan birmuncha mustaqil bo'lish, avvalgi qiziqishlarning va xulq-atvor shakllarining so'nishi, o'zgacha, o'z hayot sohasiga, tengdoshlarning yoshlarcha qiziqishlari muhitiga o'tish namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining ixtiyoriy barqaror, mustaxkam, kuchli, to'planuvchan, taqsimlanuvchan, faol, ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart sharoit



yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish, misol va masalalar echish, mashqlarni bajarish takrorlash irodaviy zo'r berishda ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Shuningdek, uning eng zo'r xususiyatlari takomillashadi bu esa ongli boshqarish imkoniyatini beradi. Bolalarning diqqati o'qish faoliyatiga doim maqsadga muvofiq, ishtimoiy motivlar hamda ularda paydo bo'layotgan yangi xislari (ma'suliyatilik, javobgarlik, uyalish xislari) bilan bir paytda rivojlanadi.

Hozirgi kunda yoshlarda umuman dunyoqarashni shallantirish emas, balki uni milliy manfaatlarni tarixiy ong bilan, tarixiy xotira bilan, milliy ong vositasida anglash bilan chuqurroq bog'lash zaruriyati kuchayib bormoqda. Mustaqil davlatimizning siyosiy, ijtimoiy, ijtimoiy, g'oyaviy mafkuraviy asoslari mustahkamlanib borayotgan hozirgi sharoitda bu ishning ahamiyati kattadir. Har bir fuqaroga barcha masalalarga mamlakat, millat manfaatlari nuktai nazaridan yondashishni o'rgatish kerak. Bu ishlar o'kuv yurtlarida, umuman barcha yoshlар o'rtasida olib borilayotgan ta'limgartibiyat ishlari tizimida katta o'rin olishi lozim. Zero, mustaqillik sharoitida tarbiya va ta'lim o'zining milliy jihatlarini yanada kengroq namoyon etmoqda. Ma'naviyat va axloqiylikni aholining, shu jumladan, yoshlarning ijtimoiy psixologiyasini yanada rivojlantirish hamda kamol toptirish ruxida tiklash davlatimiz siyosatining muxim yo'nalihidir. Xalqdarning ma'naviy merosiga avaylab munosabatda bo'lish, nodir tarixiy yodgorliklarni saqdab qolish hamda ta'mirlash, O'zbekiston xalqlari tomonidan yaratilgan, uning milliy boyligi bo'lgan san'at asarlarini izlab topish va mamlakatga qaytarish, qadimgi va hozirgi madaniy qadriyatlarni bilih hamda avaylab asrash, ko'paytirish, milliy madaniyat hamda xalkning o'ziga xosligining ifodachisi bo'lgan o'zbek tilini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasining chinakam mustaqilligi hamda ravnaqini ta'minlashga, butun xalqimiz va jamiyatimizning har bir a'zosi farovonligiga karatilgan siyosatning tarkibiy qismlaridir.

Yosh bolalar psixologiyasini o'rganishda va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan birgalikda maktab psixologi ham ish olib borishi darkor. Shundagina bolalar tarbiyasida ijobiy yuksalish namoyon bo'ladi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati

1. Ye.G'oziyyev "Tafakkur psixologiyasi" Toshkyent 1990 yil
2. M.B.Xolikov, D.Z.Matchanova, N.K.Daminova "Temperament xususiyatlari va uning bolalarda zohir bo'lishi". Samarqand – 1999 y/
3. Z. T. Nishanova "Eksperimental psixologiya". Toshkent – 2006y.



GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*Qosimova Dilfuza No'monjonovna
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
33-maktab geografiya fani o'qituvchisi
Numonjonovna33@gmail.com*

Annotatsiya: ushu tezisda maktabda maktabda geografiya darslarida o'quvchilarga kompetensiyaviy ta'lif berish yordamida ularda ekologik madaniyatni shakllantirish va ularni global va mintaqaviy ekologik muammolar bilan tanishtirish ustida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: ekologik muammo, ekologik madaniyat, global issish, Orol muammosi, parnik effekti, iqlim o'zgarishlari, cho'llashish hodisasi ichimlik suvi muammosi

Bugungi kunda butun yer sayyorasida global muammolar qatoriga ekologik muammolar ham keng miqyosda o'rinn tutadi. Jumladan butun yer sayyorasida global issish sezilarli darajada ortib bormoqda buni natijasida arktika va grelandiya muzliklari erib qator tabiiy ofatlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolar bizning yurtimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy. Bizning mintaqamizda eng kata muammo orol dengizining qurishi, buning natijasida atrof muhitga tuz shamollarining uchishi oqibatida ekologiyamiz va hayvonot dunyuosiga yomon ta'sir qilmoqda. Bundan tashqari orolbo'yini aholisining salomatligida ham jiddiy o'zgarishlar hosil qilmoqda. Bu muammolarning yechimlari uchun turli ishlar qilinmoqda, lekin kelajakda shunday muammolar yuz berishini oldini olish uchun aholida ekologik madaniyatni shakllantirish muhim o'rinn tutadi. Bu ishni bog'cha maktab va o'quv yurlarida bosqichma-bosqich amalga oshirish yaxshi samara beradi. Jumladan maktablarda geografiya darslarida o'quvchilarga kompetensiyaviy ta'lif berish jarayonida ekologik madaniyatlarini oshirish muhim. Pedagogic tajribamiz davomida bu ishni geografiya darslarida mavzularni o'qish jarayonida amalga oshirish usullarini qo'lladik. Sinflarda ajratilgan vaqt ichida bu ishni amalga oshirish mumkun. Masalan: geografiya darslarida Qoraqalpog'iston mavzusini o'tish jarayonida o'quvchilarga orol muammosi, haqida so'z yuritib ularda quyidagi muammoga yechim sifatida ma'lumotlarni berib ketish mumkun:

1. Ichimlik suvini isrof qilmaslik. Buning uchun turli roliklar yordamida o'tilsa ularda yaxshi natija ko'rsatadi. Biz darslar davomida quyidagi masalani qo'yamiz va o'quvchilar o'zlarini mustaqil ravishda bu masalani matematik usullar yordamida ishlab kichik harakatlari orqali atrof muhitga qanday yordam berish mumkubnligini his qiladilar. Masala sharti quyidagicha: *nosoz suv jo'mragidan har sukundda 1 gram ichimlik suvi tomchilab oqib ketmoqda. Shu jo'mrakdan bir sutkada qancha ichimlik suvi isrof bo'ladi? Agar hududingizda shunday jo'mraklar soni mingta bo'lsa bir sutkada qancha ichimlik suvi isrof bo'ladi? Bir oyda bu jo'mrakdan qancha suv isrof bo'ladi?* Bu masalani hal qilingandan so'nga asosiy savolga o'tamiz? Agar har bir o'quvchi o'sha mingta jo'mrakni berkitib qo'ysa bir sutkada qancha suv tejaladi?

2. Atrof muhitda yashil zona yaratish. Bu ham ekologik muammolarning asosiy yechimlaridan biri hisoblanadi. Bir tup daraxt bir yil davomida o'rtacha 118 kg kislород ishlab chiqaradi. Bu ish atrofdagi karbonat angidrid gazini yutish hisobiga sodir bo'ladi. O'quvchilarga quyidagi masala beriladi *sinfdafti har bir o'quvchi 10 tupdan daraxt ko'chati eksa ular kata bo'lib yiliga qancha kislород ishlab chiqaradi?*

Atrof muhitning ifloslanishi. Bu muammo deyarli barcha rivojlangan davlatlarda uchraydi. Bu muammoning asl ildiz fuqarolarda ekologik madaniyatning shakllanmaganligi va chiqindilarning qayta ishlash sohasi rivojlanmaganligi tufayli sodir bo'ladi. Bu muammolardan qutilish uchun o'quvchilarga geografiya darslarida yirik shaxarlar va davlatlarga oid mavzularda va iqtisodiy geografiya darslarida o'rgatish muhim hisoblanadi. Bunda o'quvchilarga atrof muhitga yaxshimunosabatda bo'lish va chiqindilarni belgilangan joylarga tashlash orqali ekologiyaga qanday foyda keltirish mumkunligi uqtiriliadi. Qo'shimcha ravishda internet tarmog'idan bu sohaga oid videoroliklarni topib ko'rsatish orqali maqsadga erishish mumkun. Bundan tashqari



TED.com portal orqali o‘quvchilarga kuchli olimlarning bu sohadagi ma’ruzalarini topib namoyish qilish orqali yaxshi natijaga erishish va ularda ekologik madaniyatni yuksaltirish mumkun.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Последнее предупреждение Матушки-Земли о грядущей экологической катастрофе
Андрей Симонов

2. Экологические основы природопользования Ольга Саенко
3. Экономическая безопасность государства в условиях глобализации.
4. geografiya fanini o‘qitish metodikasi. Namdu ma’ruzalar matni 2017
5. mакtabda geografiaya fanini o‘qitish metodikasi. 2019-yil sonlari



**O'ZBEKISTONDA TABIATNI MUHOFAZA QILISHDAGI TUTGAN O'RNI BU
BO'YICHA QILINGAN ISHLAR VA UNI JAHON HAMJAMIYATIDA E'TIROF
E'TILISHI.**

Qurbanova Gavhar Botirovna

*Toshkent shahar Yunusobod tumani 70 – sonli umumiy
o'rta ta'llim mактабининг Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Telefon: +998 97 766 19 29

Annotatsiya: Quyida berilgan ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda tabiatni muhoza qilishdagi tutgan o'rni bu bo'yicha qilingan ishlar va uni jahon hamjamiyatida e'tirof e'tilishidagi o'zaro bog'liqligi bo'yicha qisqacha ma'lumot berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Orol, Orolbo'yi, BMT, YUNEP, "Yashil iqtisodiyot", Atmosfera, Trast fond.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 25-avgustda o'tkazilgan "Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari majlisida"gi nutqilarini quyidagi so'zlarni aytib o'tgan edilar, shu o'rinda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Global ekologik fond va boshqa hamkor tashkilotlar, donor davlatlar ko'magida O'zbekistonda Orolbo'yidagi ekologik inqiroz oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar haqida qisqacha to'xtalib o'tish zarur, deb o'ylayman. So'nggi bir necha yil davomida O'zbekiston Orolbo'yi hududida bir qator keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirdi. Orolning qurib qolgan hududida saksovul va boshqa sho'rhoklikka chidamli o'simliklardan iborat 350 ming gektarlik butazorlar barpo etildi. Bunday hududlarning umumiyy maydoni hozirgi kunda 700 ming gektarni tashkil etmoqda. Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish va Orolbo'yi hududini rivojlantirish bo'yicha 2013-2017 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida 500 tadan ortiq loyiha amalga oshirildi. Ularning yarmidan ko'pi milliy loyihalardir. 2018-2021 yillarda Orolbo'yi hududini rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturi qabul qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trast fondini tashkil etish borasidagi tashabbusni ilgari surdi va bu BMT tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Bizning fikrimizcha, BMT shafeligida ish olib boradigan Trast fond faoliyati va turkman do'stlarimiz taklifi asosida bugun tasdiqlanadigan Orol dengizi havzasi uchun BMT maxsus Dasturining amalga oshirilishi bir-birini to'ldiradi. Hurmatli do'star! Shu yilning iyun oyida Toshkent shahrida Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferensiyaning asosiy xulosa va tavsiyalarini hisobga olgan holda, bizning nazarimizda, o'zaro hamkorlik borasida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi yo'naliishlarni alohida ta'kidlamoqchiman. Birinchi. Ishonchim komilki, mintaqamizda noqulay ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash uchun qat'iy va nostandard chora-tadbirlar zarur. Shu munosabat bilan Orolbo'yi hududini Ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasini, deb e'lon qilish masalasini ko'rib chiqishni taklif etaman. Bu tashabbus bizning umumiyy kuchimizni quyidagi maqsadlar bo'yicha birlashtirishga yo'naltirilgan: ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun sharoit yaratish; "yashil iqtisodiyot", ekologik toza, energiya va suv tejaydigan texnologiyalar tamoyillarini kompleks tatbiq etish; cho'llanish va ekologik migratsiyaning davom etishiga barham berish; ekoturizmni rivojlantirish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish. Ikkinci. Qum ko'chkilarini mustahkamlash, Orolning qurigan qismidan havoga zaharli aerozol changlari ko'tarilishini kamaytirish masalalari bizning e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur. Shu maqsadda cho'l sharoitiga chidamli va ozuqa o'simliklari ko'chatlarini yetishtirish bo'yicha Mintaqaviy markaz tashkil qilishni taklif etamiz. Uchinchi. Mintaqamizning noyob hayvonot dunyosini saqlash masalasi. Bu masalada ham umummintaqaviy yondashuv zarur. Orolbo'yi zonasida muhofaza qilinadigan transchegaraviy tabiiy hududlar tashkil etishni taklif qilamiz. Yo'qolib borayotgan hayvonlar, jumladan, qoplon,qulon, sayg'oq va boshqa noyob jonivorlarni saqlab qolish uchun qo'limizdan keladigan barcha ishlarni o'zaro kelishib amalga oshirishimiz nihoyatda muhim ahamiyatga ega. To'rtinchi. Suvni tejash, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish masalalaridagi mintaqaviy hamkorlik darajasini keskin oshirish lozim. Biz Orol dengizi hududidagi suv resurslaridan foydalanish bo'yicha o'zaro maqbul hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga va O'zbekistonda ushbu



masalaga bag‘ishlangan mintaqaviy konferensiya o‘tkazishga tayyormiz. Beshinchি. Bugungi kunda ilmiy kooperatsiyani samarali rivojlantirmasdan oldimizda turgan muammolar yechimini ta’minlashning iloji yo‘q. Shu munosabat bilan birgalikdagi fanlararo tadqiqotlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. Jumladan, Davlatlararo muvofiqlashtiruvchisuv xo‘jaligi komissiyasi va Davlatlararo barqaror rivojlanish komissiyasining ilmiy-axborot markazlari negizida bunday tadqiqotlar olib borish mumkin deb aytib o‘tgan edilar.

O‘zbekistonda XX asrda, ayniqsa, uning ikkinchi yarmida qishloq xo‘jaligida monokultura tizimining qo‘llanishi, gerbitsid va pestitsidlarning haddan tashqari ko‘p ishlatalishi, mavjud suv zaxiralaridan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida atrofmuhit holatida katta salbiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Orol dengizi deyarli quridi, uning atrofida cho‘llashish kuchayib ketdi, yer osti suvlar sho‘rligi darajasi oshdi. Inson salomatligi uchun zarur sharoit buzildi, kamqonlik, gepatit, zotiljam kabi kasalliklar ko‘paydi. Paxta monokulturasi ta’sirida boshqa hududlarda ham inson hayoti uchun zarur bo‘lgan ekologik vaziyat yomonlashdi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, dastlabki kunlardan boshlab, Tabiatni muhofaza qilishq.ga, respublika hududini ekologik tanazzuldan muhofaza qilishga kirishdi. Tabiatni va uning komponentlarini muhofaza qilish to‘g‘risida bir qancha qonunlar qabul qilindi. Bular “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” (1992-yil 9-dekabr), “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” (1993-yil 6-may), “Yer osti boyliklari to‘g‘risida” (1994-y 23-sentyabr.; 2002-yil 12-dekabrdagi yangi tahrirdagi), “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida” (1996-yil 27-dekabr.), “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” (1997-yil 26-dekabr.), “Davlat kadastrlari to‘g‘risida” (2000 yil 15-dekabr.), “O‘rmon to‘g‘risida” (1999-yil 15-aprelda), “Chiqindilar to‘g‘risida” (2000-yil 5-aprelda)gi qonunlardir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55 va 100-moddalarida Tabiatni muhofaza qilishq.ga oid normalar bayon etilgan. Konstitutsiyaning XI bobi 50-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”, deb ko‘rsatilgan. 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummiliy boylikdir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, deyilgan. Mamlakatimizda “Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi” tashkil qilingan (1996 yil 26-aprelda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat ko‘rsatadi).

O‘zbekiston Tabiatni muhofaza qilishq sohasida bir qancha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va dasturlarda, jumladan, BMTning atrofmuhit bo‘yicha dasturi (YUNEP)da ishtiroy etadi. YUNEP va ayrim rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda Biologik xilmaxillikni saklashning milliy strategiyasi va 10 dan ortiq milliy ekologik qonunlar ishlab chikildi. 1993-yil. mart oyida Qozog‘istonning Qizilo‘rda shahrida O‘rta Osiyodagi 5 davlatning Oliy darajadagi uchrashuvida Orol dengizi muammolari bo‘yicha Davlatlararo kengash va uning ijroiya qo‘mitasi hamda Orolni qutqarish xalqaro fondi tashkil etildi. Uning vazifasi Orol dengizi, uning sog‘lom ekologik sharoitini tiklash, mazkur regionni toza ichimlik suvi bilan ta’minalash, hudud sanitariyagigiyena muxitini yaxshilashdir. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak biz tabiatni asrashimiz kerak umuman olganda biz tabiatni asramas ekanmiz, tabiat ham insoniyatni, nafaqat insoniyatni balki butun-bir borliqni asray olmaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Akramov 3. M., Rafikov A.A., Proshloye, nastoyasheyе i budusheye Aralskogo morya, T.,
2. Rafikov A.A., Geoekologik muammolar, T., 1997;
3. To‘xtayev L., Hamidov A., Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish, T., 1994;
4. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan>



БЕСЕДА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Rahimova Laylo Pirnazarovna
Учительница русского языка в школе
№ 11 города Ургенча
+998 919967162

Аннотация: Эта статья о методике ведения разговора на уроках русского языка, в которой анализируется, каким будет разговор в разговоре учителя и ученика.

Ключевые слова: беседа, методика, урок, процесс, учитель, ученик

Беседа - это один из эффективнейших методов объяснения нового материала на уроке. Однако опыт показывает, что само по себе использование беседы не обеспечивает активного участия всего класса в изучении нового материала, если учителем не соблюдаются те дидактические требования, которые позволяют сделать этот метод предельно результативным.

Известно, что в школьной практике в настоящее время этот метод занимает довольно значительное место в структуре уроков разных типов. По степени активности учащихся в учебном процессе беседа, безусловно, занимает одно из ведущих мест. Основанная на индуктивном пути познания, она позволяет включать в активную работу всех учащихся класса на различных этапах урока. Однако на уроках русского языка приходится часто наблюдать серьезные ошибки, связанные с неправильным использованием этого метода. Они выражаются прежде всего в нарушении дидактических требований к постановке и формулированию вопросов. Последние нередко не требуют серьезного напряжения умственных сил учащихся, а лишь механического воспроизведения имеющихся у них знаний. В таких случаях приходится отмечать лишь внешнюю активность. Внешняя активность, не поддерживаемая внутренней мыслительной работой, только задерживает познавательный процесс. Часто бывает так, что учитель дает слишком много мелких вопросов или кратчайших заданий, не добиваясь при этом выводов и обобщений. В этой связи уместно привести высказывание К. Д. Ушинского о том, что «умение давать вопросы и постоянно усиливать сложность и трудность ответов есть одна из главных и необходимейших педагогических привычек». Лучше поставить один вопрос, но ясный, посильный, возбуждающий активность, чем двадцати вопроса, неясных и трудных или слишком легких, парализующих самостоятельное мышление учащихся. Беседу целесообразно использовать при объяснении трудных случаев учебного материала и особенно там, где необходимы наблюдения учащихся. Для большей эффективности этого метода и рационального использования времени на уроке учитель должен соблюдать следующие условия: 1) примеры для наблюдений по возможности записываются на доске заранее; 2) они должны быть достаточно лаконичными и насыщенными изучаемым материалом; 3) оформление записи должно быть предельно наглядным, ярким; 4) с целью экономии времени вопросы следует формулировать кратко и ясно, четко и конкретно. Они должны направлять беседу в нужное русло, предупреждать отклонение от темы, вызывать активную мыслительную деятельность учащихся. Например, при объяснении слитного и раздельного написания частицы не с причастием в словосочетаниях незамеченная ошибка и не замеченная учеником ошибка можно так организовать беседу: а) найдите определяемое слово в обоих случаях; б) укажите, в каком из них имеется пояснительное слово; в) сделайте вывод о правописании не с причастием в первом и втором случаях. Метод беседы при правильном его использовании имеет некоторые преимущества: он способствует развитию логического мышления учащихся, приучает их делать самостоятельные выводы. При объяснении с использованием метода беседы учитель путем хорошо подобранных вопросов и заданий руководит мышлением учащихся. Беседа с учителем отличается от слова учителя тем, что она предполагает не монолог учителя, а диалог учителя и учеников, строящийся обычно в форме вопросов и ответов. Различают два типа бесед, которые используют на этапе объяснения нового.

1. Сообщающая беседа характеризуется тем, что учитель излагает новый материал, который учащиеся способны проиллюстрировать примерами из уже изученного материала



или опираясь на собственное владение языком. Так, например, сообщающая беседа может быть широко применена при изучении синонимов или антонимов, поскольку учащихся можно активно привлекать к подбору примеров.

2. Эвристическая беседа состоит в том, что учитель в определенной последовательности задает вопросы, ответы на которые приводят учащихся к самостоятельным выводам и формулировкам. При подготовке вопросов к беседе учитель должен руководствоваться следующими принципами: вопрос должен быть четко сформулированным, не допускающим двоякого толкования и нескольких возможных правильных ответов, не подсказывающим ответа своей формулировкой, не предполагающим односложного ответа (да или нет).

После того как новый материал объяснен, учитель должен убедиться, что дети правильно поняли материал. Поэтому следующим этапом урока является проверка качества первичного усвоения нового. Например, после объяснения правописания слов с Ъ целесообразно задать вопросы: 1) После какой части слова пишется Ъ? 2) На какую букву заканчиваются приставки, после которых может писаться Ъ? 3) Какой звук слышится после согласного звука в словах с Ъ? 4) Перед какими буквами может писаться Ъ? Иногда в качестве метода проверки используется пересказ речи учителя.

Список литературы:

1. Акишина А.А., Каган Д.Е. Учимся учить. Что надо знать о преподавании русского языка.— М, 1986.
2. Аксенова М.П. Русский язык по-новому. Ч. 1, 2, 3.— СПб., 1999



BOSHLANG'ICH SINF DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA "AQLIY HUJUM" METODINING O'RNI

*Sadikova Zulkumor Nosirovna
Namangan viloyat Namangan shahar
31-umumiyl o'rta ta'lif maktabi
Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi
Tel: 913639611*

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinfda o'qitish sifatini oshirishdagi zamonaviy pedagogik metodlarning biri bo'lgan "Aqliy hujum" metodining ta'limdagi ahamiyati hamda o'quvchilarning bilim olishini oshirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Aqliy hujum", rasmiylashtirish, makrosaralash, bir varaq - bitta g'oya - bitta so'z (ibora).

Zamonaviy ta'limi tashkil etish davr talabi demakdir. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot kommunikatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta'lif tizimi xodimlaridan ta'lif-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etib, har bir tizim xodimi, ayniqsa, o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Dars samaradorligini oshirish, darslarni qiziqarli o'tishini ta'minlash maqsadida darslarni turli interfaol usullar orqali tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunning eng samarali deb hisoblangan metodlardan bir "Aqliy hujum"dir. Ushbu metoddha biror muammoni yechishda guruhi qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi. U to'g'ri va ijodiy qo'llanilganda o'quvchilarning erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo'llari izlanadi. Bu usul guruhning har bir a'zosi fikrini tezda yig'ish va umumlashtirish imkonini beradi. "Aqliy hujum"ni, o'quvchilar muammo haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan hollarda ham qo'llash mumkin. Bu kutilmagan, oddiy shiroitda aqlga kelmaydigan antiqa yechimlar topish imkonini beradi.

"Aqliy hujum" usulidan foydalanilganda, odatda mashg'ulot ikki bosqichdan iborat bo'ladi: birinchi bosqich - taklif bosqichi ("aqliy hujum"ning o'zi) va ikkinchi bosqich - tahlil hamda yechimlarni saralash bosqichi. Bosqichlar o'rtasida kichik tanaffus berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu medotning ahamiyatliligi shundaki, dars jarayonida o'quvchilar faqat tinglovchigina emas, balki, darsning faol ishtirokchilariga aylanadi. Ushbu metodni boshlang'ich sinflarda qo'llash ham ijobjiy samara beradi. Bu orqali o'quvchining fikrlash doirasi kengayib, voqealarni hodisalarga o'zining ijobjiy munosabatini bildira oladigan darajaga yetadi.

Metodistlar tomonidan «Aqliy hujum»ning birinchi bosqichini o'tkazishga oid tavsiyalar berilgan bo'lib, ular quyidagilar:

Muammoning aniq va ravshan qo'yish lozim!

"Aqliy hujum" o'tkazish uchun asos bo'lgan muammoning qisqacha mohiyatini katta qog'ozga (yoki doskaga, o'quv taxtasiga) katta harflar bilan yozib, hammaga yaxshi ko'rindigan joyga osib qo'ygan ma'qul.

"Aqliy hujum" - bitta muammo! - har bir "Aqliy hujum" faqatgina bitta muammoni hal etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shartlashuv – "Aqliy hujum"ni o'tkazish tartibi va shartlari ishtirokchilarning har biri uchun aniq - ravshan, tushunarli bo'lishi kerak. Shartlar asosida mashg'ulotni o'tkazish tartib - qoidalari tuziladi va qisqa ifodalangan qoidalarni hammaga ko'rindigan joyga yozib qo'yish lozim.

Demokratiya – "Aqliy hujum"ga hamma teng huquqli ishtirok etadi. "Aqliy hujum" vaqtida bemalel, erkin ravishda muloqotni ta'minlash uchun ishtirokchilarni davra shaklida joylashtirish tavsiya etiladi.

Bemalel, istalgan takliflarni taklif qilish va tanqid qilmaslik – "Aqliy hujum"ning birinchi bosqichida birorta ham taklif muhokama etilmaydi va tanqid qilinmaydi. Kutilmagan g'oyalari taklif etish qo'llab - quvvatlanadi. Bu usul yordamida muammo yechimiga oid yetarli darajada ma'lumot to'planadi. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa, shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirishga imkoniyat beriladi.



Biror bir g‘oyani taklif etgan kishi o‘z yechimini asoslamasligi va o‘zi ham o‘zgalar fikrini muhokama qilmasligi lozim. Chunki, bu holat boshqa g‘oyalar tug‘ilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Rasmiylashtirish - har bir fikr, taklif va g‘oyalar yozib borilishi lozim. O‘qituvchi birinchi bosqich davomida bildirilgan g‘oyalarni yozib boruvchi kotibni belgilashi lozim. Qoidalarni doskaga yozib borish lozim. Vaqtini tejash hamda o‘z fikrini bemalol bayon etish uchun ishtirokchilarga o‘z g‘oyalarni qog‘ozga yozib, sinf doskasiga yopishtirib qo‘yishni ham tavsiya etish mumkin. Bunda quyidagi tartibga amal qilish lozim: bir varaq - bitta g‘oya - bitta so‘z (ibora).

“Aqliy hujum” ning birinchi bosqichi o‘quvchi uchun kuchli his - hayajon bilan o‘tganligi uchun o‘qituvchi o‘quvchilarining bir - bri bilan maslahatlashishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Ikkinchisi bosqichi esa muhokama bosqichi bo‘lib, mavzuning muhokamasi bo‘lganligi uchun o‘quvchilar bahs – munozaralarda ishtirok etadilar. Bu bosqichda o‘quvchilar guruhlarga ajratilishi maqsadga muvofiq. Takrorlangan fikrlar birlashtiriladi, eng asosiy 3 - 4 ta g‘oyalar saralanadi (makrosaralash). So‘ngra, tanlab olingan asosiy g‘oyalardan eng maqbullari yana saralanadi. (mikrosaralash). Mikrosaralash davomida ajratib olingan qarorlarning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va cheklangan tomonlariga baho berib chiqish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
3. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil



MAKTABDA ONA TILI DARSLARIDA IMLO QOIDALARINI O'QITISH METODIKALARI

Sharipova Shoira
Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani
58-maktab o'qituvchisi
+998942761407
Murodxo'jayeva Shaxlo
Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani
14-maktab o'qituvchisi
Shakhlo_school14@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda imlo qoidalarining eng muammoli va o'quvchilarga qiyinchilik tu'g'diruvchi bo'limlarini o'qitish metodikalari haqida so'z yuritamiz. Ushbu qismlarni qanday holatda o'qitsa yaxshi samara berishi usullarini ko'rib chiqamiz

Kalit so'zlar: asos va qo'shimchalar imlosi, qo'shib yozish imlosi, undoshlar imlosi, ajratib yozish imlosi...

Bugungi kunda maktab o'quvchilariga ona tili darslarida imlo qoidalarini o'rgatish biroz muammoli vaziyatlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar, o'quvchilar tomonidan yozilgan diktant, insho va bayonlarda imlo hatolari keng uchramoqda bu imlo qoidalarini o'qitishdagi usullar tufayli deyish mumkun. Biz ko'p yillik tajribalarimizdan kelib chiqib ularni alohida-alohida holatda o'qitishni samarali deb hisoblaymiz. Buning uchun pedagoglar o'z namunaviy ish rejalaridan kelib chiqib yil davomida o'qitishlari mumkun bo'ladi. Ayrim undoshlarning imlosi bilan tanishib chiqaylik: **Tutuq belgisi** (*) quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ayirish belgisi (*) o'mnida ishlataladi: unlilardan keyin ularning cho'ziqroq talaffuz qilishinini ifodalasa, undoshlardan keyin kelganida ularning oldingi tovushlardan ajratibaytilishini ko'rsatadi: a'lo, me'yor, qat'iy, tal'at (chehra ma'nosida). 2) **s,hharflari** yonma-yon kelganda, ularni **sh** harfiy birikmasidan farqlash uchun ham qo'llanadi: as'hob, Is'hoq. Mo'tabar, mo'jiza kabi so'zlarda **o'** unlisi cho'zib aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi **a** unlisi **o** tarzida, **i** unlisi **u** tarzida, **k** undoshi **g** tarzida, **q** undoshi **g'** tarzida aytildi va shunday yoziladi: sayla - saylov, o'qi - o'quv, ko'ylak - ko'ylagi, o'roq - o'rog'i, yo'q - yo'g'i, yoq - yog'i. Lekin quyidagi so'zlarda o'zgarmaydi: og'ri - og'riq, qavi - qavih, ko'k - ko'ki, ishtirok - ishtiroki, ravnaq - ravnaqi, yuq - yuqi. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z tarkibida tovush tushadi: o'rin - o'rni, ko'ngil - ko'ngli, o'g'il - o'g'li; ayir - ayrim, qayir - qayril, ulug'-ulg'ay, sariq - sarg'ay, ikki - ikkala, olti - oltovlon, men + ni= meni, sen+niki=seniki, men+ning=mening. **U, bu, shu, o'sha** so'zlariga -da, dan, -dagi, -day, -ga, -cha qo'shimchalari qo'shilganda esa, tovush orttiriladi va shunday yoziladi: **unga, bunday, shuncha, undagi**. Parvo, obro', mavhe, mavzu, avzo so'zlariga 1,2-shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda y tovushi qo'shiladi va shunday yoziladi: **parvoyim, obro'yimiz**. 3-shaxs egalik qo'shimchasi parvo, obro', mavhe so'zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga **-si** shaklida qo'shiladi: parvoyi, mavheyi, xudosi. -bon, -boz qo'shimchalari -von, -voz tarzida, -di, -da, -dan qo'shimchalari -ti, -ta, -tan kabi aytilsa ham, -bon, -boz, -di, -da, -dan tarzida yoziladi: masxaraboz, mehribon, ketdi, hishda, Toshkentda, ishdan. Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytildi va yoziladi: -illa (tahilla, shovulla), -dir (yozdir, kuldir, tiktir, uyaltir, keltir), -ga (uyga, yukka), -gach (kelgach, chihhach), -gani (tergani, tekkani, uh-hani), gudek (tekkudek, chihhudek), -guncha (kelguncha, tukkuncha, bohhuncha). Lekin bargga, pedagogga, bug'ga so'zlaridagi qo'shimchalar kiril yozuvida qam, lotin yozuvida ham bir xil, soq, oq, boq so'zlariga qo'shimchalar qo'shilganda kirilda o'zgargan holda (sog'+gan=soqqan, og'+gan=oqqan, bog'+ga =boqqa, tog'+ga=toqqa), lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda o'zgarishsiz (og'gan, sog'ga, bog'ga, tog'ga) yoziladi. Quyidagi so'zlar qo'shib yoziladi: Xona, noma, poya, bop, xush, ham, umum, rang, mijoz, sifat, talab, kam, baxsh, obod kabi qismlar, -(a)r, -mas qo'shimchalari yordamida yasalgan so'zlar, takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan so'zlar (oshxona, taklifnoma, bedapoya, senbop, hamsuhbat, umuminsoniy, jigarrang, sovuqmijoz, maymunsifat, haqtalab, huzurbaxsh, xushfe'l, Yusobod, ertapishar, otboqar, ishyoqmas, pirpirak, hayhayla). Ikkinchi qismi turdosh ot bo'lgan so'zlar: karnaygul,



qo‘ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoh, qirg‘iyko‘z, olaqarha, qizilish-ton, achchiqtosh, mingoyoq, kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo‘ra, nosqovoq, ko‘zoynak, tog‘olcha, cho‘lyalpiz, suvilon, hashhargul, marosim nomlari (kiryuvdi, kelintushdi, qoryog‘di), Rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan hosil qilingan qo‘shma so‘zlar: fotoapparat, kinoteatr, radiiostansiya, elekrotexnika, teleko‘rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti. Qisqartma so‘zlarning barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar: SamDU, O‘zMUNing. Yetakchi fe’li –**a** yoki –y bilan tugagan yoxud ko‘makchi fe’li –**b** bilan boshlangan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari tarkibidagi yetakchi va ko‘makchi fe’llar qo‘shib yoziladi: ayta olmoq – aytolmoq, o‘hiy oldi – o‘hiyoldi, yoza beramiz – yoza-veramiz, keta ber – ketaver.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining imlo lug‘ati.
2. Hamroyev M. A. O‘zbek tilidan ma’ruzalar matni
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.



РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЁХУД ГЕЙМИФИКАЦИЯНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚ ЭТИШ

*Шавқиева Дилфузা Шакарбоевна
Гулистан давлат университети*

Аннотация: Маколада рақамли технологиялар шароитида талабаларга геймификация ёрдамида инглиз тилини ўргатишда турли компьютерли ўйинлар орқали инглиз тилидаги ўкув материали алгоритмлар, жадваллар асосида ва блок-схема шаклида берилиши хақида. Оғзаки тарзда берилган алгоритм табиий тил хусусиятларига кўра сўзлар ва жумлаларнинг баён этилишида табиийинглиз тили ёрдамига таянади. Олий таълим мазмунида инглиз тилидан танланган ўкув материали аудитория ва аудиториядан ташқари машғулотлар унумдорлиги ва ўқитиши самарадорлигини ошириши хақида сўз боради.

Калит сўзлар: алгоритм, жадваллар, геймификация, дидактик тамойиллар, тушунчалик, инглиш, машқлари.

Педагогика олий таълим муассасаларида ўкув фанларини сифатли ўқитиши, таълим жараёнига инновацион ва ахборот технологияларни татбиқ этиши, интеграциялаш имкониятларидан фойдаланиш орқали таҳсил олувчиларнинг интеллектуал салоҳияти, креатив қобилиятларини ўрганиш, таҳлил қилиш, компетенциявий ёндашув асосида касбий соҳаларга йўналтирадиган замонавий методик таъминотнинг сифатини ўрганиш эҳтиёжи сезилмоқда. Шу боис, мутахассисларни замонавий ва истиқболли меҳнат бозори талаблари, инновацион таълим мұхитига, ўқитишининг янги стратегияларига мослаштириш, доимий янгиланиб, ўзгариб, такомиллашиб бораётган таълимий ахборот инфраструктураси базасининг касбий фаолиятга алоқадор параметларини эгаллаш учун ахборотлашган хизматни қуидагича тизим доирасида яратиш ва амалиётга татбиқ этиши зарурати мавжуд:

- яратилган ўкув-услубий таъминотни машғулотларга ўз вақтида етиб боришини таъминлаш;
- маърузачи ўқитувчиларнинг маҳоратини узлуксиз такомиллаштириб бориш;
- фанни ўқитишига доир янги метод ва технологияларни оператив татбиқ этиши;
- курсларда таълим сифати ва самарадорлигини таъминлаш;
- талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларини доимий мониторингини олиб бориш;
- талабалар ва магистрантларнинг билимини жорий, оралиқ ва якуний назоратини ахборот хизмати асосида мониторингини ташкил этиши.

Ўкув материалини ўзлаштиришда компьютер технологияларидан фойдаланиш муаммоларига бағищланган тадқиқотларда (А.М.Матюшкин, И.П.Радченко) ўқитувчилар тайёрлаш жараёнининг маъруза, амалий, лаборатория машғулотларини модернизациялаш масалалари ўрганилган.

Хориж олимлари: Э. Медисон, С. Харт (Америка) ўқитиши жараёнида топшириқли ёндашувлардан фойдаланиш муаммосини тадқиқ қилишган бўлса, Е.К.Болдин, С. С. Ляпин, И. К. Андронов, Р.О. Николаева, И. Я. Багуш, С.П.Новоселов, Н.Ф. Галкин(Россия)лар ўкув материалини ўзлаштиришда босқичли ўқитиши ва аниқ натижани қўлга киритишига асосланган инглиз тили фаолият масалалари устида изланиш олиб борганлар.

Республикамиз олимлари: А. Ф. Расулмуҳамедов, Т. С. Жумаев, К. Р. Рўзимуродов, Ў.Қ. Толипов, Н. Файбуллаев, Р. Х. Джураев, Х. И. Ибрагимовларнинг тадқиқот ишларида таълим тизимини такомиллаштириш масалалари ўз аксини топган. Бироқ, олий таълим тизимида инглиз тилидаги ўкув материалини ўзлаштиришнинг самарали технологиялари тадқиқ этиши масалаларига оид маҳсус изланишлар олиб борилмаганлигини таъкидлаш жоиз.

Фикримизча, олий таълим жараёнида рақамли технологиялар шароитида талабаларга геймификация ёрдамида инглиз тилини ўргатиш қуидаги педагогик вазифалар амалга оширилганда самарали кечади:

- Олий таълим муассасаларининг таълим мазмуни такомиллаштирилиб, янги сифат босқичи тўлиқ таъминланганида;
- талабаларининг тил ўрганиш соҳасидаги индивидуал-психологик хусусиятла-



ри, мушоҳада қилиш даражаси, уларнинг тафаккур ва мотивацион доираси атрофлича ўрганилиб чиқилганда;

- олий таълим учун вариатив инглиз тилини ўқитиш тизимини таъминлайдиган методик мажмуалар яратилганда;

- талабаларнинг инглиз тилидаги ўқув материалини тезкор ўзлаштиришлари учун маҳсус дастур, дарсликлар ва ўқув режалари такомиллаштирилганда;

- талабаларнинг интеллектуал ривожланишлари ва ўз қобилиятлари, мойилликларига мувофиқ ўқув материалларининг тақдимоти оптимал даражада тақдим қилинганда ва ҳ.к.

Таълим - ёш авлодга тўпланган ижтимоий тажриба бойлигини билиш ва амалий фаолиятларини ташкиллаштириш йўли билан жадал узатиш ва улар томонидан ўзлаштириш мақсадига қаратилган маҳсус ижтимоий фаолият сифатида қаралади.

Таълим жараёни-ўқув масалаларинининг мақсадли кетма-кет алмашинуви ва таълимнинг барча элементлари таълим олувчиларнинг ижтимоий тажриба мазмунини ўзлаштириш фаолияти натижасида уларнинг хусусиятларини шакллантиришга йўналтирилган ўзгаришидир.

Таълим мазмуни деганда таълим олувчилар томонидан ўзлаштирилиши лозим бўлган педагогик ишловдан ўтган ижтимоий тажриба асослари тушунилади.

Таълим жараёнида ўқув фаолияти ўзгариб, етакчи фаолият сифатида ўқитишнинг тури сифатида гавдаланади, ўқув фаолияти эса у томонидан бошқарилади, кейинчалик таълим олувчилар ривожланишининг етарлича юқори поғонасида фаолиятнинг икки элементи орасидаги муносабат ўзгаради. Ўқитишнинг кўпгина элементлари ўқув фаолияти билан бирлашиб кетади ва барчаси таълим олувчиларга узатилади, натижада мустақил таълим олиш юзага келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси конун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 22-сон, 241-модда; 2013 й., 23-сон, 300-модда.

2. Ўзбекистон Республикаси конун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 22-сон, 283-модда, 34-сон, 453-модда.

3. Авганов Самардин Саидович. Профессиональная подготовка будущего учителя иностранных языков на основе применения компьютерных технологий для общеобразовательных школ : на материалах английского языка : автореферат дис. ... доктора педагогических наук: 13.00.01 / Авганов Самардин Саидович; [Место защиты: Тадж. гос. пед. ун-т им. Садриддина Айни]. - Душанбе, 2010. - 48 с.: ил.

4. Мукимова Наргис Насимовна. Педагогические условия развития языковой культуры студентов неязыковых факультетов вузов: на материале гуманитарных вузов Республики Таджикистан: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.01 / Мукимова Наргис Насимовна; [Место защиты: Кург.-Тюбин. гос. ун-т им. Носира Хусрава]. - Душанбе, 2010. - 188 с.: ил. РГБ ОД, 61 10-13/162



EFFECTIVE WAYS OF TEACHING ENGLISH FOR YOUNG LEARNERS

*Soloeva Sevara Rahimovna Xorazm viloyati
Yangiariq tumanidagi Mahmud az-Zamaxshariy
nomli 11-son IMIning ingliz tili fani o'qituvchisi
Tel: 998973622112 sevarka21@mail.ru*

Annotation: Due to the fact that the English language is widely spread all over the world this article introduces effective ways of teaching English to young learners. Moreover the article reveals concrete steps and ways of attracting attention of young learners

Key words: interactive methods, encourage, effective way, SEN, classroom management, TPR activities.

Young learners, those attending preschool and kindergarten (between the ages of about 2 and 5), will not have any personal reason for studying English. It is simply another subject, that they have to study at school or their parents have told them they need to learn. At this point in their lives, they may not know or comprehend how important these classes can be. Now I would like to provide some useful ways to teach children at kindergarten. As we know children are eager to sing songs, recite poems and play different games. Children learn naturally when they are having fun. Cards are great way to teach and revise vocabulary and there are many different games which you can play with cards such as Memory, Kim's game, Snap or Happy families.

According to the opinions of Jo Blackmore which have been mentioned in his article which is called "Learn English Kids Team", there are many other types of games you can play with your children to help them for practicing English. For example:

- "Action games – for example Simon says, Charades, What's the time Mr. Wolf?
- Board games – Snakes and ladders, other traditional games
- Word games – e.g. I spy, Hangman
- Online games – you could finish your English time with an online game from Learn English Kids."

Teaching English as a second language at primary schools.

Nowadays English teachers are teaching the subject with the help of several creative and motive modern methods and with different interesting activities and approaches. Almost all English teachers have to conduct their lessons using various interactive methods and learning skills. Firstly, while teaching English teachers should create English atmosphere, be attentive to their classroom management, and pupils 'participation

The lesson should be planned according to the following criteria:

- The methodology used in teaching English should be made appropriate for children with SEN;
- The teaching material should be catchy and attractive;
- The teacher should plan extra working time with the child;
- The curriculum should be adapted for children with SEN (namely, the pressure to cover the entire curriculum should be excluded and the focus should be on developing a few skills);
- The teacher along with the inclusive education specialist should draw up an individual study plan for children with SEN. The English lesson should be very interactive. Emphasis must be placed on singing, playing, dancing, and drawing. The atmosphere should be pleasant as children feel uncomfortable working under pressure, in stressful situations or in a boring activity.

As it has mentioned above physical movement along with games plays an important role in effective ways of teaching English for young children. Because through the physical movement the condition of children's body and brain is improved. Now, I would like to introduce Dr. Richards's methods and techniques to you. David Chacha, who is from Tanzania, has asked from Dr. Richards if he could suggest some methods and techniques for young learners in his article which is called "***Methods and Techniques for young children***". So he has advised various methods. Now I submit several ones of them:

1. Build teaching around activities and physical movement

Link language learning to physical activities by having children use and hear English for making things, drawing pictures, completing puzzles, labeling pictures, matching words and



pictures, playing games, acting out movements in response to instructions and other activities that involve hands, eyes and ears. Teachers often make use of TPR activities (activities based on linking language with actions, drawing on the method known as total physical response). Many listening activities for young children use this principle, such as activities in which children listen and respond to commands (e.g. ‘sit down’, ‘turn around’, ‘touch your nose’), listen and choose a picture, listen and draw a picture or listen and number a sequence of actions in a picture. Similarly, speaking activities with young learners may involve use of songs, dialogues, chants and fixed expressions that students can practice in different situations.

2. Build lessons around linked activities.

Since young learners have limited attention spans, it is important to include several short activities in a lesson and to move quickly from one activity to another. Activities of five to ten minutes in length are most successful. A balance between the following kinds of activities is often useful:

- Quiet/noisy activities.
- Different skills: listening, talking, reading, writing.
- Individual work / pair work / group work/ whole-class activities.
- Teacher–pupil/ pupil–pupil activities.

3. Involve students in creating resources that support their learning.

Learners can draw pictures of the characters they hear in a story or create puppets to help retell a story. They can colour pictures of items and characters from stories. They can find pictures in magazines, related to a theme or topic in a lesson, and bring them to class. In my Quebec primary classes mentioned earlier, we did not use a textbook. The children created their own course book, as the course developed, using the resources that formed the basis of the course.

4. Build lessons around themes.

Lessons can be built around topics or themes, such as animals, friends, food or family, for very young learners; and for older learners, themes can be drawn from subjects in their other classes and the community, such as transport, country life, travel and famous people. Theme-based lessons provide continuity across activities and enable English learning to be connected to the children’s lives.

5. Use activities that involve collaboration.

Children enjoy socializing with other children, and activities that work best with young learners are those in which children are working with others in pairs or groups, rather than remaining in their seats, listening to the teacher. Activities that involve collaboration require careful preparation to ensure that children have the words and expressions they need in order to carry out an activity.

6. Give clear goals and feedback.

Children like to be successful at things they do in class. In order to achieve this, it is important to set clear goals for children and to let them know when they have been successful, or if not, why not. Praise for success is very important for young learners, for example, by using stars, stickers, points or smiley faces.

7. Use English for classroom management.

Use English for instructions, for routines such as forming groups, for introducing activities, for giving feedback and for other teaching processes. The activities you are using should not be very difficult. You should create the activities according to their ages. Also children like encouragement. That’s why, you should praise for the tasks they have done well. Thus, you can increase their interests for subject or foreign languages.

In my point of view, if the lesson is organized using above mentioned methods and ways, each teacher can get good progress for teaching English language.

Used literature:

1. URL: [www.britishcouncil Learn English kids By Jo Blackmore, Learn English Kids team.](http://www.britishcouncil.org/learnenglish/kids)
2. Teaching English Language to Children with Special Educational Needs Alina Nicoleta Padurean “Aurel Vlaicu”, University of Arad, 77 Revolutiei Boulevard, Arad, Romania.
3. David Chacha, Tanzania “Methods and techniques for young learners”.



TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Tillayeva Dildora Amanovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-maktabning fizika fani o'qituvchisi
Tel: +99890-357-12-84*

*Qayumova Shahlo Nig'matullayevna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-maktabning rus tili fani o'qituvchisi
Tel: +99897-739-53-54*

Annotatsiya: Mazkur maqolada dars jarayonida o'quvchilarning darsga qiziqishini orttiradigan metodlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol, metod, innovatsiya, pedagogik texnologiya, mahorat.

So'nggi yillarda maktab ta'lif tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lif beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lif mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida "aktyor emas", aksincha "rejissyor" bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai-nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lif usullarini yaxshi bilishi kerak.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchini faollika chorlovchi savollar orqalisa infda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan o'quvchilarda, fikrlashga majbur qilishga savol tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. Interfaol metod va usullarni sanab o'tamiz: aqliy hujum, klasterlar, mustaqil xat, Venn diagrammasi, harakatli ma'ruza, o'zarlo ta'lif, muallifga savollar, "BBB", insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyat; ar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, argumentlangan esse, fikrlarning shiddatli hujumi, yalpi fikriy hujum, arra, bumerang, yozma bahslar, zig-zag strategiyasi, komandada o'qitish va hokazolar.

Keeling yuqorida sanab o'tgan interfaol metodlarimizni dars jarayonida qo'llanilishiga to'xtalib o'tsak.

"Nuqtai nazaring bo'lsin" metodi – o'quvchilar o'rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o'z fikrlarini o'z sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o'zgartirishga ishontiradigan g'oyalarni esa o'zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini berish maqsadida qo'llanadi. O'quvchilar shuningdek, maktab, mintaqalari, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo'lgan eng dolzarb muammolarni o'z nuqtai nazarlari bilan asosli dalillash va himoya qilishga o'rganadilar.

"Erkin fikrlash darslari" – mazkur darslarda ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan va bu maqolarning muhokamalariga bag'ishlanadi. Erkin fikrlash darslardan ko'zdautilgan maqsad:

1. O'quvchilarning bilim doirasini, ilmiy dunyoqarshini kengaytirish;
2. o'quvchilarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularning bilim olish va fanga bo'lgan qiziqishlarni uyg'otish;

3. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish.

"Klaster" metodi – bu metod pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib,



u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'yash va fikrlarni bermalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Zig-zag strategiyasi" metodi – sinf o'quvchilari 7 guruuhga bo'linadilar va guruuhlar nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshiriladi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtini tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o'quvchilari o'zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruuhlar tomonidan o'rganib chiqilgach o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g'oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So'ngra o'zlashtirilgan bilim asosida o'quvchilarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

"Arra"metodi – pedagogik amaliyotda mazkur metoddha kichik guruuhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarilshi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o'quvchi guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha mutaxassisga aylanadi. Bu guruhlarda har bir qism mutaxassis bo'lishi shart, mazkur mutaxassislar o'zları egallagan bilimlarini xuddi arra tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o'rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o'quv materiali mantiqiy ketma –ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

"Aqliy hujum" – mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtiropchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobjiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi.

Bu usullar asosan bosqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo'llanadi va har birida o'qituvchi o'quvchilarga tegishli topshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar o'quvchida kommunikativ qobiliyatning o'sishiga, o'quvchilar orasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhlarda ishlashni, o'zgalarning fikrini tinglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rgatibgina qolmasdan, unda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi. Mazkur metodlar yordamida o'quvchilarni ma'naviy barkamol, aqliy salohiyati yuqori, mustaqil va erkin fikrlovchi, ijodkor bo'lib shakllanib, voyaga yetadilar.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati.

1. Yo'ldosheva J.R, Usmonova S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008-yil.
2. S.Qurbanov Didaktik o'yinlar. Urganch, 2011-yil



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI DIDAKTIK O'YINLAR ASOSIDA O'RGATISH

*Navoiy viloyati Navbahor tumani
8-DMTT ingliz tili o'qituvchisi
To'xtayeva Marjona Alisher qizi*

Tayanch so'zlar: O'yin, didaktik o'yinlar, ingliz tili, yosh davrlari, so'z boyligi, ta'limiy o'yinlar.

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning ayrim usullari haqida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ayrim tavsiyalar keltirilgan. Har bir yosh davrining o'ziga xos yetakchi faoliyat turi mavjud. Xususan, maktabgacha yosh davrining ham, bu yosh davridagi yetakchi faoliyat turi – o'yindir. Tarbiyachilarimiz bu yosh davrida bolalarga ta'lim-tarbiya berishda o'yindan foydalanishsa samarali natijaga erishishlari mumkin.

Yosh avlod jamiyatimizning eng katta boyligi, tayanchi, kelajagi hisoblanadi. Faqat rivojlangan, taraqqiy etgan va haqiqiy demokratik jamiyatgina yosh avlodni asrab- avaylab, uning har tomonlama barkamol bo'lib yetishish uchun barcha moddiy, ma'naviy va maishiy shart-sharoitlarni yaratib bera oldi. Bugun mamlakatimizda yoshlarning, hattoki eng kichik yoshdagi maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining ham ta'lim olishiga yetarlicha sharoit yaratildi. Ularni nafaqat maktabga tayyorlash, balki chet tillarni o'rganishlariga bo'lgan e'tibor kundankun kuchaymoqda. Maktabgacha ta'limda chet tilini o'rgatish nisbatan yangi soha bo'lganligi sababli uni o'qitish va o'rgatish yuzasidan ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilishi zaruriy va dolzarbdir. Shu nuqtai nazardan biz ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishni maqsad etgan pedagoglarga interfaol usullarga asoslangan ayrim metodik tavsiyalarini berishni lozim deb topdik. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda so'z boyligini oshirib borish dastlabki vazifalardan biri hisoblanadi. Masalan, kichik yoshli bolalarga rang tushunchasini o'zga tilda, aniqrog'i ingliz tilida o'rgatish metodikasini olaylik. Bunda biz turli xil o'yin-mashg'ulotlardan foydalanishda tasviriylar faoliyat bilan bog'lashga harakat qilamiz va quyidagi usullarni tavsiya qilamiz.

"Bo'yoqchi" o'yini ("Paintred" play). O'yin uchun guldonga oq rangdagi gullarni solamiz va bolalarga:

– Bolajonlar oppoq gullar juda chiroyli, ammo ular rang-barang bo'lsa ko'zimizni yanada quvontiradi.

Qarang, tabiatda bir-biridan chiroyli, rang-barang gullar juda ham ko'p. Qani bir tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida o'rgangan bilimlarimizni ishga solib guldondagi gullarimizni kamalakrang gullarga aylantiramiz vagulimizni qaysi rangga bo'yaganligimizni ingliz tilida aytamiz. Bolalarning har-biri bittadan gul oladi va ularni turli xil ranglarga bo'yaydi. Bolalar gullarni bo'yab bo'lgach, tarbiyachi bolalarga quyidagicha savol beradi:

Tarbiyachi: – What colour is your flower? (Sening guling qanday rangda?)

1-tarbiyalanuvchi: – Red (qizil)

Tarbiyachi: – What colour is your flower? (Gulingiz qanday rangda?)

2-tarbiyalanuvchi: – Orange (sabzi rang)

O'yin shu tartibda davom etadi. O'yin oxirida bolalarga bo'yagan gullarini o'zlarini yaxshi ko'rgan insonga sovg'a qilishlari mumkinligi aytildi. Ko'rinaridiki, bu mashg'ulotlararo bog'liqlikni ta'minlash bilan birlgilikda bolaning ranglarni farqlashva ularning ingliz tilidagi nominiesda yaxshi saqlab qolishiga ko'maklashadi.

«Kamalak» o'yini ("Rainbow" play). Bunda bizga kamalak rang tasmalar va ularni doskaga yopishtirish uchun yelim kerak bo'ladi. Bolalarga tarbiyachi shunday murojaat qiladi:

– Bolajonlar bahorda juda ko'p yomg'ir yog'adi-a?

– Ha.

– Yomg'irdan so'ng osmonda nima paydo bo'ladi?

– Kamalak.

– Kamalak ranglarini yaxshi bilamiz-a? Hozir tasmalardan doskada kamalak hosil qilamiz. Kamalagimiz guruhda chiroyli bo'lib chiqishi uchun ranglarning ingliz tilidagi nomini bilishimiz



kerak bo‘ladi.Bolalar birma-bir kamalak rangini ingliz tilida aytib, shu rangli tasmodan yarim aylana shakl hosil qiladi. Masalan: Yellow – sariq tasma; Green– yashil tasma;

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda o‘zga tilni didaktik o‘yinlar orqali o‘rgatish shunchaki o‘rgatishdan yaxshiroq va samaraliroq kechadi. Bunda bolalar nafaqat damoladilar, balkiqiziqishlari ortadi.Shuningdek, tarbiyachi o‘zga tilni o‘rgatishda va o‘yinlarni qo‘llashda bolaning yoshini ham inobatga olishi lozim. Kichik yoshdagi bolalarga elementar narsalarni: ranglarni, 1 dan 10 gacha sanashni, kundalik ishlataladigan buyum nomlarini va hokazo, katta guruhdagi bolalarga murakkabroq: murojaat qilish, dialog tuzish, rasm asosida kichik hikoyalar tuzishni o‘rgatish maqsadga muvofiq.Chet tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish his-hayajonni, diqqatni,imkoniyatni, mujassamlikni, bilimli, kuchli bo‘lishni talab qiladi. U mustaqil bir qarorga kelishlikka o‘rgatadi.O‘yin o‘ynayotganlarni yutish, g‘alaba qozonishga intilish irodalari, xohishlari o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, qiziqishini o‘stiradi. O‘yin ishtirokchilarini faolligini o‘stirishga ingliz tilidagi didaktik o‘yinlar asos qilib olingan. Bola o‘yinlarni ingliz tilida o‘ynasagina ingliz tiliga qiziqadi, ham faolligi o‘sadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘yinni ingliz tilida o‘ynatishning ta’limiy tomoni kuchlidir.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2019 yil 16 dekabrda O‘RQ 595-son
2. “Ilk va maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” T: MTV 2018 yil
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi T: MTV 2018 yil



MATEMATIKA DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLAR ORQALI MANTIQIY TAFAKKURNI O'SТИRISH

Xayitova Hamida
*Sirdaryo viloyat Sirdaryo tuman 42-umumtalim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy tafakkurni o'stirishda ta'limi o'yinlardan foydalanish yo'llari haqida ma'lumot berilgan

Kalit so'zlar. mantiq, tafakkur, o'yin, jarayon, faoliyat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rinni tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'limga davri ta'limga jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakl-lanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi, bolaning zehnini o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'limga jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi. Bolalarni bu faoliyatga o'tkazdirish uchun ular bilan darslar jarayonida ta'limi o'yinlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich maktabda matematika o'quv fanini bolalarning yoshi va rivojlanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda olib boriladi. Boshlang'ich sinf matematika fani yaxlitligi, mantiqiy tuzilishi jihatidan keng imkoniyatlarga ega. Dars jarayonida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish matematika darsining yetakchi vazifaiaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda matematika faniga doir turli xildagi qiziqarli topshiriqlar, boshqotirmalar va krossvordlar muhim vosita bo'la oladi.

Darsda o'quv materiallaridan tashqari turii axborot manbalari hisobiga bilimni o'stirib borish, ayniqsa yangi axborotiar orqali hozirgi zamon ta'limga islohotlarini to'g'ri tushunishga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish bugungi kun pedagoglarning oldida turgan dolzarb masaiaiaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, har bir dars o'z mazmuniga ko'ra o'quvchilarning bilim olishga qiziqishni ko'paytirishga va ularning o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'iderish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan darajada bo'lishi kerak.

Zero, mustaqil ishlash orqali o'quvchilarning fikrlash doirasi kengayib o'zlashtirilgan bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmasi rivojlanishi amalda o'z isbotini topib borayotgan sir emas. Shu o'rinda matematika darslarini o'tish jarayonida o'quvchilarda mustaqil faoliyatini tarbiyalashga moliq bo'lgan quyidagi shakllarini aytish mumkin:

- o'tilgan mavzular asosida mustaqil savollar tuzdirish;
- mashg'ulot vaqtida, o'qituvchi tomonidan tuzib kelingan savollarni o'quvchilarga tarqatib, uning javobini toptirish;
- mavzu asosida ko'rgaznali qurollar tayyorlash;
- malum bir mavzu yuzasidan krossvordlar tuzdirish;
- rangli rasmlli plakatlar, diagrammalar ustida mustaqil ishslash;
- o'tilgan biror bir bo'lim yuzasidan misol va masalalarni mustaqil yechish.

Masalan, darslarda o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirish maqsadida savollarni mustaqil yechish uchun o'rtaqa tashlash mumkin:

a) *Yog'ochni 12 bo'lakka bo'lish uchun uni necha marta arralash kerak?*

b) *Hakim bemorga 30 daqiga oraliq'i bilan 3 ta ukol belgiladi.*

Bemor ularni hammasini qancha vaqt ichida olishi kerak?

v) 1 dan 100 gacha bo'lgan qatorda nechta 9 bor?

g) Matematik amallardan foydalanib, 5 ta 2 yordamida 2 sonini vozing:

$$2=2 * 2 - 2 * 2 + 2$$

$$2=2-2 + 2-2 + 2$$




$$2=2 : 2-2 : 2 + 2$$

$$2=2-2+2$$

Ma'lumki, matematik olimiarning fanga kiritgan yangilikiari, yozgan risoialari, nihoyatda ko'p. Lekin, ularning aksariyati haqida o'quvchilar tushunchaga ega emas. Shu bois matematik allomalarning matematik ta'lomitlari to'g'risida har bir dars davomida aytib borish maqsadga muvofiq.

Yana bir masala: *Pifagordan «shogirdiaringiz nechta?» deb so'rashganda u shunday javob berdi «Shogirdlarimni yarmi matematikani, to'rtdan biri tabiatni o'rganishyapti. Ularning yettidan biri vaqtini mulohaza yuritish bilan o'tkazyapdi, qolgan qismini esa 3 ta qiz tashkii qiladi». Pifagorning nechta shogirdi bo'lgan? Quyidagi qiziqarli topshiriqlar ham o'quvchilarning bilimlarini oshirib, matematikaga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga imkon yaratadi.*

«Ushbu chizmadagi katak va doiralarda joylashgan 9 ta U va 4 ta T vositasida nechta «TUT» so'zini hosil qilishi mumkin? Ularning soni jami T va U lar soniga nisbatan ko'pmi, oz?»



Matematika darslari qanchalik qiziqarli bo'lsa, o'quvchilaming o'ylash, fikrlash, hisoblash qobiliyatlari shuncha takomillashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak talimiyl o'yin- ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'lim maqsadlarga erishuviga, o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir ta'limiy o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi.

Adabiyotlar.

1. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta'lim portal.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA MANTIQIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI O'STIRISH

Xayrulloyeva Gulshod Sunnatovna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
4-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
(+998919259402)

Annotatsiya: Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, malaka, bilim, ko'nikma, iqtidor, mantiq, mantiqiy fikrlash, sanoq son, tenglama, masala.

Masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazarli materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim rolni va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi muhim ro'l o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani echish bilan amalgalashadi.

Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amal komponentlari bilan natijalar orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar o'quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur, bo'ladigan bilimlar malakalar va ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositali bo'lib odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi.

Matematik masalalar sodda va murakkab masalalarga ajratiladi. Bitta amal bilan echilishi mumkin bo'lgan masalalarga sodda masalalar deyiladi. Bir nechta sodda masalalardan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amallar yordamida echiladigan masalalarga murakkab masalalar deyiladi.

Masalan: daraxt shoxida 6 ta qush bor edi. Ulardan 2 tasi uchib ketdi? Bu masalaga 2 ta teskari masala tuzish mumkin.

1)Daraxt shoxida bir nechta qush bor edi. 2 ta qush uchib ketgandan so'ng daraxt shoxida 4 ta qush qoldi. Daraxt shoxida nechta qush qoldi?

2)Daraxt shoxida 6 ta qush qo'nib turgan edi, bir nechta qush uchib ketgandan so'ng 2 ta qush qoldi. Nechta qush uchib ketdi.

Xulosa: Mantiqiy tafakkurni shakllantirish boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallarni shakllantirish imkoniyatlardan foydalanish uchun har bir tushunchaning mohiyati, mazmuni va uning o'quvchilar amaliy tajribasiga asoslanilishi hamda ko'rgazmalilikning keng yo'lga qo'yilishi, taqqoslash, xulosa chiqarish va konkretlashtirishga o'rgatish bo'lish usullarining o'rganilishi bilan birga umuman boshqa amallardagi o'xshash qonuniyatlarni taqqoslash asosida keltirib chiqarishga hamda mashq va misollarni echishni tahlil qilish asosida o'rgatilishi, xatolar ustida ishslash va bularning barchasidan samarali foydalanish asosini tashkil etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jumaev M.E, Tadjieva Z.G. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'YU uchun darslik.) Toshkent. —Fan va texnologiyal 2005 yil.

2. www.ziyonet.uz materiallari



O'QUVCHILARNI TO'G'RI VA SAVODLI YOZISHLARIDA XATOLAR USTIDA ISHLASHGA O'RGATISH

*Xudoyberdiyeva Xanifa Shukurovna
Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar
1-umumta'lism maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 99 482 5994*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida ordofrafiyaga amal qilishning nazariy asoslari va o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatishda xatolar ustida ishlash yo'naliishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: orfografiya, savodxonlik, xato, yozma ishlar.

Orfografiya o'qitishda o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'rganish, ularning orfogafik va punktasion xatolarini tuzatish, ularni hisobga olish va baholash, xatolarni tugatish usullari alohida o'rinni tutadi. Maktabda o'tkaziladigan barcha turdag'i yozma ishlar o'quvchilarning savodxonligini aniqlash vositasi hamdir. Binobarin o'quvchilarning savodxonligini aniqlashda yozma ishlarning hamma turlaridan foydalanish mumkin.

O'quvchilarning orfografik malakasi haqida tasavvur ta'sir qilish uchun ko'proq tekshiruv diktanti hamda insho va bayonlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'qituvchi o'quvchiiarning yozgan ishini tekshirib, xatolarini tuzatib bormasa, o'quvchi keyingi mashqlarni bajarishga qiziqmaydi, bajarsa ham, xatolarga beparvo qaraydi. O'quvchi o'zining har qanday yozma ishi o'qituvchining e'tiborida bo'lishini sezib turishi kerak. Bu o'quvchiga ilmiy oziq beradi. Xatolarni tuzatishga o'quvchilarning o'zini ham jalg qilish mumkin. Lekin bu yozma ishning xarakteriga bog'liq. Sinfda bajariladigan mashqlar ko'pincha sinfning o'zida o'qituvchi rahbarligida tekshiriladi. Bunda o'quvchi o'z yozganlarini tekshiradi, xatolarni tuzatadi, yoki partada o'tirgan ikki o'quvchi daftarlarini almashtirib, bir-birlarining yozganlarini kuchlari yetganicha tekshiradilar. Bunda o'quvchilarning savodxonlik darajasi inobatga olinadi. Nazorat ishi xarakterdagi ishlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi. Uyda bajariladigan mashqlar ham tekshirilishi mumkin. Bu quyidagicha bo'ladi:

- A) parta ustiga qo'yilgan daftarni tekshirib chiqish;
- B) biror o'quvchini doskaga chiqarib, unga yozganimi o'qitib izohlatish;
- V) har bir gapni navbat bilan o'qitish, yozilishini so'zlatish.

Ko'chirib yozilgan mashqlar, grammatik-orfografik tahlillar mana shu usul bilan tekshirilishi mumkin. Lekin bu o'quvchilar daftarini to'liq tekshirish imkonini bermaydi, shuning uchun daftarlar har ikki uch soat dars o'tilganidan so'ng yig'ishtirib olinib, darsdan so'ng yoki uyg'a olib ketib tekshirib chiqilishi kerak.

Xatolarni qanday tuzatish kerak?

Xato tuzatish ham ijobjiy xarakterdagi ishlar jumlasiga kiradi. Maktabda xatolarni tuzatishning xato yozilgan harflar ustidan qizil siyoh bilan chizib, tepasiga to'g'risini yozib qo'yish usuli keng tarqalgan. Lekin bu usulni hamma vaqt ham samarador deb bo'lmaydi. Agar o'quvchi o'zbekcha so'zlarda (tala-dala) yoki faol lug'atda o'tib ketgan ruscha, forscha va arabcha so'zlarda (maktab-maktab), (g'isht-g'ish), (ruchka-ro'chka), (stol-istol) xato qilsa va bu xatolarni tez payqab olish uquviga ega bo'lsa, harfni o'chirib, to'g'risini ustiga yozib qo'yish usulidan foydalanish mumkin. Imlosi qiyin so'zlarda (vzvod-vzzot; muzaffar-muzafar kabi) xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa va psixologik tomonidan ana shu so'zlarning fotokopiyasini o'quvchi o'z ongida aks ettirish kerakligi e'tiborga olinsa, xato yozilgan so'zni qizil rang bilan o'chirib, ustiga to'g'ri shakli yoziladi. Xato grammatik formada bo'lsa, harf emas, forma o'chiriladi yoki uning ostiga chiziladi: qurildi-quruldi, kulib-kulub. Chunki o'quvchi qaysi formada xato qilganini o'zi aniqlashi kerak. Ba'zi uslubchilar xatolarni o'qituvchi tuzatsa, o'quvchilar mustaqil ishlardan xoli qilib qo'yiladi deb, bu usulni qoralaydilar. Bu fikr to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki tuzatishning bu usuli ham o'quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi: o'quvchi maktab degan so'zda b o'rniga p yozgan bo'lsa, o'qituvchi uni tuzatib, o'quvchida shu qoidaga mos keladigan bir qancha so'zlar (kitob, bob, to'lib, o'qib, ayab, boylab) topishni vazifa qilib beradi. Lekin xato tuzatishning bu usulini yagona usul deb ham bo'lmaydi. Ayrim hollarda xato tuzatishning ko'proq mustaqil ishlashini talab qiladigan usullaridan ham foydalanish mumkin. Xatoni to'g'irlamasdan



chizib qo‘yish, xato yozilgan harfning yoki shu harfnini o‘z ichiga bo‘g‘in yoki so‘zning tagiga chizib qo‘yish, qaysi qatorda xato qilingan bo‘lsa, o‘sha qator hoshiyasiga belgi qo‘yish ham xato tuzatish usullaridir. Lekin xato tuzatishda bu usullar aralash qo‘llanmasligi kerak. Bunda o‘quvchilarning yosh xususiyati, qoidaning sodda yoki murakkabligi, o‘quvchilarga o‘zlashish, ularni mustaqil ishlashga yo‘llash darajasi hisobga olinishi kerak.

Orfografik xatoning oldini olish. Orfografiya o‘qitish tizimi butunicha imlo xatolarining oldini olishga qaratilgan. Yozilishi qoida bilan izohlanadigan orfogrammalarda bo‘ladigan xatolarning oldini olish uchun bunday so‘zlarni doskaga yozib, ularning yozilishiga o‘quvchilarning diqqatini jalb qilinadi: Masalan, b tovushining yozilishida xato bo‘lmasligi uchun, o‘qituvchi b va p tovushli bir qancha so‘zlarni doskaga yozib, ularning imlosini esda saqlab qolish kerakligini ogohlantiradi. Xatolarning oldini olishda turli ko‘rgazma va jadvallardan ham foydalaniлади. Ko‘rgazmalar mavzuga doir yoki umumiy bo‘lishi mumkin. Mavzuga doir ko‘rgazmani ma’lum qoida, masalan b undoshi, jarangli-jarangsiz tovushlar, x va h undoshlari bo‘yicha tayyorlab, sinf devorida osib qo‘yiladi. Ko‘rgazma umumiy bo‘lganda, unga o‘quvchilar ko‘p xato qiladigan va har xil qoidaga xos so‘zlar kiritiladi.

Xulosa shundaki, bexato o‘qiy olgan bola, albatta bexato ham yozishi kerak. Savodxonlik-boshlang‘ich ta’lim dasturining asosiy maqsadlaridan biridir.

Foydalaniлган адабиётлар

1. K.Qosimova va b.q. Darslik “Ona tili o‘qitish metodikasi”. T-2009
2. G‘ulomova X va b.q “Husnixat va uni o‘qitish metodikasi”. T-2009



МЕХНАТ ДАРСЛАРИНИ ОЛИБ БОРИШДА ТУРЛИ ШАКЛ ВА МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Xusainova Shaxnoza Xamitdullaevna
Toshkent shahri 81-sonli IDUM mактабининг
texnologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Umumta'lim maktablarida ilg'or, tajriba, ijodkor o'qituvchilar zamonaviy dars talablariga mos keladigan sinov, seminar, anjuman, viktorina, test, teatrlashgan dars kabi turli noan'anaviy usullardan darslarda o'z o'rnida foydalanib kelishmoqda.

Kalit so'zlar: Mehnat, murakkab, uzoq davom etuvchi, maktablar, ilg'or, tajriba, ijodkor o'qituvchilar,

Mehnat darslarini olib borishda o'quvchilarni avvalo, mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash darkor. Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun mehnat ta'limi va tarbiyasiga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

Bolani mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarini egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab, mehnat — bu har bir kishining vijdoni yoshi va burchi ekanligini, inson o'z mehnati bilan sharaflanishini, faqat Vatan farovonligi yo'lida qilingan mehnat insonning eng yaxshi sifatlari rivojlanishi hamda takomil-lashishi mumkinligini anglashiga yordam berishdir. Bolalarning mehnatga qobiliyati har bir kishi jamiyatning hayoti va faoliyati, uning farovonligi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashishi zarurligini anglashlari juda muhimdir. Shuningdek, bolalar jamiyatda inson mehnatsiz yashay olmasligini ham uqib olishlari kerak.

Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, emotsiyal idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik tarkibi deyiladi. Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur.

Ma'lumki, mehnat faoliyati, mehnat ta'limi uchun ham turli sezgilar yig'indisining (ko'rish, eshitish, his etish, ta'm bilish, teri, muskul harakati) namoyon bo'lishi xarakterlidir. Shuning uchun o'qituvchilar quiyi sinf o'quvchilariga yangi materialni yoki asbobni tanishtirayotganlarida bolalardagi sezgining barcha turlarini faollashtiradilar: bolalar qog'ozni ushlaydilar, silaydilar, aylantirib ko'rib chiqadilar, uning qanday shitirlashiga qulq soladilar. Sezgilarning bunday faollashuvi ma'lumot haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishga yordam beribgina qolmay, balki bu psixologik jarayonni rivojlantiradi, takomillashtiradi. Mehnatga tayyorlashning yanada muvaffaqiyatliroq bo'lishi uchun bolalarning xotiralarini o'stirish vazifasi ham, albatta, amalgalashiriladi.

Mehnat bo'yicha o'quv materiallarini eslab qolish boshqa buyumlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega. Barcha yangi asboblar, materiallar, jarayonlar nomini boshlang'ich sinf o'quvchilari buyumni ko'rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab fahmlaydilar. O'qituvchi mehnat darsida faqat tushuntiribgina qolmay, balki, asosan, material va buyumlar namunasini, asboblarni, materialga ishlov berish usullarini, jarayonlarning izchillagini ko'rsatadi. Shuning uchun mehnat ta'limida eshitish, ko'rish qobiliyati va harakatlantiruvchi xotira ham muhim o'rinni egallaydi. O'quvchilarda darsdan darsgacha yangidan yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash hamda eslab qolish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat malaka va ko'nikmalarini o'rgatish natijalari ko'p jihatdan psixologik jarayonlarning rivojlanganligiga, bosh miya nazorati ostidagi mushak harakat apparatining takomillashganligiga bog'liqidir.

Mehnat ta'limining to'g'ri borishida emotsiyal jarayonlar ham xarakterlidir. Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlagan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobiy emotsiyalar: mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotining namoyon



bo'lishi juda muhimdir. Mehnatda turli psixologik holatlar: faollik, diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg'ular namoyon bo'ladi. Mehnatda shaxsning qiziqish, qobiliyat, temperament kabi individual psixologik xususiyatlari shakllanadi.

Mexnat ta'limida noana'naviy usulda o'quv amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish o'quvchilarning ijodkorligini, izlanuvchanligini va mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirishda sezilarli darajada ta'sir kursatadi. Mexnat ta'limi darslari ikki qismiga, ya'ni nazariy tushuncha berish va amaliy mashg'ulot qismiga bo'linadi, mexnat ta'limi darslarida o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda uyg'unlashgan texnologiyalardan foydalanishni osonlashtirish maqsadida mexnat ta'limi darslarini to'rtta turga, ya'ni: kirish darslari, yangi bilimlar berish, mexnat kunikmalarini shakllantirish, takrorlash-mustaxkamlash sinov darslariga bo'lish mumkin. Bunda ularga mos uyg'unlashgan texnologiyalarni tanlashga e'tibor berish zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mavlanova R, Garahova D, Ogluzdina L, "Mehnat ta'limi metodikasi". Toshkent: 1994 – yil, 168-bet.
2. Txorjovskiy D.A "Mehnat ta'limi metodikasi", Toshkent: 1999
3. Qambarov N "Mehnat fanidan maruzalar matni". 2011



BOSHLANG'ICH SINFLARDA SHE'RNI O'QISH METODIKASI

*Yusupova Dilnoza Maxammandinovna.
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani
53-umumiyl òrta ta'lif maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Tel: 99893.266-65-82*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini she'r o'qishga o'rgatish metodikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: she'r, ritm, qofiya, misra, poetik tasvir, hikoyalari, ertaklar, she'riy asarlar, lirik she'r, sujet.

She'r ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi.

She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqe-a-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalari, ertaklar, ya'ni she'riy asarlar va lirik she'rlar o'qitiladi.

She'riy hikoya, she'riy ertaklarda sujet, ya'ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she'r "biror hayotiy voqe-a-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali tur mushni aks ettiradi". Lirik she'rning xususiyati "kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashda qo'l keladi".

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rni asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi. She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llangan ish turidan foydalanish mumkin. Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'lifning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She'riy ohangni his qilmaslik, matndagi so'zlarning ma'nosini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi" misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljalab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi "hur o'lka", "to abad", "ilm-u fan", "shuurating", "ajdodlar", "mardona ruhi senga yor", "o'chmas iymoni", "istiqlol mash'ali", tinchlik posboni", "haqsevar ona yurt", "mangu bo'l obod", "jo'sh urgan" kabi ko'pdan-ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta'lifdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

4-sinfda Q.Hikmatning "Qish to'zg'itar momiq par" she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'lifning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish mumkin. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. K. Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi.
2. S.Matchonov, X.G'ulomova Nutq madaniyati. Boshlang'ich ta'lif jurnali.



MASOFAVIY TA'LIM SAMARADORLIGI

Zairova Shirinoy Oltiboyevna
Samarqand shahar 50-umumiy o'rta ta'lif
mektebi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: 998906060159 halova@samdchi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'lifning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Masofaviy ta'lifning an'anaviy ta'lifdan farqli xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lif-tarbiya, samaradorlik, integratsiya, pedagogik texnologiya, keys-texnologiya

Bugun jamiyatga teranroq nazar soladigan bo'lsak, kishilik jamiyatining turli jabhalariga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib kela boshladi. Internet global kompyuter tarmog'ini rivojlanishi butun dunyo ta'lif tizimini takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'ldi. Inson hayotini o'zgartirdi. Og'irini yengil, uzoq masofani yaqinga aylantirdi. Biz bu kabi jarayonni hayotning har jabhasida ko'rishimiz mumkin. Birinchidan, o'quv muassasalarining texnik ta'minotini keskin o'zgarishi, dunyoviy axborot resurslarga keng yo'l ochilishi o'qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lif jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi. Masofaviy ta'lifda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladi. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lif tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Ma'lumki, masofaviy ta'lif pedagogik jarayonning yangi shakli bo'lib, u ta'lifning yangi shakllari, metodlari, vositalari, tashkil etilishi, pedagog va tinglovchi o'rtasidagi hamda tinglovchilarining o'zaro muloqoti shakllarini nazarda tutadi. Shuningdek, bunday ta'lifning o'ziga xos turli shakllari, ijtimoiy buyurtma bilan asoslangan o'z maqsadiga, tanlangan ta'lif muassasasining o'quv dasturlarida belgilangan mazmun hamda o'qitish metodlarining tashkiliy shakli va maxsus vositalariga ega bo'ladi.

Masofaviy ta'lif asosini tashkil etgan zamonaviy kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalari, bilimlarni uzatish va tinglovchilarini turli xil o'quv axborotlari bilan ta'minlash bo'yicha o'qitishning an'anaviy vositalaridan ustunlik qilishi bilan farqlanadi. Ta'lifda bu xildagi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining turli o'quv fanlari o'qituvchilarini tomonidan qo'llanilayotgani, ta'lifning samaradorligini oshirishda, uni intensivlashtirishda muhim tamoyil sanaladi.

Birinchi galda, masofaviy ta'lif o'qituvchisi masofaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lif beruvchi o'qituvchidir. Uning imkoniyatlari zamon talabi asosida. U masofaviy o'qitishning texnologiyalari – Internet-texnologiya va Keys-texnologiyadan boshlab, barcha TV va radio eshittirish texnologiyalarida ham ish yuritishni biladigan o'qituvchidir. Demak, bu o'qituvchi globallashgan jamiyatning intelektual salohiyatli o'qituvchisidir. Masofaviy ta'lif o'qituvchining pedagog sifatida shakllanishida muhim omil bo'ladi va uning imkoniyatlarini oshiradi. Bu usul g'arba nixoyatda ommalashgan usul hisoblanadi. Chunki, bu usul orqali o'qituvchi va o'quvchi erkin masofaviy muloqotga kirisha oladi. Har qanday sharoitda masofaviy ta'lif o'qituvchi bilan o'quvchini masofada bog'lay oladi.

Pedagogika fani, bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiyy tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun kasbiy-pedagogik ta'lif chet el tajribalarini o'rganish, uni ilmiy tushunish, ilg'or g'oyalardan milliy ta'lif amaliyotida foydalanish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Bunday ta'lifning texnik yoki tashkiliy shakllari turlicha bo'lishi mumkin, ba'zan umuman odatdan tashqari, tasavvur qilib bo'lмаган ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Ammo bizning chuqr ishonch hosil qilishimizga oxir oqibat odamning ta'lif olishi natijasi faqat o'quv faoliyati shakllari, shu jumladan masofaviy ta'lif bilan belgilanmaydi, balki o'quv jarayoni quriladigan tayanch psixologik-pedagogik mazmunga bog'liq bo'ladi. Ya'ni o'quv jarayonining sifati, o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Aynan manashu mazmunlarini izlab



topish milliy mentalitetga nisbatan masofali ta'lim asoslarini ishlab chiqish boshlang'ich vazifasi hisoblanadi. Bu jarayon turli ramziy amaliyotlar ekranlarida aks ettirilib namoyon bo'ladi. Fikri, sezgilari asosiy urinni egallaydi. Tug'ri masofaviy ta'lim bugun g'arb ta'lim tizimida o'zini keng tarzda namoyon qilmoqda. Biz bu ta'lim shakliga kur-kurona taqlid qilib emas, milliy ta'lim dasturimizni, sharqona ta'lim – tarbiyamizni masofaviy ta'lim shakliga olib kirishimiz, an'analarimizdan oziqlantirmog'imiz lozim.

Masofaviy ta'lim vositasida o'quvchi uchun qulay bo'lgan joyda individual jadval asosida mahsus imkoniyatlar, telefon, elektron aloqa va boshqa ta'lim vositalari yordamida bir maqsadga qaratilgan nazorat qilish mumkin bo'lgan ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Masofaviy ta'limda ma'lum maqsad asosida ta'lim sub'ekti va ob'ektining ta'lim vositalari yordamidagi o'zaro ta'siri amalga oshadi.

Xullas, masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Masofaviy ta'lim shakli – globallashgan axborot texnologiyalari davrining ta'lim shaklidir. Bu ta'lim turining o'ziga xos qulayliklari mavjud. Bugungi kun o'qituvchisi ham o'quvchisi ham masofaviy ta'lim shaklini o'zlashitira olish imkoniyatiga ham qobiliyatiga ham ega. Faqat ta'limning bu shaklini sharqanova ta'lim tarbiya tamoyillariga hamohang tarzda olib borsa oz samarasini ko'rsata oladi.

Foydalaniman dabiyotlar ro'yxati

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod. - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. B. 31-61.
2. N.N.Azizzxo'jaeva. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat". –T.:2003.-174 b.
3. H.T.Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.: Iqtisod moliya, 2009. – 240 b.



TYPОLOGY OF EXERCISES FOR TEACHING THE FOREIGN LANGUAGES

*Ashurova Nodira Rafiqovna a senior teacher at ASU
Ismatullayeva Madina student at ASU faculty of Sport
Telefon: 99899-089-08-37
dilquv@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada til orgatish jarayonida mashqlarni to‘g‘ri tanlash va ulardan unumli foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: texnika, aloqa, o‘ziga xos, pedagogik mashqlar.

Abstract: The article discusses the correct choice of exercises and their effective use in the process of language teaching.

Key words: techniques, communication, specific, pedagogical exercises.

Аннотация: В статье рассматривается правильный выбор упражнений и их эффективное использование в процессе обучения языка.

Ключевые слова: приемы, общение, специфические, педагогические упражнения.

Exercise plays a dominant role in the educational process. In fact, all the methods and techniques used by the teacher must be eventually materialized in exercise, in practice using a foreign language as means of communication. Whatever type of lesson didn’t take any kind of speech activity nor taught, the main part of any lesson structure remains an exercise in the broad sense of the term. The lack of a large number of exercises, lack of proper training of the voltage when running continuously following each other doing exercises lesson of a foreign language is highly inefficient, blunt the interest of students towards this subject. As Shatilov S. underlined “In contrast, the prevalence of a variety of active exercises in class creates all the necessary conditions for continuous practice in language of student activities. This indicates that exercise, as a method of teaching should permeate all levels and all stages of teaching a foreign language in school” [1.55].

As the object of study, we consider the activity of the teacher to introduce a system of exercises in learning a foreign language in primary school. The subject of the study is the conditions and factors of success of the teacher to build English language skills in students by means of exercises.

The specific features of the modern English language teaching materials and teaching materials contained in the sets of exercises. To do this, consider the following tasks:

- consider the concept of «exercise» in the psychological, didactic and methodological aspects;
- identify relevant to the objectives of this work classification exercise; identify the features of the use of exercise in modern English language teaching materials;
- identify effective methods of use of exercises in modern English class.

To effectively address the objectives of this work used the following set of methods of scientific and pedagogical research:

- analysis of existing pedagogical ideas and techniques; study materials and results of teaching activities;
- classification and generalization;
- content analysis of educational complex;
- graphic methods of processing the results of the study.

In the methodological literature, there are different approaches to defining the goals, objectives, role of exercise in learning a foreign language and therefore different criteria for their classification and typology. Before proceeding to the characterization of the structure of the exercises should be defined understanding of the term «exercise» [2.134].

Study the structure of the exercises in the methodological literature has so far received little attention. This, of course, does not mean that the Methodists and teachers enjoyed some «structure less» exercises. Description of the structure of exercises is fragmented and does not cover all aspects of language and speech activities. The structure of the exercises can be modelled based on the overall structure of learning activities in this general met had of language teaching. The main argument for this approach is the coincidence of the nature of these phenomena. Exercise is only a particular kind of activity at all. Each exercise can be divided into two components:



the target and the executive (with the inclusion of control and self-control). The aim in the general method determines only the end result of language learning. The purpose of the exercise formulates the next tasks associated with the formation of knowledge, skills and abilities, the overall goal is always communicative nature, the purpose of the exercises can be both a training and communication. A similar relation holds in the second link. The primary means of achieving the ultimate goals in the general method is learning activity (cognitive and communicative). Shchukin A. N., Azimov E. G. argued: "The main way to perform immediate objectives are different kinds of action: differentiation, imitation, substitution, transformation. Feedback exercises also have its own characteristics. In general, the method of feedback is considered only in principle. In the exercises, she acquires a concrete form of programmed (key system in textbooks and other programmable benefits, check with the help of teaching machines, and others.) And not programmed (under the guidance of a teacher) methods. Thus, the ratio of the overall structure of the method and structure of the exercises is the ratio of the total and the individual" [3.120].

References

1. Shatilov S. F. The system of exercises in teaching foreign language in schools and universities. Interuniversity collection of scientific papers, – 1978. - P. 55.
2. Klimentenko A.D, Mirolyubova M. The critical foundations of methods of teaching foreign languages in high school. – 1981.-P.134.
3. Shchukin A. N., Azimov E. G. «Glossary of methodological terms». St. Petersburg, -1999. - P. 120.



ЭЛЕКТРОН ДАРСЛИКЛАРНИ ЯРАТИШ МУАММОЛАРИ

Самсакова Нодира Каримовна
Тошкент вилояти Зангиота тумани
36-умумий ўрта таълим мактаби
информатика фани ўқитувчичси

Аннотация: Ушбу мақолада пандемия шароитида электрон дарсларни яратиш ва уни амалиётга татбиқ этиш шунингдек мактаб ўқувчилари тез ва осон тушунарли бўлиши учун мукаммал ҳамда даврга мос тарзда яратишга эхтиёжнинг юқори эканлиги таъкмидлаб ўтилади.

Калит сўзлар: мультимедиа, графика , online дарс, электрон дарслик

Бугун бутун инсоният бошидан оғир даврни бошидан кечирмоқда. Кўринмас ёв деб аталмиш касаллик яъни Covid-19 бутун дунёни ларзага солди. Жамиятнинг барча жабхаларига таъсири кўрсатмасдан қолмади. Шу ўринда таълим соҳасига таъсир этмас қолмади. Бу эса ўз навбатида таълим тизимини ислоҳ қилиш учун имконият яратди.

Электрон дарслик компььютерга мослаштирилган дарслик . Электрон дарсларнинг оддий дарслардан фарқ уларда матн ва расмдан ташбари товуш, мультиплексиялардан, гиперматндан фойдаланиб уқувчидан ахборотни тез, осон , булаг , чиройли шаклда табдим этиш мумкин . Электрон дарсларнинг буйидаги турлари мавжуд :

1) Матн, содда графиқ, гиппершиорлардан фойдаланиб электрон дарсларни яратиш. Бундай дарсларни WORD матн мухаррири имкониятларидан фойдаланиб яратиш мумкин .

2) Матн , графика , мультимедиа воситалари ёрдамида интерактив режим асосида ишлайдиган электрон дарсларни яратиш . Бу дарсларнинг ащамиятли томони фойдаланувчи диалог режимда компььютердан фойдаланади. Керак булса урганган мавзуси буйича тест саволларига жавоб бериб, билимларини текшириши мумкин. Товуш, мультиплексия воситаларидан фойдаланиб, янги мавзуни тез ва тушунарли тушуниб бериш мумкин.

3) Масофавий уқитишига мосланган электрон дарслик .

Бундай дарсларни Интернет тармолари орбали убиш мумкин булади. Бу дарсларни HTML куринишида расмийлаштирилади . Бундай

дарсларни яратишида ахборот куринишларининг барча турларидан фойдаланилади.

Электрон дарсларга буйиладиган талаблар :

1. Барча фойдаланувчилар учун мулжалланган тушунарли дарслик яратиш .
2. Дарслик кургазмали материалларга бой булиб, бу орбали купрок билим олиш .
3. Дарсликда мустабил ишлаш учун етарли маълумотлар булиши керак .

Билим ва узлаштириш даражасини текшириш учун маълумотлар булиши керак .

Хозирги кунда республикамизда ҳам масофадан уқитиши услубий материаллари айrim фанларни уқитишида фойдаланилмоқда ва яхши натижалар бермокда . Электрон кутубхоналар , электрон дарслар , он-лайн дарслар расмга кирмокда .

Мультимедиа дарслик узида купгина маълумотларни мужассамлаш билан бирга, бу маълумотларни экранда намойиш этади, ҳамда овоз ёрдамида изохлайди . Мультимедиа дарсларнинг хусусияти у воқеа ва маълумотларни яккол акс эттиради . Яъни мультимедиа воқеа ва маълумотларни хаётйлаштиради . Бу матн , видеотасвир , мультиплексия , овоз ва мусиба ёрдамида амалга оширилади .Интернетнинг иккита асосий функцияси бор. Бунинг биринчиси информацион функция булса , иккинчиси эса коммуникацион функциядир.

Интернетнинг информацион функцияси биринчи навбатда тармоқ фойдаланувчиларига талаб этилаётган ахборотларни тезкорлик билан етказиб бериш булса, иккинчидан у ахборотларни кенг оммага, жаҳон мибёсидаги нихоятда тез суръатда эълон қилиш (нашр килиш) имконияти мавжудлиги билан ифодаланади . Интернетнинг юбори сифатлар билан ривожланиши оммавий ахборот фаолиятида ва нашрчилигига кенг имкониятлар очиб берди . Масалан , интернет ёрдамида Нью Йоркдаги ёки Франциядаги энг сунгги хабарларни Тошкентга етказиб бериш , газета ва убув дарсларни тайёрлаш , нашр билиш , щамда уларни кенг убувчилар оммасига тарбатиш, хозирги мавжуд усувлардан бир неча



ун баробар арzon , тез ва самарадорлироб булади .

Интернетнинг коммуникацион функцияси фойдаланувчиларнинг масофадан туриб узаро мулобат билиш имкониятини яратиб берилиши билан ифодаланади. Бунга мисол тарбасида интернет электрон почтаси, интернет-телефон ва реал вабт оралигидаги бевосита хабар алмашиш, Chat - конференция ёрдамида амалга оширилаётган мулобатларни келтиришимиз мумкин . Бундан ташбари интернетнинг коммуникацион функцияси унинг фойдаланувчиларига видеомулобат билиш , видеоконференциялар уюштириш , бир шащардан туриб иккинчи шащар кучаларини (масофадаги Web - камералар ёрдамида) тамоша билиш ва музейларга ташриф буюриш, щамда табиат манзараларидан роҳатланиш имкониятларини беради .

Адабиётлар:

1. Бродо В.Л. офисные пакеты Word 2000 и Excel 2000 . СПб.: ГИЭУ,
2. Леонтьев В. Новейшая энциклопедия персонального компьютера. М.: ОЛМА-ПРЕСС Образование,2005-880 с.
3. Норенков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании. Учебное пособие.М.: Изд. МГТУ им. Н.Баумана.2002-336с.



АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Таженова Айсулу

Учитель русского языка и литературы

1 категории специализированной школы

№9 Кегейлийского района Республики Каракалпакстан

Аннотация к работе: Цель моей работы содержится в том, чтобы наши дети хорошо владели русским языком, умели ясно и четко выражать свои мысли, понимали, говорили, читали, могли анализировать художественные произведения русских поэтов и писателей. После окончания школы вышли на мировую арену со знанием и пониманием русского языка.

Ключевые слова: коммуникативные задачи, богатство и красота русского языка, языковой барьер, разноместное и подвижное, одушевленности и неодушевленности.

Важнейшей задачей обучения русскому языку в национальной школе является развитие связной речи учащихся, что обусловлено принципом коммуникативной направленности обучения. Решение коммуникативных задач должно привести к тому, чтобы оканчивающие национальную школу хорошо владели родным и русским языками.

Использование текстов художественных эффективны лишь в том случае, если учитель ведет системную работу, параллельно связывая уроки языка с литературой. Именно языковой материал позволяет учителю раскрыть перед нерусскими школьниками богатство и красоту русского языка, а также увидеть закономерности русского языка, в результате чего у учащихся развивается орфографическая зоркость, вырабатываются пунктуационные навыки и формируется мышление.

Рассмотрим некоторые проблемы преподавания русского языка в национальной школе. Поделюсь мыслями по поводу, исходя из своего опыта работы.

1) Это языковой барьер. В каракалпакской школе доминантным является каракалпакский язык. Многие старшеклассники не могут грамотно излагать свое мнение, не могут найти в русском языке эквиваленты слов при общении, соответственно вставляют слова из родного языка, автоматически больше предпочитают отвечать на родном языке;

- незнание лексических значений некоторых слов, даже из контекста учащиеся не могут установить значение слова;

- на уроке некоторые учащихся зачастую отмалчиваются из-за боязни допустить ошибки в речи. Таким учащимся нужна своевременная помощь учителя, лингвистическая поддержка до определенного времени.

2) Значительные трудности для учащихся каракалпакской школы представляет правильная постановка ударения в русских словах. В каракалпакском языке ударение обычно падает на последний слог слова (китап, кара, жасуллы). Ударение в русском языке разноместное и подвижное. Это значит, что в русских словах ударение может быть на любом слоге: торты, средства, отчество, добраться. Метод составления произнесения слогов под ударением в родном и русском языках поможет определить причины нарушения акцентных норм, наметить методические приемы обучения нормам ударения. Учащиеся часто анализируют не звуки, опираясь на законы устной речи, а буквы, которые изображают их в письменной речи. Например, словоформа тортов произносится с ударением на последнем слоге, хотя правильным считается звучание тортов; многие считают нормативным ударение позвоним (правильно: позвоним).

3) Существует трудность, связанная с различием существительных, по одушевленности и неодушевленности. При постановке вопросов к существительным лошадь (ат), корова (сыир), собака (ит), рыба (балық), галка (гарга) учащиеся автоматически задают вопрос что? (не нарсе?).

4) На письме наблюдается замена букв щ-ч. Порой орфографические ошибки носят самый элементарный характер и допускаются даже в часто употребляющихся словах: счастливый, чеснота.

5) Если трудности при осмыслении учащимися глаголов движения. Если в русском язы-



ке движение по земле дифференцируется на движение пешком и при помощи транспорта, то в каракалпакском языке подобная дифференциация отсутствует: глаголы ехать и идти передаются одним словом (бару). В итоге создаётся путаница между навыками в родной и русской речи.

6) Определение рода существительных. Трудность усвоения рода вызвана разными морфологическими способами обнаружения рода существительных. Род существительных с нулевым окончанием (конь- степь) определяется по окончаниям Р.п. и по суффиксам. Существительные муж. рода в Р.п. имеют окончание -а,-я, а женского рода окончание -и; суффиксы -тель,-арь указывают на принадлежность к мужскому роду (писатель, пахарь), а суффикс -ость- показатель женского рода (новость, гордость).

7) В русском языке имеются грамматические категории, которые отсутствуют в каракалпакском языке: род, виды глагола, предлоги, приставки.

8) При изучении синтаксиса необходимо учитывать то, что в каракалпакском языке сказуемое практически всегда находится в конце предложения, только в лирических произведениях для рифмовки сказуемое может быть в начале предложения.

9) Трудность заключается в нахождении предикативной части предложения, иногда вместо подлежащего учащиеся подчёркивают дополнение.

Считаю, необходимо учитывать вышеуказанные особенности

потому что учащиеся закономерности русского языка понимают через призму каракалпакского языка. Однако требования ГОСТ по русскому языку едины как для выпускников школы.

Другая проблема- это написание сочинений. Трудности в написании сочинений- рассуждений обусловлены слабо развитыми навыками аналитической работы со словом и текстом, отсутствием достаточной практики анализа текстов. Сочинения- это серьёзный источник для раздумий не только о школьном литературном образовании, но и об эффективности воздействия его на сердца воспитанников. Виды творческих работ разнообразны. Выбор их диктуется и требованием средней школы, и указаниями программы

Особое значение в практике обучения русскому языку имеют упражнения на аудирование. Тем более в 9 классе предстоит написать сжатое изложение.

Следует обратить внимание на приёмы формулировки домашнего задания. Эту весьма важную форму связи урока с внеурочными видами работы нельзя оставлять на самые последние минуты урока. Ученики при записи домашнего задания должны быть убеждены, что оно является необходимым продолжением проведенного на уроке закрепления материала, без которого невозможно успешное восприятие последующего. Такая установка заставит учащихся серьёзно относиться к домашнему заданию, особенно если они сами участвовали в его формулировке. Таким образом, в преподавании русского языка важным становится развитие личности школьников, способного жить и трудиться, творчески реализовывать себя в обществе.

Список литературы:

1. Асмолов А.Г. Формирование универсальных учебных действий в основной школе: от действия к мысли. Система заданий: пособие для учителя под ред. А.Г. Асмолова. – М.: Просвещение, 2011 – 159 с.
2. Корман Б.О. Изучение текста художественного произведения. – М., 1972 – 375 с.
3. Львова С.И. Уроки словесности. 5-9 класс. - М.: Дрофа, 2017г.
4. Меркин Г.С., Зыбина Т.М., Максимчук Н.А., Рябикова О.С. Развитие речи. Выразительные средства художественной речи.- М.: Русское слово, 2004г.
5. Акишина А.А., Формановская Н.И. Русский речевой этикет.- М, 1978г.
6. Ладыженская Т.А. Система работы по развитию связной устной речи учащихся. - М., 1975г.
7. Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение.- М., 1982г.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(10-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000